

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR
KADRALARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL ETISH
BOSH ILMUY - METODIK MARKAZI

O'ZDJTU HUZURIDAGI CHET TILLARNI O'QITISHNING
INNOVATSIYAVIY METODIKALARINI RIVOJLANTIRISH
RESPUBLIKA ILMUY-AMALIY MARKAZI

FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH: SHARQ TILLARI

“SHARQ TILLARNI O'QITISHDA TILSHUNOSLIKNING
NAZARIY ASPEKTLARI”
MODULI
MODULI BO'YICHA

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Toshkent – 2018

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 201 yil -sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchilar: f.f.d., professor Z.N.Xudaybergenova

Taqrizchilar: Sh.Usmonova filologiya fanlari doktori, professor (TDSHI)
D.Lutfullayeva filologiya fanlari doktori, professor (TDO‘TAU)

*O‘quv -uslubiy majmua O‘zDJTU huzuridagi RIAIM Kengashining 201 yil
dagi __-sonli qarori bilan tasdiqqa tavsiya qilingan.*

MUNDARIJA

I.ISHCHI O'QUV DASTURI	4
II.MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI	7
III. AMALIY MATERIALLAR MAZMUNI	10
VI. KEYSLAR BANKI.....	64
V. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI	70
Y.GLOSSARIY.....	71
YI. ADABIYOTLAR RO'YXATI	90

I.IShChI O'QUV DASTURI

Kirish

Dastur O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi "Oliy ta'lif muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4732-sod Farmonidagi ustuvor yo'nalishlar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u zamonaviy talablar asosida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda oliy ta'lif muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Dastur mazmuni oliy ta'lifning normativ-huquqiy asoslari va qonunchilik normalari, ilg'or ta'lif texnologiyalari va pedagogik mahorat, ta'lif jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash, amaliy xorijiy til, tizimli tahlil va qaror qabul qilish asoslari, maxsus fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, texnologik taraqqiyot va o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo'yicha so'nggi yutuqlar, pedagogning kasbiy kompetentligi va kreativligi, global Internet tarmog'i, multimedia tizimlari va masofadan o'qitish usullarini o'zlashtirish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta'lif sohasi bo'yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari va o'quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo'lib, bu orqali oliy ta'lif muassasalari pedagog kadrlarining sohaga oid zamonaviy ta'lif va innovatsiya texnologiyalari, ilg'or xorijiy tajribalardan samarali foydalanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayoniga keng tatbiq etish, chet tillarini intensiv o'zlashtirish darajasini oshirish hisobiga ularning kasb mahoratini, ilmiy faoliyatini muntazam yuksaltirish, oliy ta'lif muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va boshqarishni tizimli tahlil qilish, shuningdek, pedagogik vaziyatlarda optimal qarorlar qabul qilish bilan bog'liq kompetensiyalarga ega bo'lishlari ta'minlanadi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarining maxsus fanlar doirasidagi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar o'zgartirilishi mumkin.

Modulning maqsadi va vazifalari

Tinglovchilarining лингвистик таҳлил методлари хамда зарурий тушунчалар ва бу методларни тараққий босқичлари, турли методларни яратилиши ва о'лланиш доирасини чуқур тушунтириш ва илмий тушунчаларни шакллантириш.

Modul mavzu va topshiriqlari

- tilshunoslikning nazariy masalalari, tilshunoslik tarixi, lingvistik maktablar va bu maktablar tomonidan yaratilgan ta'lifotlar mohiyati; grammatik kategoriylar, grammatikaga oid zamonaviy ta'lifotlar, semantika, semantik kategoriylar,

lingvistik tahlil metodlaridan foydalanish, lingvogenetik, areal, tipologik, distributiv, transformasion tadqiqot metodlarini amalda tatbiq qilish malakalariga ega bo'lish;

- xorijiy mamlakatlar lingvistik nazariyalarini tarix nuqtai nazaridan tahlil qilish, ularni qiyoslab o'rganish, zamonaviy tilshunoslik haqida fikr yurita olish malakasiga ega bo'lishi;

- kommunikativ tilshunoslik, lingvopragmatika, psixolingvistika, gender tilshunoslik, neyrolingvistika, madaniyatlararo muloqot, lingvokulturologiya soxasida bilimga ega bo'lish.

Maxsus fanlar bo'yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- tilshunoslik fanining dastlabki bosqichlarida tahlil metodlarining yaratilishi, bu metodlarni yaratilishiga katta xissa qo'shgan olimlarning
 - lingvistik tahlimotlari va lingvistik tahlil metodlarining turlari va
 - erishilgan yutuqlari to'grisida yuqori saviyada bilimga ega bo'lishlari kerak;
 - lingvistik tahlil metodlarining rivojlangan dinamikasini chuqur tushunish va tahlil qilish ularni qiyoslab o'rganish va zamonaviy tilshunoslikda qo'llanilayotgan metodlari haqida fikr yurita olish malakasiga ega bo'lishlari lozim;
- tarixiy-traditsion va zamonaviy metodlarga tayangan holda fanda
- shakllangan ilmiy metodlarni til faktlarini taxlil qilishda to'pri qo'llash
 - malakasini shakllantirish, munozara yuritish, shu mavzularda suhbat qurishda
 - faol ishtirok etish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- tilshunoslikning nazariy aspektlarini sharhlash;
- tilshunoslik manbalari bilan ishlash;
- tilshunoslik vositalarini tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilish;
- tilshunoslik tadqiqiga yangi ma'lumotlarni kiritish;
- tarjimada noyob so'zlarni qo'llash **ko'nikmasiga** ega bo'lishi kerak.

Tinglovchi:

- tilshunoslikning taraqqiyot qonuniyatları, sohaning nazariy masalalari, muammolari va uning o'ziga xos xususiyatlarini bugungi kun til taraqqiyoti nuqtayi nazaridan talqin etish;
 - fanni o'qitishning zamonaviy interaktiv metodlaridan foydalanish;
 - tilshunoslikning turli nazariyalarini qiyoslash va tahlil qilish;
 - tilshunoslik nazariyalarini ilmiy faoliyati va amaliyotga tatbiq qilish;
 - kasbiy, tilshunoslik va tarjimonlik faoliyatida tilshunoslikning dolzarb masalalarini hal qilish;
 - tilshunoslik metodlarini qo'llay olish;

Tinglovchi:

- chet tilini o'qitishning xorijiy metodikasi tajribasini tahliliy o'rganish, umumlashtirish, ularning yutuqlaridan ta'lim jarayonida foydalanish;

- kommunikativ kompetensiyani aniqlash xususiyatlariga mos nazorat metodini tanlash;
- testlarning kommunikativ kompetensiya darajasini aniqlash, test tuzish, uning sifat va samaradorligini aniqlash mezonlari bilish;
- test natijalarini aniqlash va baholash mezonlarini ishlab chiqish va ta'limga joriy etish kompetensiyalariga ega bo'lishi zarur.

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

"Sharq tillarni o'qitishda tilshunoslikning nazariy aspektlari" kursi amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- darslarda zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;

- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspresso-rovlardan, test so'rovlar, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kolokvium o'tkazish, va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

"Sharq tillarni o'qitishda tilshunoslikning nazariy aspektlari" moduli mazmuni o'quv rejadagi diskurs tahlili o'quv moduli bilan uzviy bog'langan holda pedagoglarning til ko'nikmalarini talab darajasida qo'llay olish malakasini orttirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta'limdagи o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar til ko'nikmalarini mos ravishda amalda qo'llash malakasi va kasbiy salohiyatlarini rivojlanтирадилар.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat			Mustaqil ta'lim	
		Auditoriya o'quv yuklamasi		jumladan		
		Jami	Nazariy			
1.	"SHarq tillarini o'qitishda tilshunoslikning nazariy aspektlari" kursining mazmuni va muammolari	2	2			
2.	Yevropada uyg'onish davri va komparativistika	4		2	2	
3.	Tilshunoslik metodlari va zamonaviy yo'nalishlari			2	4	
		12	2	4	6	

Amaliy mashg‘ulotlar mazmuni
1-mavzu: “SHarq tillarini o‘qitishda tilshunoslikning nazariy aspektlari” kursining mazmuni va muammolari

Tilshunoslikning nazariy masalalari, tilshunoslik tarixi, lingvistik maktablar va bu maktablar tomonidan yaratilgan ta’limotlar mohiyati; grammatik kategoriylar, grammaticaga oid zamonaviy ta’limotlar, semantika, semantik kategoriylar, lingvistik tahlil metodlaridan foydalanish, lingvogenetik, areal, tipologik, distributiv, transformasion tadqiqot metodlari;

2-mavzu: Yevropada uyg‘onish davri va komparativistika

xorijiy mamlakatlar lingvistik nazariyalarini tarix nuqtai nazaridan tahlil qilish, ularni qiyoslab o‘rganish, zamonaviy tilshunoslik

3-mavzu: Tilshunoslik metodlari va zamonaviy yo‘nalishlari

kommunikativ tilshunoslik, lingvopragmatika, psixolingvistika, gender tilshunoslik, neyrolingvistika, madaniyatlararo muloqot, lingvokulturologiya.

O‘QITISH ShAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- noan’anaviy o‘qitish (interaktiv, konferensiya, debat);
- davra suhbatlari (muhokama etilayotgan muammo va uning yechimi bo‘yicha mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli raqamlar taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

BAHOLASH MEZONI

Nº	Baholash mezoni	Maksimal ball	Izoh
1	Portfolio yaratish- 1,5ball Keys tuzish – 1,0 ball	2.5	Integrallashgan til ko‘nikmalarini har biri bo‘yicha aniq topshiriqlar bajariladi va baholanadi

II.MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI.

MULOQOT TRENINGI

Ushbu trening tinglovchilarda dars jarayonida mustaqil fikrlashga, o‘z fikrini erkin holda bayon eta olishga hamda ularda bahslashish madaniyatini tarbiyalashga qaratilgan bo‘lib, odatda bunday mashg‘ulot tinglovchilarni kichik guruhlarga bo‘lgan holda o‘tkaziladi.

FSMU TEXNOLOGIYaSI

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, bahs munozaralar o‘tkazishda yoki o‘quv-seminari yakunida (tinglovchilarning o‘quv seminari haqida fikrlarini bilish maqsadida), yoki o‘quv rejasi asosida biron bo‘lim o‘rganib bo‘lingach qo‘llanilishi mumkin, chunki bu texnologiya tinglovchilarni o‘z fikrini

himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan bir qatorda tinglovchilarni o‘quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o‘rgatadi.

BLIS-SO‘ROV TEXNOLOGIYaSI

Blis- pedagogikada tezkor, bir zumlik ma’nosida ishlatiladi.

Bu texnologiyada tinglovchilarga o‘rganilgan butun mavzu yoki uning ma’lum qismining asosiy tushunchalari va tayanch iboralari bo‘yicha tuzilgan savollarga javob (og‘zaki, yozma, biror jadval yoki diagramma ko‘rinishida) berishlari taklif etiladi.

BLIS – O‘YIN TEXNOLOGIYaSI

Ushbu texnologiya tinglovchilarni harakatlar ketma–ketligini to‘g‘ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o‘rganayotgan predmeti asosida ko‘p, xilma–xil fikrlardan, ma’lumotlardan kerakligini tanlab olishni o‘rgatishga qaratilgan. Ushbu texnologiya davomida tinglovchilar o‘zlarining mustaqil fikrlarini boshqalarga o‘tkaza oladilar, chunki bu texnologiya shunga to‘liq sharoit yaratib beradi.

SINEKTIKA METODI

Bu metod amaliy, seminarlar va laboratoriya mashg‘ulotlari uchun qulay bo‘lib, «aqliy hujum» metodiga yaqin. Bunda tinglovchi darsda qo‘yilgan muammoni hal qilish yuzasidan analogiyaga assoslangan holda o‘z fikrlarini, qarashlarini olg‘a suradi. Bunda analogiya bevosita, shaxsiy, ramziy va xayoliy bo‘lishi mumkin.

GALEREYaNİ AYLANISH METODI

Kichik guruhlarning barcha a’zolariga bitta muammo taklif etiladi. Har bir kichik guruh o‘zlariga berilgan muammoga belgilangan vaqt ichida fikrlarini yozib, javoblari yozilgan varaqlarini boshqa guruh bilan almashtiradi. Javoblarni olgan guruh ularni baholaydi va tugal bo‘lmasa o‘z variantlari bilan to‘ldiradi. So‘ngra guruhlar fikrlari umumlashtirilib, eng yuqori ballga arziydigan to‘g‘ri va mukammal javoblar tanlab olinadi.

SINDIKAT METODI

Guruh uchta kichik guruhlarga bo‘linadi. Bunda taklif etilayotgan topshiriq uch xil nuqtai nazardan hal etilish zarur.

SKARABEY TEXNOLOGIYASI

“Skarabey” interaktiv texnologiya bo‘lib, u tinglovchilarda fikriy bog‘liqlik, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishda o‘z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya tinglovchilarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o‘rganayotgan mavzu haqida tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. U, ayni paytda turli g‘oyalarni ifodalash hamda ular orasidagi bog‘liqliklarni aniqlashga imkon yaratadi.

SWOT- TAHLIL JADVALI TEXNOLOGIYASI

SWOT termini inglizcha kuchli, kuchsiz, imkoniyat, havf so‘zlarining bosh harflaridan tuzilgan. Bu texnologiyadan tashkilot yoki biror korxonanining kelgusidagi strategik rivojlanish mexanizmlarini tahlil etishda foydalanish qulay.

DAVRA SUHBATLARI METODI

Davra suhbatida ma'ruzachi o'qituvchi bosh tashkilotchi bo'lib qoladi. Davra suhbatlari ko'pincha tinglovchilarga tanish yoki yaqin mavzularda o'tkaziladi. Davra suhbat mavzulari, rejalar, savollari tinglovchilarga avvaldan bir necha kun oldin tarqatiladi.

Tinglovchilar uchun mustaqil tayyorgarlik ko'rishga, ularni bir-birlari bilan avvaldan o'zaro fikr almashishga, kutubxona, internetdan ayrim ma'lumotlarni toplash, qayta ishslash, kichik matn tuzish imkoniyati yaratiladi. Davra suhbatining afzalligi shundaki, har bir tinglovchi individual tayyorgarlik ko'radi. Har ikki tomon davrani o'tkazishga tayyorgarlik bilan keladi. Suhbatni o'qituvchi, goho lider tinglovchi olib borishi mumkin.

MUNOZARA METODI

Disput- bu ikki yoki ko'proq kishilarning keskin chegaralangan qoidalar doirasida og'zaki olib boriladigan bahsi, munozarasi, masala talashuvidir. Disput mavzusi tayyorgarlik ko'rish uchun o'tkazishdan oldin tinglovchilarga ma'lum qilinadi.

Tinglovchilarga bilim berishga mo'ljallangan disputda kamida bitta rais va ikki guruhning har biridan bir nafardan so'zlovchi qatnashadi. Disputni ochuvchi birinchi tinglovchi qo'yilgan taklifni ma'qullab chiqsa, ikkinchisi unga qarshi chiqadi, ya'ni opponent bo'ladi.

So'zlovchilarga 10 minutdan, har ikki guruhdan ikkitadan ortiq bo'limgan qo'shimcha qilishga chiqadigan tinglovchilarning har biriga 5 minutdan vaqt beriladi. Ikki marta so'zga chiqishga ruxsat etilmaydi. So'zga chiquvchilarning barchasi raisga murojaat etishadi va uning qarori qat'iy bo'lib, disputning mavzudan chetga chiqib ketmasligini nazorat qiladi.

MUNOZARA LEKSIYA METODI

O'qituvchi leksiya o'qiydi, auditoriyaning savollariga javob beradi va o'z navbatida tinglovchilarga savollar bilan hujum qiladi. Bunday leksiyalarda tinglovchilarning faolligi ancha yuqori bo'ladi. Tinglovchilar soni 20 tadan ortiq bo'limganda munozarali leksiya metodi an'anaviy leksiyalarga qaraganda afzal bo'ladi, chunki bunday holda o'qitishning kichik guruhlarda qo'llaniladigan metodlarini tatbiq etishga keng imkoniyatlar tug'iladi.

TARMOQLAR METODI (KLASTER)

Fikrlarning tarmoqlanishi bu pedagogik strategiya bo'lib u tinglovchilarni biror-bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam berib tinglovchilarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravshan ketma-ketlik bilan uzviy bog'lagan holda tarmoqlashlariga o'rgatadi.

Bu metod biron mavzuni chuqur o'rganishdan avval tinglovchilarning fikrlash qobiliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish, umumlashtirish hamda tinglovchilarning shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

III. AMALIY MATERIALLAR MAZMUNI

1-MA'RUZA: "SHARQ TILLARINI O'QITISHDA TILSHUNOSLIKNING NAZARIY ASPEKTLARI" KURSINING MAZMUNI VA MUAMMOLARI

Reja:

1. Tilshunoslik fan sifatida
2. Tilshunoslik fanining mazmuni
3. Tilshunoslik metodlari
4. Jahonning mashhur tilshunoslari
5. Jahon tilshunosligining so'nggi muammolari

MAQSAD: Tilshunoslik nazariyasi fanining mundarijasi va mohiyati, uning asosiy masalalari bilan tanishtirish.

MUAMMO: Lingvistika sohasining asosiy masalalari, uning tarixiy bosqichlari hamda uning mohiyati.

Fan sistema (butunlik) sifatida ichki bo'linish xususiyatiga, ya'ni ichki tuzilishga ega. Uning ichki tuzilishi pog'onalidir. Bu bo'linishning har biri bir pog'onani hosil qilib, keyingi bo'linishlar uchun kichik sistema vazifasini o'taydi. Masalan, fan tabiiy fanlar, ijtimoiy-gumanitar va texnika fanlari yo'naliшlariga bo'linadi. Tabiiy fanlar sistemasida o'zaro munosabatda bo'lган bir necha bo'laklarning bittasi sifatida sistema elementi sanalsa, keyingi bosqichda tabiiy fanlarning o'zi fizika-matematika, kimyo, biologiya kabi fan tarmoqlarini o'z ichiga olib, bu fanlar uchun sistema rolini o'taydi. Fizika-texnika fanlari fizika va matematika fanlariga bo'linadi. Ular yana ichki bo'linishga ega. Masalan, matematika o'z ichida matematik tahlil, geometriya, ehtimollar nazariyasi, algebra va sonlar nazariyasi kabi ixtisosliklarga bo'linadi.

Har bir bo'linishda bo'linuvchi sistema bo'lsa, bo'linma uning a'zosi vazifasini bajaradi. Sistema tarkibidagi har bir a'zo shu sistema doirasida o'zaro shartlangan, bir-birini taqozo etuvchi munosabatda bo'ladi. Jumladan, matematika tarkibiga kiruvchi barcha ixtisosliklar o'zaro ana shunday munosabatdadir. Fanlar sistemasida ma'lum fan tarmog'i bilan munosabatda bo'lмаган biror tarmoq mavjud emas. Shu jumladan, tilshunoslik ham fan sifatida fanlar sistemasining bir a'zosi hisoblanadi va boshqa fan tarmoqlari bilan doimo aloqada o'r ganiladi.

Tilshunoslik tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi, til va tafakkur, til va jamiyat o'rtasidagi munosabatlari, tilning jamiyatdagi o'rni, ichki tuzilishi - tilning tasnifi, uni tahlil etish usullari va shu kabi masalalarni o'r ganadigan fandir.

Tilshunoslik muayyan va umumiyl Tilshunoslik sohalaridan iborat. Ma'lum bir tilning lug'at tarkibi, fonetik sistemasi va grammatik qurilishi shuningdek, tarixiy taraqqiyot yo'llarini o'r ganishga asoslagan muayyan tilshunoslik bir tilni o'r ganish bilan cheklansa, umumiyl tilshunoslik undan farqlangan holda, umuman tilning kelib chiqishi, ijtimoiy mohiyatini, jamiyatdagi o'rni, vazifasini, taraqqiyot yo'llarini, til bilan tafakkurning bir-biriga uzviyligini, barcha tillarning o'zaro munosabatini o'r ganadi hamda tillarni tekshirish usullarini yaratadi. Umumiyl tilshunoslik ayrim tillarni, bir guruh tillarni o'r ganish, tekshirish natijasida

aniqlangan til hodisalarini, til dalillarini umumlashtirib, umumiyl xulosalar chiqaradi va xuddi shu asosda til qonuniyatlarini aniqlab beradi.

Tilni tilshunoslikdan tashqari, falsafa, mantiq kabi boshqa fanlar ham o'rganadi. Ma'lumki, tafakkurga daxldor masalalar mantiq ilmining mavzusidir. Shu tufayli mantiqchilar tafakkur qonuniyatları bilan birga, fikrning tilda aks etishini o'rganmasliklari mumkin emas. Undan tashqari, til va tafakkur bir-biri bilan uzviy bog'langan. Biri ikkinchisiz yashay olmaydigan hodisadir. Tafakkur tilda yashaydi, har qanday nutq asosida esa tafakkur yotadi. Mantiq tilni ana shu yo'nalishda o'rganadi.

Til so'z, morfema va fonemalarning oddiy yig'indisi emas. U bir butun sistemadir. Tilning sistemaliligi uning ichki tuzilishida namoyon bo'ladi. Chunki u ham ichki tuzilishiga ega bo'lib, bu ichki tuzilish pog'onaviylik xususiyatiga ega. Har bir pog'onaga xos birlik ikki va undan ortiq uzvlarning o'zaro munosabatidan tashkil topgan butunlikdir. Masalan, sintaktik sath birligi bo'lgan gap predikativ belgini o'zida ifoda etuvchi butunlik sanalib, shaxs (personallik), zamon (temporallik), modallik va tasdiq-inkorlik ma'nolari va bu ma'nolarni ifodalovchi shakllarning o'zaro munosabatidan tashkil topadi. So'z morfologik sath birligi sifatida ikki va undan ortiq morflarning o'zaro munosabatidan tashkil topgan butunlik, morfema esa ikki va undan ortiq fonlarning o'zaro munosabatidan tashkil topgan butunlik sanaladi.

Ko'rindiki, til bir butun sifatida sistema bo'lib, u ichki bo'linuvchanlik xususiyatiga ega. Tilning ichki bo'linishi pog'onaviylik kasb etadi. Til ichki bo'linishining eng oxirgi nuqtasi shakliy tomondan *fonema* (*fon*), mazmuniy tomondan *sema* bilan yakunlanadi. Masalan, jo'nalish ma'nosini bildiruvchi morfema ikki va undan ortiq elementlarning o'zaro munosabatidan tashkil topgan butunlik hisoblanadi. Bu butunlik shakliy tomondan [g] va [a] fonema (*fon*)larining xuddi shu tartibdagи sintagmatik munosabatidan, mazmuniy tomondan esa yo'nalish (*Toshkentga*), atash (*akamga oldim*), evaz (*yuz so'mga oldim*) singari semalar munosabatidan tashkil topgan.

Tilning ichki tuzilishining pog'onaviylik tabiatni butunlik deb olinayotgan birlikning nisbiyligini ko'rsatadi. Butunlik deb qaralayotgan ob'ekt faqat tilning ma'lum pog'onasiga nisbatan olinadi. Bir pog'onada butunlik sifatida qaralayotgan ob'ekt o'zidan yuqori pog'ona uchun katta butunlik tarkibiga uning elementi bo'lib kiradi. Masalan, morfema morfemik sathda ikki va undan ortiq fonema (*fon*)larning munosabatidan tashkil topgan butunlik sifatida, morfologik sathda esa so'z (so'z shakl)ning bir elementi sifatida qaraladi.

Har qanday fan maxsus tadqiqot metodlarini ishlab chiqadi. Bu ilmiy tadqiqot metodlari falsafiy va mantiqiy metodlar bilan umumilmiy metodlar orqali muvofiqlashadi.

Xususan, tilshunoslikda qo'llaniladigan metodlar matematika yoki fizikada qo'llaniladigan metodlardan farq qiladi. Fizikada asboblar yordamidagi eksperiment metodi ustivorlik qilsa, tilshunos matn tahlili va uni umumlashtirish usulidan ko'proq foydalanadi.

Tilshunoslikda tavsifiy, qiyosiy-tarixiy, struktur singari metodlar qo'llaniladi va ulardan qaysi birining ustuvor metodga aylanishiga ko'ra tilshunoslik tarixi ham turli bosqichlarga bo'linadi.

Struktur lingvistikaning muhim tarmog‘i glossematikadir. Bu yo‘nalish F.de Sossyur konsepsiysi asosida, lekin uning qarashlariga bir tomonlama yondashgan holda maydonga keldi.

Glossematika yunoncha **glossa** “til” so‘zidan olingan bo‘lib, bu yo‘nalish tarafdarlarining e’tirof etishiga ko‘ra, ob’ektni o‘rganishda o‘ta sub’ektivizmga yo‘l qo‘ygan va shuning uchun noilmiy bo‘lgan an’anaviy tilshunoslikka qarama-qarshi ravishda paydo bo‘ldi.

Glossematikaning asosiy tamoyillari V.Brendalning “Struktural lingvistika”, L.Elmslevning “Til nazariyasi tezislari”, “Boshqaruv tushunchasi”, “Lingvistikada struktur tahlil metodi”, “Til va nutq” singari bir qator asarlarida bayon qilingan.

V.Brendal yuqorida ko‘rsatilgan asarida struktural lingvistikaning paydo bo‘lish sabablari haqida yozar ekan, bu yo‘nalish maydonga kelgunga qadar bo‘lgan qiyosiy – tarixiy tilshunoslik, yosh grammatikachilar qo‘llagan tekshirish metodlariga baho beradi. Adabiy oqimlarning naturalizm va realizm davriga xos eng kichik faktlarni aniq va sinchkovlik bilan tahlil etish tamoyilidan ilhomlangan qiyosiy - tarixiy tilshunoslik sof pozitivistik xususiyatga ega bo‘lgani, u bevosita kuzatishga beriluvchi hodisalarini, ya’ni tovushli nutqni o‘rganish bilan cheklanganligiga tanqidiy baho beradi.

Pozitivism yosh grammatikachilar davrida ham amal qilgani ta’kidlanadi.

XX asrda ko‘zga ko‘ringan gnoseologlar pozitivistik nuqtai nazarning kuchsiz tomonlarini ochib tashladi. Bunday konsepsiya hozirgi fanning ravnaqi uchun endi xizmat qilolmasligi aniq bo‘lib qoldi.

Strukturalizm nomi bilan ma’lum bo‘lgan yangi nuqtai nazarning xarakterli belgisi, uning fikricha, butunlik tushunchasiga ta’kid berishdir.

Glossematikaning asosiy tamoyillari uning yirik vakili bo‘lgan L.Elmslev asarlarida yorqin o‘z ifodasini topgan.

“Boshqaruv tushunchasi” asarida struktural lingvistika endigina shakllanayotgani, hozirgi kunda u amal qiladigan dastur haqida gapirish ham hali erta ekanligini ta’kidlagan holda, bu tilshunoslikning muhim jihatilga struktura sifatida yondashuv ekanligini bayon qiladi”

Uning fikricha, struktura o‘z ichki tartibiga asoslangan ierarxiya ekanligi va yagona tayanch nuqtaga egaligi bilan xarakterlanadi. Bu ierarxiyani faqat deduktiv yo‘l bilan yoritish mumkin.

Xuddi shunday ierarxiyani o‘rganishga mo‘ljallangan deduktiv metodni esa *empirik* yoki *immanent-semiologik* metod deb hisoblaydi.

Empirik yoki immanent - semiologik metod belgilari funksiyasini lingvistik tadqiqotlarning asosiy predmeti deb hisoblaydi. Bu metod, L.Elmslev ta’biri bilan aytganda, semiologik hodisalar bilan semiologik bo‘lmagan hodisalarini farqlamasdan, ularni aralashgan holda o‘rganuvchi har qanday metoddan afzallikka ega. Empirik metod bu *soddalik* tamoyiliga asoslangan metoddir.

Struktural lingvistika tilshunoslikda yangi yo‘nalish sanalib, uning metodi bir vaqtning o‘zida *deduktivlik* va *empirik* tamoyilga asoslanishini bayon qiladi.

“Tilshunoslik va struktur tahlil metodi” asarida hozirgi tilshunoslikning asoschisi ko‘p jihatdan F.de Sossyur hisoblanishi, chunki u birinchilardan bo‘lib, tilni struktur o‘rganishga, ya’ni til birliklarini bevosita nutq jarayonida qanday

voqelanishidan qat’iy nazar, ular o‘rtasidagi munosabatni o‘rganishga da’vat etganini bayon qiladi.

Ana shundan kelib chiqqan holda, u real til birliklari tovush yoki harf va ma’nolar emas, balki tovush yoki harf va ma’nolar yordamida gavdalangan *munosabat elementlaridir*, degan xulosaga keladi. Muhim narsa tovush yoki harflardan emas, balki nutq zanjirida va grammaticadagi paradigmalarda mavjud bo‘lgan *munosabatlardir*. Xuddi ana shu munosabat til sistemasini tashkil etadi. Xuddi ana shu ichki sistema ma’lum bir tilni boshqa bir tildan farqlab turuvchi xarakterli belgi sanaladi.

Shuning uchun munosabatlar tugunini o‘rganish lingvistikaning bosh maqsadi bo‘lishi kerakligini, bu munosabatlar tugunining konkrent namoyon bo‘lishi til uchun muhim emasligini bayon qiladi. Uning fikricha, ma’lum bir qiymat turli moneta, qog‘oz pul, cheklar orqali namoyon bo‘lishi mumkin. Lekin ular qanday gavdalanishidan qat’iy nazar qiymat o‘zgarmaydi.

Shu sababli L.Elmslev tilni *immanent* o‘rganishni talab qiladi va bunday o‘rganishni o‘zigacha bo‘lgan o‘rganish usuli, narsalarning o‘zgaruvchan belgilarini farqlamasdan o‘rganuvchi transsepdent bilishga qarama-qarshi quyadi. Uning fikricha, shu kungacha til transendent bilish, ya’ni tilga yondosh hodisalarini bilish vositasi bo‘lib keldi. Masalan, klassik filologiya, eng avvalo, tildan ko‘ra adabiyot va madaniyatni; qiyosiy tilshunoslik, eng avvalo, tarixni o‘rganish bilan shug‘ullanib keldi. Aslida lingvistik nazariya tilni tildan tashqaridagi hodisalar (fizik, fiziologik, psixologik va boshq.) bilan aralashgan holda emas, balki o‘z ichidagi yaxlit strukturani o‘rganish lozimligini ko‘rsatadi.

Muammoning javobi: Umumiylar tilshunoslik fani o‘z doirasiga tilshunoslik tarixi, tilning nazariy masalalari hamda til tuzilishi bilan bog‘liq muammolarni qamrab oladi.

TILShUNOSLIK TARIXI. ANTIK DAVR TILShUNOSLIGI

Tilshunoslik fani uzoq va boy tarixga ega. Bir nacha asrlar davomida dunyoning turli mamlakatlarida til haqida xilma-xil g‘oya va ta’limotlar yaratildi. Umuman, tilshunoslikning paydo bo‘lishi va rivojlanishiga turli mamlakatlarda turli omillar sabab bo‘ldi. Ilk davrlarda tilshunoslik falsafa fani bilan birgalikda o‘rganilgan bo‘lsa, keyinchalik bu soha mustaqil fanga aylandi.

Hindiston tilshunoslikning eng qadimgi o‘chog‘idir. 2500 yildan ortiqroq tarixga ega bo‘lgan qadimgi Hind tilshunosligi amaliy ehtiyojlar talabi bilan ilohiy gimm – Vedalarning aniq talaffuzini saqlash, shuningdek, qadimgi Hindistonning yagona adabiy tili hisoblangan sanskritni normaga solish ehtiyoji bilan vujudga keldi.

Hindlarda tilshunoslik masalalari Veda adabiyotlarining eng qadimgi yodgorliklari – vedangalarda aks etadi. Vedangalardan birida (Ishkshoda) fonetika va talaffuz masalalari, boshqasida (Vyakoranada) – grammatica, uchinchisida (Niruktada) etimologiya va leksikologiya, to‘rtinchisida (Yexandada) poetikaning nazariy masalalari yoritiladi. Bu vedangalar qadimgi Hind tilshunosligining asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradi.

Qadimgi Hind tilshunosligining yorqin namoyandasini Panini (taxminan eramizgacha IV asr)dir. U hind tilining dastlabki normativ grammaticasini yaratdi.

Panini grammatisasi 4000 dan ortiq qoidalari (sutra)lardan iborat. Bu grammaticada fonetika katta o‘rin egallaydi. Tovushlarning kombinator o‘zgarishlari batafsil yoritiladi, urg‘u haqida ma’lumot beriladi. Veda tili sanskritga solishtiriladi. Shunday qilib hind tilshunosligida qiyosiy metod namunalarini beradi. Ammo nazariy umumlashmalar qilmaydi.

Panini grammatisasi hind tilshunosligida juda katta obro‘ga ega bo‘ldi. Uning qoidalari ikki ming yildan ortiq sanskrit grammaticasida foydalanildi. Utavsiya etgan so‘zlarning morfologik analiz metodikasi hozir ham o‘z quvvatini yo‘qotgani yo‘q.

Paninining izdoshi Vororuchi Katyana (eramizgacha Sh asr)dir. U o‘rta hind (prakrit) tillarini o‘rganish bilan shug‘ullandi va tilshunoslikka tillarning tarixiy taraqqiyoti g‘oyasini olib kirdi. U qiyosiy-tarixiy metod bilan birinchi marta ish ko‘rdi. Tovushlarning tarixiy taraqqiyoti, fonetik o‘zgarishlar, ayniqsa, assimilyatsiya haqida batafsil ma’lumot berdi.

Hind tilshunosligi tarixida Bxartxari (I asr) nomi ham alohida o‘rin egallaydi. U ko‘proq sintaksis masalalari bilan shug‘ullandi. **Gap** jumlaning boshqa mayda bo‘lakka bo‘linmaydigan bir butun birlik sifatida talqin etildi. Shuning uchun ham u tilning asosiy birligi sifatida qaraldi. Chunki faqat shu birlik fikr ifodalaydi.

Shunday qilib qadimgi hind tilshunosligida tilning fonetika, mofologiya sathlari bo‘yicha tadqiqotlar olib borildi.

Qadimgi Hind tilshunosligida, ayniqsa, fonetika sohasida katta yutuqlar qo‘lga kiritildi. Hind fonetistlari fiziologik prinsipga tayanganlari holda ayrim tovushlarning artikulyatsiyasini aniq tavsiflaydilar va shu bilan birga, tovushlar klassifikatsiyasining g‘oyat to‘g‘ri prinsipini ham belgilaydilar. Hind tilshunoslari unli va undosh tovushlarni, portlovchi va sirg‘aluvchi undoshlarni, tovushlarning qisqa va cho‘ziqliklarini, urg‘uni to‘g‘ri farqladilar. Nutq oqimida tovushlarning o‘zaro ta’siri masalalari bilan shug‘ullandilar. Artikulyatsiya o‘rni va artikulyatsiya organlarini ajratildi. Hind tilshunoslari fonema tushunchasiga yaqinlashdilar. Ular nutq tovushidan farq qiladigan // belgi funksiyasini bajaruvchi tovush birligi – “sphota” termini bilan nomlangan birlikni farq qildilar.

Hind tilshunoslari gapni fikr ifodalashda muhimligini ta’kidlasalar ham, ammo sintaksis bilan maxsus shug‘ullanmadilar. Morfologik hodisalarini talqin qilishdagina sintaksisning ayrim xususiyatlari haqida fikr yuritildi.

Morfologiya so‘z turkumlari klassifikatsiyasi, so‘z yasalishi va o‘zgarishi haqidagi ta’limot sifatida talqin etildi. So‘z turkumlarini to‘rt guruhga ajratdilar: ot (imya), fe’l, ko‘makchi va yuklama.

Ot predmet bildiruvchi so‘z, fe’l harakat bildiruvchi so‘z sifatida izohlandi. Predlog ot va fe’llarning ma’nolarini belgilovchi turkum sifatida talqin etildi. Yuklamalar o‘z navbatida, biriktiruvchi, qiyoslovchi va bo‘sh (pustie) yuklamalarga ajratildi. Olmosh va ravish ot va fe’llar tarkibida o‘rganildi.

So‘z tahlilida bir so‘zning shakllariga e’tibor berildi. Qiyoslanganda shakl va mazmun jihatdan bir xil so‘zlar tarkibli qismlarga ajratildi: o‘zak, suffiks va okonchanie.

Keyinchalik Hind tilshunosligi ta’sirida Yevropa tilshunosligida o‘zak va so‘z yasovchi hamda so‘z o‘zgartiruvchi morfemalarga ajratdilar.

Qadimgi Hind grammatislari ichki fleksiyaga katta e'tibor berdilar. Nol morfema tushunchasini tilshunoslikka olib kirdilar.

Otlarda yettita kelishik shakllarini ajratdilar: bosh, qaratqich, chiqish, tushum, qurol, abladi (otlojitelniy) va o'rin kelishiklari. Bu kelishiklar raqamlar bilan tartibiga ko'ra nomlandi: birinchi, ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi va boshqalar.

Shunday qilib, qadimgi Hind tilshunosligi dunyo tilshunosligining vujudga kelishida bosh stimul vazifasini bajardi. V. Tomsen ta'rifi bilan aytganda, hind tilshunosligi shunday cho'qqiga ko'tarildiki, Yevropa tilshunosligi XIX asrgacha bunday cho'qqiga ko'tarila olmadi.

Agar qadimgi Hind tilshunosligi amaliy ehtiyojlarni qondirish talablari asosida vujudga kelgan bo'lsa, qadimgi Gresiyada til Aleksandriya maktabi vujudga kelgunga qadar tilshunoslik masalalari filosiflar asarlarida markaziy o'rinni egalladi. Demak, til nazariyasi filosofiyaning ajralmas qismi hisoblanadi.

Qadimgi grek tilshunosligi odatda ikki davrga bo'linadi: falsafiy davr (eramizgacha V-III asrlar). Bu davrda tilshunoslik falsafa masalalari bilan bog'lanib o'rganildi; Aleksandriya davri (eramizgacha Sh – eramizning IV asrlari). Bu davrda tilshunoslik mustaqil fan tarmog'iga aylandi.

Qadimgi grek mutafakkirlarining diqqatini jalb etgan asosiymuammolardan biri tilning kelib chiqishi masalasidir. Antik davr filosoflari tilning qandaydir ilohiy kuch tomonidan vujudga kelganini inkor etadilar. Tilning kelib chiqishini sotsial hayot bilan bog'ladilar. Ammo turli qarashlar bayon qilindi. Jumladan, **Lukresiy** (eramizgacha I asr) undov nazariyasini olg'a suradi. Ayrimlari tilning kelib chiqishini insonning kelib chiqishi bilan bog'lagan holda inson qichqiriqlari asosida izohlaydilar. Jumladan, Demokrit insonning dastlab hayvonot dunyosi kabi gala-gala yashaganligi, keyinchalik kollektiv ov jarayonida vahshiylardan qo'rqib har xil tovush chiqargan, bu tovush orqali bir-birini anglay boshlagani haqida gapiradi. Dastlab qismlarga ajralmaydigan tovushlar chiqargan bo'lsalar, keyinchalik qismlarga ajratish qobiliyatiga ega bo'ldilar.

Qadimgi grek tilshunosligida ism bilan u ifodalagan predmet o'rtasida tabiiy bog'liqligi borligi yoki yo'qligi haqidagi masala eng markaziy masalalardan biri hisoblanadi. Bu masalada qadimgi grek tilshunoslari ikki guruuhga bo'linadilar. Ularning tipik vakillari **Geraklit** (eramizgacha 540-480) va **Demokrit** (eramizgacha 460-370)lardir. Geraklit har bir nom o'zi ifodalagan narsa bilan bog'langan – motivlangan deb hisoblaydi. Xuddi predmetlar soyasi, insonning oynadagi aksi kabi nom predmetning tabiatini aks ettiradi, deydi.

Demokrit, aksincha, nom bilan u ifodalagan narsa o'rtasida hech qanday bog'lanish yo'q, deydi. Uning fikricha, nom va predmet o'rtasida juda ko'p nomuvofiqliklar bor: 1) bir predmet bir necha nom bilan nomlanadi; 2) u nom bir necha predmetlarni ifodalaydi; 3) vaqt o'tishi bilan ma'lum predmetlar nomi ikkinchisi bilan almashinishi mumkin; 4) ko'p tushunchalar so'z ifodasiga ega emas. U birinchi holatda so'zning ortiqchaligini, ikkinchi holatda kamchiligi, uchinchi holatda beqaror, to'rtinchi holatda esa umuman yetishmasligini ko'rsatadi.

Bu dialog Aflatun (eramizgacha 428-348)ning "Kratil" asarida yorqin o'z ifodasini topadi. Ikki lager qarashlari Germogen va Kratil dialogida ochiladi. Kratil har bir pedmetning tabiat bergen o'z to'g'ri nomi bor ekanligini aytadi. Germogen,

aksincha, nom kishilarning o‘zaro kelishuvi natijasida hosil bo‘lgan, deydi. Aflatun oraliq pozisiyada turadi. Har bir nom bilan u ifodalagan predmet o‘rtasida ichki aloqa mavjud bo‘lgan. Keyinchalik bir so‘z asosida bir necha so‘zlarning vujudga kelishi natijasida bu munosabat buzilgan. Natijada so‘z va tasdiq o‘rtasida ijtimoiy tradisiya asosida shakllangan. Aflatun so‘zlarni logik asosda klassifikatsiya qiladi – ism va fe’llarga ajratadi. Tasdiqlanayotgan narsa - ism (ega), ism haqidagi tasdiqni bildiruvchi so‘z fe’l (kesim) hisoblanadi.

Qadimgi grek tilshunosligida Arastu (eramizgacha 384-322) ta’limoti alohida o‘rin egallaydi. U grammatik masalalarni logika bilan chambarchas bog‘lab o‘rganadi. U “Poetika” asarida inson nutqi haqida gapirib, so‘zli ifodalarni quyidagi qismlarga ajratadi: element, bo‘g‘in, bog‘lovchi, ism, fe’l, a’zo, kelishik, gap. Element ostida ma’noli so‘z hosil qiladigan bo‘linmas tovush (har qanday tovush emas) tushuniladi. Bu ma’noda bo‘g‘in ham, so‘z ham tovush bo‘lishi mumkin. Bo‘g‘in bu mustaqil ma’noga ega bo‘Imagan, unli va undoshlardan tashkil topgan tovushdir. Ayrim tilshunoslar Arastuning elementida fonema tushunchasining izi borligini tasdiqlaydilar. Arastu asosiy so‘z turkumlari sifatida ism va fe’llarni ajratadi. Uning fikricha, ism – payt (zamon) bildirmaydigan mustaqil ma’noli so‘z. Fe’l – zamon bildiruvchi mustaqil so‘z. Masalan, “odam” zamon ma’nosini bidirmaydi, “keldi”, “kelyapti” qo‘srimcha zamon ma’nosiga ega. Birinchisi o‘tgan, ikkinchisi hozirgi zamonni ifodlaydi. Arastu ism va fe’llar kelishik formasiga ega ekanligini ko‘rsatadi. U kelishik shakli asosida ism va fe’llarning barcha nisbiy shakllarni, jumladan, son shakllarini ham tushunadi. Masalan, *odam*, *odamga*, *odamlar*; *keldi*, *kelyapti*, *kel* va boshqalar. Shunday qilib, uning fikricha, haqiqiy ma’noda ism uning dastlabki shakli bosh kelishik hisoblanadi. Boshqa kelishiklar uning nisbiy shakllari, ya’ni chetlanishlar hisoblanadi. Tilshunoslikda Arastudan so‘ng stoiklarning falsafiy maktabi katta rol o‘ynadi. Stoiklar so‘zlar predmetlar tovushlari asosida hosil bo‘lgan, demak, inson qalbidagi predmet haqidagi taassurot bo‘lishiga asos bo‘ladi, deydilar. Shu asosda so‘zlarning haqiqiy tabiatini – etimonini boshi (grek. Etimon - haqiqiy) mumkinligini aytganlar. Bu esa tilshunoslikning yangi sohasi – etimologiyaning, ya’ni “so‘zning haqiqiy ma’nosi” haqidagi fanning vujudga kelishiga asos bo‘ldi. Ammo stoiklar etimologiyasi haqiqiy etimologiya darajasiga ko‘tarilmadi.

Stoiklar forma va mazmun dixotomiyasini belgiladilar va uch elementning o‘zaro munosabatini ko‘rsatdilar: ifodalanmish, ifodalovchi va ob’ekt. Ob’ekt tashqi substratdir. Ob’ektiv olam haqidagi tasavvur uyg‘otish – ifodalanmish, tabiatning o‘zi ob’ekt. Stoiklar grammatik tushunchalarni rivojlantirdilar. Ko‘p grammatik hodisalarga aniqlik kiritdilar. Ular logikaga xos nutq bo‘laklari (“so‘z turkumlari”) terminini tilshunoslikka olib kirdilar. Qadimgi grek tilida 24 tovushni antiladilar va ularni unli va undoshlarga bo‘ldilar. Stoiklar beshta so‘z turkumini ajratdilar: fe’l, bog‘lovchi, a’zo (artikl va olmosh), atoqli otlar, turdosh otlar. Ular kelishiklarni aniq chegaraladilar. Kelishik faqat otga nisbatan qo‘llana boshlandi. Ismning tabiiy formasi bosh kelishik hisoblandi. Har qaysi kelishikka ma’nosiga qarab nom berildi: roditeliy padej (rod, vidni bildiruvchi forma), datelniy padej (beruvchi, uzatuvchi forma), vinitelniy padej (harakatga tushadigan forma) va boshqalar.

Grek tilshunosligi Ellin davrida (eramizgacha 334-31y) yuqori pog‘onaga ko‘tarildi. Bu davr grek tilshunoslaring grammatik davri deb yuritiladi. Mazkur davr tilshunoslari Gresiyadan uzoqda Pergalisda yashab, grek odatlari va uning tilini boshqa tillar ta’siridan saqlab qolish uchun kurashdi. Qadimgi yodgorliklar tilini (Gomer, Esxil, Sofokl) tahlil qilish, tanqidiy tekstni ishslash, grammatik kommentariyalar berish kabi masalalar zaminida filologiya rivojlandi. Shu bilan birga tilshunoslар tilning falsafiy masalalarini ham chetda qoldirmadilar.

Aleksandriya tilshunoslari tilning tovush tomoniga katta e’tibor berdilar. Ular talaffuzning fiziologik asoslari haqida ma’lum tasavvurga ega bo‘lsalar ham, tovushlarni akustik xususiyatiga ko‘ra tavsifladilar. 24 tovush – 7 unli va 17 undosh tovush ajratildi.

So‘z bog‘liq nutqning eng kichik bo‘lagi, gap esa tugallangan fikr ifodalovchi so‘z qo‘shilmasi sifatida talqin etiladi. So‘z turkumlari haqida ancha ma’lumot beriladi. Dionisey sakkizta so‘z turkumini ajratdi: ism, fe’l, sifatdosh, a’zo, olmosh, predlog, ravish, bog‘lovchi (greklar undovni, Rim tilshunoslari a’zoni so‘z turkumi hisoblamaydi).

Ism predmet bildiradigan o‘zgaruvchi umumiyl odam va xususiy ma’noli so‘z turkumi sifatida qaraladi. Ismning xususiyatlari rod, tus, obraz, son, shaxs, zamon, tuslanish sanaladi.

Rim tilshunoslari grek tilshunoslik maktabi an’anasiga asoslandilar. Greklarning terminlarini lotin tiliga tarjima qildilar. Juhon tilshunosligiga grek terminlari tarqaldi.

Muammoning javobi: Qadimgi hind tilshunosligi hindlarning muqaddas kitobi vedalar tilini o‘rganish maqsadida paydo bo‘lgan, qadimgi grek tilshunosligida ilk marta narsa bilan uning nomi orasidagi munosabat masalasi o‘rtaga tashlangan.

O‘RTA ASRLARDA TILShUNOSLIK

VII asrlarda arablar Muhammad payg‘ambarning safdoshi xalifa Abubakir yetakchiligidida islom bayrog‘i ostida Arabiston yarim orolini, Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarini, Shimoliy Afrika, Ispaniya, O‘rta Osiyo va Kavkaz orti mamlakatlarini bosib olib 632 yilda yirik Arab xalifaligiga asos soldilar. Bu xalifalik 1258 yilga qadar, ya’ni mo‘g‘ullar tomonidan mag‘lub etilgunga qadar hukmronlik qildi.

Ana shunday katta xududda islom dini keng quloch yoydi. Arab tili din tili, fan tiliga aylandi. Xalifalik hududida yashagan barcha din va fan ahli, qaysi xalqqa mansub bo‘lishidan qat‘iy nazar, o‘z asarlarini arab tilida yozdilar. Shuning uchun ham dunyoga **arab madaniyati** deb shuhrat qozongan madaniyatning shakllanishi va ravnaq topishida arablardan tashqari arab bo‘lmagan xalq vakillarining ham xizmathari kattadir. Ana shular orasida Forobiy, Beruniy, Ibn Sino kabi ko‘plab bizning ajdodlarimiz borligidan faxrlanamiz.

O‘rta asrning dunyoga dong taratgan allomalaridan biri Forobiydir. Uriyoziyat va falakiyat, tabobat va musiqa, mantiq va falsafa, tilshunoslik va adabiyotshunoslik kabi bir qator sohalarda qalam tebratgan va ularning barchasida ajoyib asarlar yozgan qomusiy bilim egasi sanaladi. Abu Nasr Forobiy tilshunoslik yuzasidan ham ajoyib fikrlar yuritadi.

Avvalo, hozirgi tilshunoslikning falsafiy masalalari ichida markaziy o'rinni egallagan bilishning ikki bosqichi (hissiy va idrokiy), umumiylirkususiylik. mohiyat-hodisa dialektikasi haqida o'zining "Falsafatu Aristutalis" asarida qiziqarli ma'lumot beradi. Forobiyning fikricha, faqat insongina bilimga intiladi. Inson o'zini qurshab to'rgan olamni va o'zini o'zi bilish orqali eng yetuk mayjudotga aylanadi. Bilish insonning mohiyati. Bilishdan maqsad haqiqatga erishmoqdir, - deydi mualimus-soniy. Har qanday bilish, dastavval, o'zini qurshab to'rgan olamdag'i narsa va hodisalarni kuzatishdan boshlanadi. Chunki tafakkur faoliyati bilan hosil qilingan mohiyat o'zining tabiiy asosidan oldin bo'lishi mumkin emas.

Forobiy inson ongining ikki turli bo'lishini ko'rsatadi: 1) ichki (intuitiv) ong, 2) tashqi, hosil qilingan ong. Uning fikricha, birinchisi tabiat tomonidan beriladi. Ikkinchisi esa tabiatdan maqsadga ko'ra olinadi.

Hozirgi kunda struktur tilshunoslikning glossematik yo'nalishida keng tarqalgan o'zgarmas, barqaror (konstanta) birliklarning o'zgaruvchan (aksident) birliklarga zidlanishining ildizlari ham Forobiy asarlarida uchraydi. Avvalo, u har qanday rivojlanishning, o'zgarishning asosida ziddiyatlar yotishini e'tirof etadi. Forobiy "Falsafatu Aristutolis" asarida shunday yozadi: "Beadad ziddiyatlar bir-birlarini almashtirib turadilar. Ushbu tanovoblarda (almashinib turishlarda) bitta o'zgarmaydigan doimiy narsa bor. U ushbu tanovoblarni saqlab turadi va ularga singib ketadi. Narsalar bir-biriga ergashib va o'zgarib to'rganlari holda, doimiy bo'lib keladigan narsani "Javhar" (substansiya) deb ataladi, almashinib va o'zgarib turuvchi narsalarni "Oraz" (aksidensiya) deyiladi.

Forobiy tilshunoslikning mundarijasi haqida ham fikr yuritadi va olti bo'limdan iborat ekanligini, har qaysi bo'limning o'z tekshirish ob'ekti mavjudligini bayon qiladi. Ular quyidagilardan iborat: 1) Sodda so'z haqida fan. 2) So'z birikmali haqida fan. 3) Sodda so'z qonunlari haqidagi fan. 4) So'z birikmali qonunlari haqidagi fan. 5) Yozuv qonunlari va to'g'ri talaffuz (orfoepiya) haqidagi fan. 6) She'r tuzilishi qoidalari haqidagi fan.

Dunyo madaniyati va ma'naviyati taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan, fan tarixida juda katta iz qoldirgan qomusiy olimlarimizdan yana biri Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al Beruniydir. U o'z davridagi barcha fan tarmoqlari bo'yicha qalam tebratib, 150 dan ortiq asar qoldirdi. Bizgacha yetib kelgan asarlari orasida "Xronologiya", "Hindiston", "Geodeziya", "Minerologiya", "Ma'sud qonuni" va "Saydana" nomi bilan mashhur bo'lgan "Kitob as-saydana fit-tibb" asarlari tadqiqotchilar tomonidan maxsus o'rganildi va arab, rus, ingliz, nemis va boshqa bir qator tillarga tarjima qilinib nashr qilindi.

"Saydana"da muallifning yoshlik yillarida o'zini qurshab to'rgan olamni va olam uzvlarining turli tillarda qanday nomlanishini bilishga naqadar ishtiyoqmand ekanligi bayon qilinadi. Xususan olimning bolaligida uning yurtiga bir grek ko'chib keladi. Beruniy unga don, urug', meva, o'simlik va boshqa narsalar ko'tarib kelib, bular grek tilida qanday nomlanishini so'raganligi va grekcha nomlarini daftariga yozib olganligini bayon qiladi.

Nomning jamiyat hayotida shu qadar katta ahamiyatga ega ekanligini e'tiborga olib Beruniy "Saydana" asarida ma'lum dorivor moddaning bir necha

tillarda qanaday nomlanishini bayon qilish bilan birga har qaysi tildagi mahalliy nomlanishga ham katta o‘rin beradi.

Asarda 29 bob va 1116 maqolada dorivor moddalarning nomi izohlanadi. Har bir bob harfga bag‘ishlanadi. Agar alifbosidagi 28 harfga lom-alifni ham qo‘sib alohida bob qilib beradi. "Saydana" asari natijada dorivor moddalar lug‘atiga aylanadi. Bu lug‘atning xarakterli xususiyati shundaki, muallif foydalanuvchilarga oson bo‘lishi uchun dorivor moddalar nomini arab alifbosi tartibida joylashtiradi. Bir harf bilan boshlanuvchi bir necha so‘z bo‘lsa, ular shu harf bobida ichki alfavit asosida beriladi. Natijada o‘zigacha bo‘lgan arab leksikograflarining lug‘at tuzish tamoyillaridan ancha farq qiladigan o‘ziga xos lug‘atga aylanadi. Bu lug‘at bir vaqtning o‘zida ham izohli, ham tarjima, ham etimologik, ham dialektologik lug‘atning ilk namunalaridan sanaladi.

Beruniy ma’lum bir o‘simplik yoki dorivor moddaning turli tillardagi nomlarini bir maqolada berar ekan, tillar o‘rtasidagi fonetik o‘ziga xoslik haqida ham ma’lumot beradi. Beruniy morfologik birlik bo‘lgan morfemalar haqida, ya’ni so‘zning ma’noli birliklari haqida ham fikr yuritadi va ularni o‘zak hamda o‘zak bo‘lмаган (affiksal) turlarga ajratadi.

Qomusiy bilim egasi Ibn Sino ham tilshunoslik yuzasidan o‘z fikrlarini bayon etgan. Uning bir qancha asarlari orasida lingvistikaga doir. "Asbobi xudut al xuruf" asari shu kunga qadar tilshunoslar diqqatini o‘ziga rom qilib keladi. Ibn Sinoning bu asari bizgacha bir necha qo‘lyozmalar orqali yetib kelgan. Ulardan eng eskisi hijriy 569 (milodiy 1173) yilla, so‘nggisi esa hijriy 1182 (milodiy 1768) yillarda ko‘chirilgan.

Hozirgacha yuqoridagi risolaning uch nashri mavjud. Biz Ibn Sinoning lingvistik qarashlariga baho berishda, asosan, uchinchi nashrga tayanamiz. Garchi bu asar arab tili fonetikasiga bag‘ishlangan bo‘lsa, ham lekin ko‘p o‘rinlarda, ayniqsa V bobida fors, turk va boshqa tillar materiallari ham jalb qilinadi. Shuning uchun ham Ibn Sinoning mazkur asari Sibavayhiy, Zamashshariy singari o‘zigacha bo‘lgan filologlarning asarlaridan farqli ravishda umumiylar masalalarini yoritishga bag‘ishlanganligi bilan ajralib turadi.

"Asbob" asari arab tilshunosligi an’anasidan yana shu bilan farqlanadiki, unda fonetik o‘zgarishlar masalasi ko‘rilmaydi. Tovushlarning fiziologik va akustik xususiyatlari o‘rganiladi. Shuning uchun bu fonetika sof sinxron fonetika hisoblanadi.

Ibn Sinoning "Asbob" asari kirish va olti bobdan iborat:

1. Tovushning paydo bo‘lish sabablari haqida.
 2. Nutq tovushlarining paydo bo‘lish sabablari haqida.
 3. Bo‘g‘iz va tilning anotomiysi haqida.
 4. Ayrim arab tovushlarining paydo bo‘lishidagi o‘ziga xos xususiyatlari haqida.
 5. Bu tovushlarga o‘xshash nutq tovushlari haqida.
 6. Bu tovushlarning nutqiy bo‘lмаган harakatlarda eshitilishi haqida.
- Arab tilshunosligining rivojida arablardan tashqari boshqa xalqlar olimlarining hissasi katta ekanligi yuqorida bayon qilindi. Ana shunday olimlardan yana biri xorazmlik Mahmud Zamahshariydir.

Xorazm jahon fani va madaniyatiga bir qancha allomalarni yetkazib berdi. Muhammad Muso al-Xorazmiy, Ibn Sino, Abu Rayhon al-Beruniy kabi olimlarning nomi dunyoga mashhurdir. Ana shular orasida filologiya sohasida katta mavqega ega bo‘lgan Mahmud Zamahshariyning alohida o‘rni bor.

U hijriy 467 yil rajab oyining yigirma yettinchi kuni (melodiy 1045 yilning 19 martida) Xorazmiyning Zamaxshar kishlogida tavallud topgan. Shunga ko‘ra Zamaxshariy taxallusini olgan.

Zamaxshariy davrining buyuk olimi darajasiga ko‘tarildi. U tilshunoslik, adabiyot, jug‘rofiyo, tafsir, hadis, fikx va ilm alkiroatga oid ellikdan ortik asarlar yaratdi. Ularning ko‘pi bizgacha yetib kelgan.

Mahmud Zamahshariy buyuk olim sifatida o‘zidan keyingi avlodlarga boy ilmiy meros koldirdi. Ular ichida tilshunoslikka oid asarlari alohida qimmatga ega. Zamaxshariy garchi arab bo‘lmasa ham, lekin arab tili grammatikasiga doir bir qancha qimmatli asarlar yaratdi. Arablar: "Agar shu ko‘sa, cho‘loq bo‘limganda, arablar o‘z tillarini bilmas edilar" - deb uning arab tilshunoslikgidagi buyuk o‘rnini haqqoniy e’tirof etadilar.

Mahmud Zamahshariy arab tili grammatikasiga doir "Al-mufassal" nomi bilan mashhur bo‘lgan "Al mufassal fi san’at al-i’rab?" (Fleksiya san’ati haqida mufassal kitob), "Samiym ul-arabiya" "Arab tilining negizi", "Al-mufrad va-l-muallif fi-n-naxvi" ("Grammatikada birlik va kuplik") , "Al-mufrad va-l-murakkab fi-l-arabiya" "Arab tilida birlik va kuplik") , "Al-amaliy fi-n-naxvi" (Grammatik qoidalarda orfografiya) kabi qator asarlar yaratdi. Yuqorida sanalgan asarlarning o‘ziyok, uning lingvistika sohasida naqadar sermahsul kalam tebratganidan dalomat beradi.

Grammatikaga doir asarlari ichida "Al-mufassal" arab tili morfologiysi va sintaksisini o‘rganishda eng muhim qo‘llanma sifatida katta shuhratga ega bo‘lgan. U Uvatovning ta’kidlashiga ko‘ra, hatto Shom (Suriya) hoqimi kimda-kim az-Zamaxshariyning ushbu asarini yod olsa, unga besh ming kumush tanga pul va sovg‘a qilishga va’da bergen. Bir qancha kishilar az-Zamaxshariyning bu asarini yod olib, mukofotga sazovor bqlganlar.

Tilshunoslik tarixida Mahmud Koshg‘ariy salmoqli o‘rin egallaydi. U tilshunoslikning juda ko‘p sohalari bo‘yicha qalam tabratdi. Kiyosiy-tirixiy tilshunoslikning otasi, fonetist-fonolog, leksikolog, leksikograf, lingvogeograf, turkiy tillar sarf va nahv ilmining asoschisi sanaladi.

S.Mutallibov ta’kidlaganidek, Mahmud Koshg‘ariy yaratgan "Devonu lug‘otit turk" asari faqat o‘sha davr uchungina katta voqeа bo‘lib qolmay, bugungi turkologiya fani uchun ham o‘z qimmatini saqlab kelmoqda U turkologiya fanining haqli ravishda asoschisi hisoblanadi.

Afsuski, ana shunday buyuk tilshunosning ilmiy merosidan jahon ilmiy jamoatchiligi o‘tgan asrning boshlariga qadar bebahra bo‘lib keldilar. Chunki bu davrgacha Mahmud Koshg‘ariyning hayoti va uning "Devon"i haqida ma’lumot yo‘q edi.

Faqat 1914 yilda Turkiyaning Diyorbakir shahrida istiqomat qiluvchi Ali Amiriy tomonidan tasodif tufayli Mahmud Koshg‘ariyning "Devon"i topilib, lingvistika tarixida mo‘jiza ro‘y berdi. Chunki bu asar tilshanoslikning juda ko‘p sohalarini qamrab olgan qomusiy bir asar edi.

Asarning topilish tarixi haqida prof. H.Hasanov shunday yozadi:

"... beva xotin, pulga muhtoj bo'lib, kitobfurush do'koniga kelib eski qo'lyozmani ko'rsatdi: "Marhum aytgan edilar, agar qiynalib qolsanggina shu kitobni sotgin, lekin 30 liradan kam bo'lmasin".

Ammo kitobfurush bunchalik qimmatga olgisi kelmadi va "kitob do'konda tura tursin, xaridor chiqsa, pulini olarsiz", deb javob qildi. Kunlar o'tdi, xaridorlar keldi, birontasi ham shu "eski qog'ozlar"ni 30 lira olgisi kelmadi.

Nihoyat, diyorbakirlik keksa kitob muxlislaridan Ali Amiri (1857-1924) afandi do'konga kelib qoldi. (Ali Amiri o'z shaxsiy kutubxonasida 15 mingtacha qo'lyozma va bosma kitoblarni to'plab, hammasini Istambuldag'i shayx Fazlulloh madrasasiga hadya qilgan edi.). Ali Amiri bu kirimsiz qo'lyozmani bir-ikki varaqlab chiqdi-yu, ammo olishga puli yo'q edi. Ko'chadan o'tib ketayotgan bir do'stini to'xtatib, undan qarz oldi. Ko'lyozmani olib ketgach. Ali Amiri bir necha kun, ertayu kech uni varaqlab, undan ko'zini uza olmas edi. "Kitob oldim, uyga keldim, yemak-ichmakni unutdim. Bu kitobga haqiqiy qiymat berilmak lozim bo'lsa, jahonning xazinalari kifoya qilmas". Axir, bu tamomila yangi bir asar - Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" degan ajoyib durdonasi bo'lib chiqdi".

Mahmud Koshg'ariyning hayoti juda oz ma'lumotga egamiz. Uning to'liq ismi Mahmud Ibn-ul Husayn Ibn-Muhammad-il-Koshg'ariydir. "Devonu lug'otit turk" asari esa hijriy 469 yili yozilgan (melodiy 1076-1077). Hoshimiylar sulolasidan, abbosiylar avlodidan bo'lgan Abulqosim binni Muhammad Muqtadoga armug'on qilingan. Asarning yozilish tarixi lug'atda shunday bayon qilingan:"Nok yili turklarning o'z ikki yil nomlarining biridir. Bu kitobning yozilgan yili nok yili edi." Lug'at yozilganda muallifning keksayib qolganligini hisobga olsak u XI asr boshlarida tug'ilgan deb hisoblash mumkin.

Mahmud Koshg'ariy o'zining so'z boshidagi "a" ni "ha" qilib talaffuz qiluvchi qabilaga mansub ekanligini bayon qiladi. Bu ma'lumot uning qaysi qabiladan ekanligini aniq ko'rsatib bermasa ham, lekin bu qabilaning turkiy qabilalar ichida katta nufuzga ega ekanligidan guvohlik beradi.

Mahmud Koshg'ariyning qaerda, qachon o'qigani haqida ham aniq ma'lumot yo'q. "Devonu lug'otit turk" asaridek qomusiy bir asarni yaratgan buyuk zot, so'zsiz, o'z davrining yetuk olimlaridan edi. Xususan, tilshunoslikka katta havas bilan qaragan olim edi. Shuning uchun ham u turkiy urug' va qabilalar yashagan barcha yerlarni birma-bir kezib, ularning tillaridagi o'xshash va farqli jihatlarini aniqlaydi. Muallifning o'zi bu haqda shunday yozadi: "Men turklar, turkmanlar, o'g'uzlar, chigillar, yag'molar, qirqiz (qirg'iz)larning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini ko'p yillar kezib chiqdim, lug'atlarini to'pladim, turli xil xususiyatlarini o'rganib, aniqlab chiqdim. Men bu ishlarni til bilmaganligim uchun emas, balki bu tillardagi xar bir kichik farqni ham aniqlash uchun qildim. Bo'lmasa men tilda ularning eng yetuklaridan, eng katta mutaxassislaridan, xushfahmlaridan, eski qabilalardan, jang ishlarida usta nayzadorlaridan edim. Ularga shuncha diqqat qildimki, turklar, turkmalar, o'g'uzlar, chigillar, yag'molar va qirqiz qabilalarining tillari butunlay dilimga jo bo'ldi. Ularni har tomonlama puxta bir asosida tartibga soldim".

Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug‘otit turk" asaridan tashqari, turkiy tillar sintaksisiga doir "Javohirun nahv fi lug‘otit turk" ("Turkiy tillarning nahv (sintaksis) javohirlari") asarini ham yozganligi haqida ma'lumot beradi. Afsuski, bunday nodir asar bizgacha yetib kelmagan yoki haligacha topilgani yo‘q.

Mahmud Koshg'ariy o‘sha davr an’anasiga ko‘ra, barcha asarlarini, jumladan, "Devon"ni ham arab tilida yozdi.

"Devonu lug‘otit turk" ning bizgacha birgina ko‘lyozmasi yetib kelgan. Ko‘lyozma Istambulda saqlanadi. Ko‘lyozmani ko‘chiruvchi kotib Muhammad binni Abu Bakr Damashqiy ma'lumotiga ko‘ra, u Mahmud Koshg'ariyning o‘z qo‘li bilan yozilgan nusxdan ko‘chirilgandir.

Bu asar 1915-1917 yillarda uch tomlik kitob holida Istambulda nashr etildi. Nemis sharqshunosi Brokkelman tomonidan 1928 yilda nemis tiliga tarjima etilib, Leypsigda bosib chiqarildi. Basim Atalay usmonli turk tiliga tarjima qilib, 1939 yilda Anqarada chop etdi. Mashhur sharqshunos olim Solih Mutallibov tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilinib, 1960-1963 yillarda Toshkentda nashr qilindi.

Mahmud Koshg'ariy lingvistik qarashlari "arab tilshunosligi" deb yuritiluvchi tilshunoslik maktabi quchog‘ida shakllandi. Bu mакtab garchi dunyoga: "arab tilshunoslik maktabi" nomi bilan mashhur bo‘lsa ham, lekin arab madaniyati, jumladan, arab tilshunosligining rivojiida xalifalik tarkibiga kirgan deyarli barcha xalqlar hissa qo‘shtan. Islom ta’siri ostida bu davrda yaratilgan asarlarning hammasi arab tilida yozilganligi sababli ham, ular dunyoga arab madaniyati nomi bilan tanildi.

Alisher Navoiy buyuk shoир, iste’dodli adabiyotshunosgina emas, balki ulkan faylasuf olim hamdir. U tasavvuf falsafasining yirik vakillaridan biridir. Alisher Navoiy olamdagи narsalar va ularning mohiyati, insonning paydo bo‘lishi kabi bir qator masalalar bo‘yicha qimmatli fikrlar bildiradi.

Hozirgi falsafada alohida rutba (kategoriya) sifatida ajraladigan va ko‘proq buyuk faylasuf Gegel nomi bilan bog‘lanadigan umumiylig va xususiylik, mohiyat va hodisa, imkoniyat va voqelik dialektikasi Sharq falsafasida, shuningdek, Alisher Navoiy mansub bo‘lgan tasavvuf falsafasida allaqachonlardan buyon e’tirof etilgan.

Alisher Navoiy tasavvuf falsafasiga asoslangan holda, olam, tabiat butun mavjudot yagona zotning ko‘rinishlari (tazohiri)dir, - deydi.

Alisher Navoiyning umumiylig-xususiylik, mohiyat-hodisa, imkoniyat-voqelik munosabati to‘g‘risidagi qarashi go‘zal podsho haqidagi hikoyasida ham yorqin ifodalanadi. Hikoyada bayon qilinishicha, bir podsho (Ollohga ishora) bo‘lib, u nihoyatda go‘zalligi bilan barchani maftun etgan. Uni ko‘rish hammaning orzusi bo‘ladi va bu orzuga erishmoq uchun ko‘p azob chekadilar. Buni bilgan o‘sha podsho katta qasr soldirishni va unga katta oyna (mir’ot) o‘rnatishni buyuradi. Bundan maqsadi shuki, uning husniga, shaydo bo‘lganlarning, unga intilganlarning, bu yo‘lda azob chekayotganlarning orzularini qondirish edi. Podsho bu oynaga o‘z aksini soladi, unda gavdalanadi.

"Muhokamat ul-lug‘atayn" asarida ta‘kidlanishicha, so‘z go‘yo durdur. Durning joylashish o‘rni dengiz tubi bo‘lsa, so‘zning joylashishi o‘rni ko‘ngildir (xotiradir).

Dur g‘avvos yordamida dengiz tubidan tashqariga chiqarilib jilvalantirilsa va g‘avvosning qiymati javharni jilvalantira olish qobiliyatiga qarab belgilansa, so‘z sohibi ixtisos tomonidan ko‘ngildan tashqariga olib chiqiladi va notiqning qiymati so‘z qo‘llash mahoratiga, uni jilvalantira olish qobiliyatiga qarab belgilanadi. Dengiz qa’rida harakatsiz, imkoniyat tarzida to‘rgan durlar g‘avvos yordamida harakatga keltirilsa, ko‘ngil tubidagi imkoniyat tarzidagi so‘zlar ham so‘zlovchi tomonidan nutqiy jarayonda o‘z jilvasini topadi.

Bundan ko‘rinadiki, imkoniyat va vogelik, umumiylit va xususiylik dialektikasi Gegeldan ancha oldin Alisher Navoiy asarlarida o‘z aksini topgan. Til va nutqning yuqoridagidek farqlanishi ham ana shu dialektikaning tilda namoyon bo‘lishidir.

Dunyodagi tillarning ko‘pligi bu tillarning paydo bo‘lishi haqida ko‘pdan buyon mutafakkirlarni o‘ylashga majbur qilib keldi. Natijada tillarning kelib chiqishi haqida xilma-xil fikrlar maydonga keldi. Bulardan eng keng tarqalgani barcha muqaddas kitoblarda bir xil takrorlanuvchi Nux haqidagi afsonadir. Dunyodagi barcha xalqlar va ularning tillarining tarqalishi Nux va uning farzandlarining to‘fonda turli tomonga tarqalishi bilan izohlanadi. Alisher Navoiy ham "Muhokamat ul-lug‘atayn" asarida tillarning kelib chiqishi haqida fikr yuritar ekan, turk, fors, hind xalqlari bir ajdoddan - Nuxdan tarqaganini bayon qiladi.

Muammoning javobi: Jahan tilshunosligi tarixida qiyosiy-tarixiy metod va chog‘ishtirma lingvistikaning maydonga kelishi Markaziy Osiyo tilshunoslari xizmatlari bilan belgilanadi.

2-MAVZU: YeVROPADA UYG‘ONISh DAVRI VA KOMPARATIVISTIKA

Reja:

1. Til hodisalarining mantiq asosida izohlanishi
2. Rus tilshunosligi
3. V.Gumboldtning lingvistik nazariyasi
4. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning taraqqiy etishi

MAQSAD: *Yevropada tilshunoslik fanining taraqqiyoti, til va mantiq birliklarining o‘zaro munosabati, rus tilshunosligi tarixi xususida ma’lumot berish.*

MUAMMO: *Yevropada qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning shakllanishi muammolari.*

Mantiq materiallari asosida til tuzilishini tushuntirish va rasional grammatika ilk marta fransuz olimlari A.Arno va K.Landslolarga nasib etdi.

1660 yilda tilshunoslik nazariyasida keskin burilish ro‘y berdi. Parij yaqinidagi Por-Royal cherkovida mashhur filosof va mantiqchi Arno bilan grammatis Landslo hamkorligida dunyoga “Por-Royal grammatikasi” nomi bilan tarqagan “Umumiy rasional grammatika” yaratildi. Bu grammatikaning yaratilishi tilshunoslik tarixida yangi sahifa ochdi.

“Por-Royal grammatikasi” ilk bor bir qator konkret tillarning faktlari asosida umumiylit grammatika sistemasini yaratish mumkinligini namoyish etdi.

Dunyoga sistem-struktur tilshunoslikning asoschisi sifatida tanilgan Ferdinand de Sossyur ham bu grammatikaga yuqori baho beradi.

Shu grammatikaning yaratilishi bilan tilni ilmiy o‘rganish boshlandi. Unda birinchi marta lingvistik tadqiqot predmeti chegaralab berildi.

“Por-Royal grammatikasi” mualliflari tafakkur universalligiga e’tibor bergen holda, tafakkurning moddiylashtiruvchisi bo‘lgan tilda ham universal jihatlar mavjudligini ta’kidladilar.

“Por-Royal grammatikasi”da mualliflar barcha tillar tuzilishi haqida fikr yuritishni maqsad qilsalar ham, amalda faqat grek, lotin, qadimgi yahudiy, hozirgi tillardan – fransuz, italyan, ispan; qisman ingliz va nemis tillari tekshirish ob’ekti bo‘ldi. Bu tillardan ko‘proq fransuz tiliga asosiy e’tibor qaratildi. Shu tillarning o‘ziyoq mualliflarning turli tillar tuzilishi uchun umumiy, rasional tomonlarni belgilash maqsadini amalga oshirishga kifoya qiladi deb o‘ylaydilar.

Universal grammatika umumlashmalarga ko‘proq e’tibor qaratdi. Ularning ta’kidlashlaricha, universalizm – umumlashmalsiz, abstraksiyasiz bo‘lishi mumkin emas. Shuning uchun ham “Por-Royal” mualliflari konkret tovush bilan tovush tipi, tovush modelini farqlaydilar. Tovush tipi yoki modeli uchun “harf” atamasini qo‘llaydilar va “harf” atamasini grafik belgi ifodalovchi “grafema” atamasiga qarama-qarshi qo‘yadilar.

Arno va Landslolar tilning tovush tomoni, moddiy plani bilan ma’no tomonini farqlaydilar. Ular mantiqiy qonunlar asosida barcha tillar uchun umumiy jihatlarni belgilash bilan birga, har qaysi tilning o‘ziga xos jihatlari mavjudligini ham aniqlashga harakat qiladilar.

Ularning ta’kidlashlaricha, mantiq qonunlari barcha insoniyat uchun bir xil. Shunday ekan, barcha tillar uchun grammatik tuzilishning bir xil fundamental (ichki) amal qilish qoidasi mavjud. Shuning uchun u yoki bu tilda boshqa tillarda uchraydigan ayni bir xil qoidalar uchrashidan hayron bo‘lmashlik kerak. Bu esa har qaysi tilning o‘ziga xos (tashqi) xususiyatlarini rad ham etmaydi. Shunga muvofiq, universal grammatikaning asosida dunyodagi barcha tillar universalligi hech qanday shubha uyg‘otmaydigan umumiy mantiqiy sxemalarga mos keluvchi universal til sxemalarining turlicha tashqi ko‘rinishlari ekanligi haqidagi bosh tezis yotadi.

“Por-Royal grammatikasi” mualliflari tilni shakliy mantiqqa qiyosan o‘rganish yo‘lidan borar ekanlar, shakliy mantiqning asosiy vazifasi ob’ektiv olam haqida chin bilimga ega bo‘lmoq uchun amal qilish shart bo‘lgan qonun va tamoyillarni belgilashdan iborat ekanligini ta’kidlaydilar. Shunday ekan, ilmiy grammatikaning asosiy vazifasi ham dunyodagi barcha tillar yoki har qanday alohida olingan tilni o‘rganish jarayonida chin bilimga ega bo‘lishni ta’minlaydigan qonun tamoyillarni aniqlashdan iborat bo‘lishi kerak.

Ularning ko‘rsatishicha, inson o‘z ongidagi barcha taassurotlarni ifodalash uchun belgiga ehtiyoj sezadi. Ana shunday belgi vazifasini so‘z bajaradi. So‘zlar ma’lum sinflarga bo‘linadi. “Por-Royal grammatikasi” mualliflari so‘zlar sinflarga bo‘lishda tafakkur shakllariga qanday munosabatda bo‘lish tamoyiliga asoslanadilar. Bir guruh so‘zlar fikr predmetini, boshqalari esa fikr usuli, qanday yuz berish tarzini bildiradi. Birinchi guruhdagi so‘zlarga substantivlar, artikllar,

olmoshlar, sifatdosh, ko'makchi va ravishlar kiritiladi. Ikkinci guruhdagi so'zlarga esa fe'llar, bog'lovchilar va undovlar mansubligi ta'kidlanadi.

Rasional grammatika mualliflari so'z mohiyatini ham mantiq asosida belgilaydilar. Ularning izohlashlaricha, so'z aniq va bo'laklarga bo'linuvchi tovushlar bo'lib, ulardan inson o'z fikralarini ifodalash uchun belgilar hosil qilgan.

"Por-Royal grammatikasi"da tafakkur birliklari bo'linishing ma'lum bir tilda yoki turli tillarda uchraydigan xilma-xil yo'llari tahlil etiladi.

Tafakkur birliklarini nutqiy birliklarga kodlashtirish har bir tilning o'ziga xos xususiyati bo'lib, shu tilning materiali bilan, uning tuzilish xususiyati bilan bog'liqidir.

Har bir til nutqda fikriy bo'linishning muayyan modellariga ega. Demak, turli tillar fikriy bo'linishning nutqdagi turli modellaraga ega bo'ladi. Ana shunday xilma-xil tillarning modellarini qiyosiy o'rganish nazariy jihatdan bu modellarning universal nomenklaturasini aniqlashga imkon beradi.

Ularning ko'rsatishlaricha, til ichki va tashqi aspektga ega. Bu ikki jihat har qanday gapda yorqin namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham gap ikki jihatdan izohlanishi mumkin: a) ichki tomondan va b) tashqi tomondan.

Gapning ichki tavsifi ma'noni qanday moddiylashtirish tomonini o'z ichiga olsa, tashqi tavsifi ma'noning moddiy tomoni qanday shakllangani, ya'ni ma'no gapni tashkil etgan elementlarga qanday bo'linganini qamrab oladi. Boshqacha aytganda, tashqi tavsif gapning leksik-semantik, sintaktik va fonetik talqinini o'z ichiga oladi. Birinchi tuzilishni **ichki tuzilish**, ikkinchi tuzilishni esa **tashqi tuzilish** deb yuritiladi.

Shunday qilib, ular gapning ichki va tashqi tuzilishiga ega bo'lishi haqidagi g'oyani sistem-struktur tilshunoslik paydo bo'lishidan ancha oldin ko'tarib chiqdilar.

Arno va Lanslolarning ta'kidlashlaricha, ichki struktura mavhumlik belgisiga ega. U nutqiy faoliyatda konkret jumlalar hosil qilishning asosi, boshlang'ich nuqtasi sanaladi. Ichki tuzilish bilan tashqi tuzilish bir-biriga mos kelishi shart emas. Muayyan ichki tuzilish turli tillardagina emas, hatto bir tilning o'zida ham turli tashqi tuzilishlariga ega bo'lishi mumkin. Ko'rindaniki, bir qancha tillar ichki tuzilish bo'yicha bir-biriga mos keladi. Demak, universal grammatikaning asosiy tadqiqot ob'ekti tilning ichki tuzilishi bo'lishi kerak.

Ichki tuzilish bilan tashqi tuzilish o'rtasidagi munosabat transformatsiya qoidalariga asoslanishi ko'rsatiladi. Bunda muayyan ichki tuzilish tashqi tuzilishlarga transformatsiya qilinadi. Natijada mavhum modellar konkret jumlalar orqali yuzaga chiqadi.

"Por-Royal grammatikasi"da olg'a surilgan ichki va tashqi strukturalar o'rtasidagi yuqoridaagi kabi munosabat keyinchalik Amerika tilshunoslari tomonidan rivojlantirildi va transformasion lingvistikaning vujudga kelishiga zamin yaratdi.

Psixologik oqim vakillaridan biri, slavyan tilshunosligining taniqli namoyandas A.A.Potebnya (1835-1891) ukrain oilasida tug'ildi. Dastlab Xarkov universitetida o'qidi, 1861 yilda "Slavyan xalq poeziyasidagi ba'zi bir simvollar haqida" mavzusida magistrlik dissertatsiyasini yoqladi, 1862 yilda "Fikr va til" nomli ilk asari, 1874 yilda "Rus tili grammatikasi haqida lavhalar" mavzuidagi

doktorlik dissertatsiyasi e'lon qilindi. U "Til va elat" (1895), "Rus tilida ko'plik sonning ma'nolari" (1888), "Poetika asoslari" (1910) singari qator asarlarning muallifi.

Potebnya tilni tafakkur va psixologiya bog'liq holda tekshirdi, uning ta'limotida so'z haqidagi g'oyalar alohida o'rinni tutadi: "So'z tashqi tomondan tovushlar birligidan, ichki tomondan esa tasavvur va ma'no birligidan iborat".

So'z va predmetning o'zaro munosabati so'zning umumlashtirish va atash funksiyasiga alohida to'xtalib o'tadi. Predmetning asosiy va boshqalardan ajralib turadigan belgisini ifodalovchi ma'noni Potebnya "ichki shakl" deydi. Bu ishora yoki etimologik ma'no terminlariga to'g'ri keladi. So'zning "ichki shakl"i etimologik tahlil qilish orqali seziladi. Aloqa jarayonida so'zning "ichki shakl"i emas, balki real ma'nosi, ya'ni "yaqindagi ma'no" nazarda tutiladi. "Ichki shakl" aniq sezilib to'rgan so'zlar hozir motivlashgan so'zlar deb ataladi.

Rus tilshunosligi tarixida M.V.Lomonosovning xizmati alohida o'rinni tutadi. M.V.Lomonosov (1711-1765) Xolmogar shahrida tug'ildi. 1731 yilda Moskvadagi slavyan-grek-latin akademiyasiga o'qishga kirdi. (U 30 ga yaqin tillarni bilardi) M.Lomonosov 1745 yili FAning akademigi va ximiya professori bo'ldi.

Aniq fanlar bilan birga, filologiya sohasida "Ritorika" (1748), "Rossiya grammatikasi" (1755), "Rus tilida cherkov kitoblarining ahamiyati" (1757) kabi asarlarni yozgan. Olim tillarning qarindoshligi masalasiga e'tibor qaratgan, rus tili grammatikasiga asos solgan, sintaksis va so'z turkumlari muammosi bilan maxsus shug'ullangan.

Boduen de Kurtene (1845-1929) ilmiy konsepsiyanining bir qator holatlari tilshunoslikda yangi davrning boshlanishiga olib keldi.

F.de Sossyur nomi bilan bog'langan sistemaviy tilshunoslikning ko'pgina g'oyalari aslida Sossyurga qadar Boduen de Kurtene tomonidan bayon qilingan edi.

Boduenda yoshlik yillaridanoq matematika va tilshunoslikka qiziqish uyg'ondi. Ana shu qiziqish tufayli u bir qator tillarni: lotin, sanskrit singari klassik tillarni, rus, polyak, fransuz, nemis, ingliz, italyan, litva, chech, slavyan singari o'nlab hozirgi tillarni o'rgandi. Keyinchalik ularning ko'vida, xususan, rus, polyak, nemis, fransuz tillarida ilmiy asarlarini yozdi. XIX asrning 70-80-yillarida Boduen Yevropada mashhur tilshunosga aylandi.

Boduen de Kurtene lingvistik konsepsiysi negizida materialistik monizm yotadi. Boduen de Kurtene fikricha, til muayyan bir jamiyatni tashkil etgan individlar ongida, individlar psixikasida, individlar tili sifatida yashaydi. Shuning uchun Boduen de Kurtene o'z tadqiqotlarida individlar nutqiga asosiy e'tiborni qaratdi. Uning ta'kidlashicha, individlar psixikasi, tilning individual tashuvchilarigina real mavjuddir.

Milliy til bir butun sifatida ilmiy umumlashma sanalib, faqat g'oyada yashaydi. Bu esa uning kommunikatsiyaning alohida aktiga e'tiborini tortishga sababchi bo'ladi. Xuddi shuning uchun kishilardan uzib olingan mavhumlashtirilgan til emas, balki til tafakko'rining egasi bo'lgan inson tilshunoslikning real o'rganish ob'ekti bo'lmog'i lozimligini ta'kidlaydi.

Shu bilan birgalikda u tilda individuallik bilan umumiylilikning ajralmasligini, individual xususiyatda bir vaqtning o‘zida umumiylilik, umuminsoniylik mavjud ekanligini bayon qiladi. U insoniyat olami sotsial guruhlar majmuasi ekanligini e’tirof etadi. Boduenning ta’kidlashicha, insonda psixik xususiyatlar o‘xhashligi mavjud bo‘ladi. Ana shu xususiyatda umuman, til o‘zgarishlari, qisman shu qabila yoki xalq tilida o‘zgarishlar sodir bo‘lish shart-sharoiti yaratilgandir.

Garchi tilshunoslik tarixida til va nutqni farqlash F.de Sossyur nomi bilan bog‘liq bo‘lsa ham, aslida unga qadar bu farqlanish Boduen asarlarida bayon qilinganining guvohi bo‘lamiz.

Mashhur tilshunos V.Gumboldt *til* va *nutq, ergon* va *energiya* o‘rtasidagi antinomiyalarni ajratgan edi. Boduen de Kurtene V.Gumboldtning ana shu g‘oyalarini rivojlantirdi.

Avvalo, u o‘sha davr tilshunosligi, xususan, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik uchun xukmron bo‘lgan qiyosiy-tarixiy tahlil usuliga statik tahlil usulini qarama-qarshi qo‘yish bilan birgalikda, uning qiyosiy-tarixiy tahlil usulidan ustun bo‘lishi lozimligini ta’kidladi. Bu bilan XIX asr lingvistik ta’limotida burilish yasadi.

Boduen de Kurtene fikriga ko‘ra, til mexanizmini yoritishda, til sistemasini tahlil qilishda tarixiy qiyoslashdan ko‘ra statik metod qulay imkoniyatga ega. Chunki til sistemasi tilning turg‘un holatini taqozo etadi.

Boduening statika va dinamika haqidagi qarashlari **til** va **nutq** o‘rtasidagi zidlanishning ajratilishiga zamin yaratdi. U nutqiy faoliyat til va nutq o‘rtasidagi munosabat birligidan tashkil topishini his qilgan holda, til va nutqni o‘zaro farqlashga harakat qiladi. Olimning ta’kidlashicha, til sistemasi uning model sifatida tasavvur qilinishidir. Model esa uning bevosita nutqiy jarayonda namoyon bo‘lishiga qarama-qarshi qo‘yiladi. Nutqiy namoyon bo‘lish psixolingvistik tahlil asosida izohlanadi.

Boduen de Kurtenening tilshunoslik oldidagi yana bir xizmati shuki, u tilshunoslikka **fonema** nazariyasini olib kirdi. Boduen birinchilardan bo‘lib tovushdan farq qiladigan fonetik birlikni ajratish zarurligini anglatdi.

Uning ilmiy faoliyati davomida fonema haqidagi qarashlari o‘zgarib bordi. Shuning uchun Boduen asarlarida fonemaning xilma-xil talqini ko‘zga tashlanadi.

Boduen de Kurtenening fonema haqidagi qarashlarida uning quyidagi muhim belgilariga e’tibor qaratganligi ma’lum bo‘ladi: 1) fonemaning murakkab birlik ekanligi; 2) uning eng kichik birliklardan (xususiyatlardan) tashkil topishi; 3) eng kichik birliklardan tashkil topgan butunlik sifatida tilda yaxlit holda funksiyalashishi; 4) eng kichik birliklardan tashkil topgan fonemaning til sistemasida munosabatlar (korrelyatsiya) a’zosi sifatida yashashi; 5) fonemaning bevosita kuzatishda berilgan tovushlarning lingvistik umumlashmasi, abstraksiyasi ekanligi; 6) fonemaning real ko‘rinishi uning antropofonik (artikulyatsion-fiziologik) tabiatining namoyon bo‘lishi ekanligi.

Shunday qilib, Boduen de Kurtene ilmiy faoliyatining Qozon davrida fonema real talaffuz qilinuvchi tovushlarning abstraksiyasi, modeli, invarianti, qurilma (konstrukt) sifatida baholanadi.

XIX asrning 90-yillarida u fonemaning bevosita kuzatishda tovushlar orqali namoyon bo‘luvchi, lekin o‘zi kuzatishda berilmagan mavhum birlik

ekanligini yana ham aniqroq bayon qiladi. “Fonema” deb nomlangan maqolasida uning “tovushning psixik ekvivalenti” ekanligini ta’kidlaydi. 1917 yilda nashr etilgan “Tilshunoslikka kirish” asarida fonema *inson psixikasida barqaror mavjud bo‘lgan tovush tasavvuri, so ‘zlovchi ongida yashovchi model sifatida izohlanadi*.

Shunisi xarakteriliki, Boduen asarlarida fonema goh so‘zlovchi ongida tovushlarni umumlashtirish natijasida hosil bo‘lgan ideal mohiyat sifatida, goh ilmiy mavhumlashtirish (abstraksiya), lingvistik modellashtirish natijasi sifatida izohlanadi.

Boduen de Kurtene til birligi sifatida fonemani ajratish bilan birga, uni o‘rganuvchi tilshunoslikning alohida bo‘limi bo‘lgan fonologiyaning ajratilishi lozimligini bayon qildi. Uning fikricha, fonologiya fonemalarning ma’noli birliklar hosil qilishdagi vazifalarini o‘rganadi.

Xullas, Boduen jahon tilshunosligi tarixida statika-dinamika, til-nutq zidlanishi to‘g‘risidagi tushunchaning paydo bo‘lishida, tilning sistema ekanligi, uning belgili tabiatini to‘g‘risidagi qarashlarining shakllanishida hamda fonema nazariyasining vujudga kelishida xizmati kattadir.

XIX asr qiyosiy-tarixiy tilshunoslik doirasidagi empirik tadqiqot ishlari va til falsafasi taraqqiyotini ayrim mualliflar uch davrga bo‘ladilar:

1. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning boshlang‘ich davri. Bu davrga F.Bopp, Ya.Grimm, R.Rask singari olimlarning tadqiqotlari mansubdir. V.Gumboldtning til falsafasi qisman ana shu davrga muvofiq keladi.

2. Ikkinci davr qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning to‘liq qaror topgan davri sanaladi. A.Shleyxer bu davrning yirik figurasi. A.Shleyxer qarashlarining falsafiy asosi naturalizm hisoblanadi.

3. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning uchinchi davri yosh grammatikachilar yo‘nalishidir. Bu yo‘nalishning falsafiy asosi psixologizm sanaladi.

Tilshunoslik tarixida yosh grammatikachilarining maydonga kelishi lingvistika fani taraqqiyotining ichki ehtiyoji, XIX asrning 60-yillarida komparativistika kirib qolgan boshi berk ko‘chadan chiqish yo‘llarini axtarish zaruriyati tufayli maydonga keldi.

XIX asrning 70-80-yillarida Germaniyada qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning F.Bopp, Ya.Grimm, A.Shleyxer singari vakillari qarashlarini keskin tanqid qilgan holda yangi yo‘nalish ko‘rtak ota boshladi.

Eski avlodning ilmiy merosiga keskin tanqidiy munosabatda bo‘lganligini e’tiborga olib, tilshunoslikning yangi bosqichi vakillarini keksa avlod vakillari masxaraomuz “yosh grammatikachi”lar deb nomladilar. Yosh avlod esa buni o‘zlarining yo‘nalishiga asosiy nom qilib oldilar.

Yosh grammatikachilar yo‘nalishining shakllanishi K.Brugman (1849-1919), G.Ostxfaf (1847-1909), G.Paul (1846-1921), B.Delbryuk (1842-1922), A.Leskin (1840-1916) singari Leypsig universiteti olimlari nomi bilan bog‘liqdir. Shuning uchun ham bu yo‘nalish tilshunoslikning Leypsig maktabi deb ham nomlanadi.

Yosh grammatikachilar qarashlarining nazariy umumlashmalarini G. Paulning “Til tarixi tamoyillari” asarida bayon qilingan. Yosh grammatikachilar qarashlarining asosiy nuqtalari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

1. Qiyoziy-tarixiy tilshunoslikning eng katta kamchiligi shundan iboratki, ular tillarni qiyoslab o'rganishga bobo til shakllarini hayolan tiklashga asosiy e'tiborni qaratdilar, lekin so'zlovchi shaxsnинг o'zi nazaridan chetda qoldi. So'zlovchi shaxsnинг nutqiy faoliyat mexanizmi, psixologiyasi, tilning ichki taraqqiyoti singari masalalarga e'tibor qaratilmadi.

Qiyoziy-tarixiy tilshunoslikning ana shu yo'l qo'ygan kamchiliklarini e'tiborga olgan holda Brugman va Ostxaflar, eng avvalo, lingvistikaning tadqiqot ob'ektini o'zgartirishni maslahat beradilar. Ularning fikricha, tillarni qiyosiy o'rganayotgan olim ularning bobo til holatini tiklashga emas, balki hozirgi holatini tadqiq etishga asosiy e'tiborni qaratishi kerak.

2. Natijada yosh grammatikachilar tilni organizmning psixofiziologik faoliyati sifati talqin etdilar. Bunday talqin tilshunoslik metodologiyasining o'zgarishiga olib keldi. ya'ni tilni o'rganishning yangi tamoyili eski yozma yodgorliklar tilini emas, balki so'zlashayotgan kishilar nutqini o'rganish va til tarixi tahlili davomida fonetik qonuniyatlar va analogiyalarini e'tiborga olish lozim, deb hisobladilar.

3. Tilshunoslikda tadqiqot ob'ektining o'zgarishi nazariy asosning o'zgarishiga olib keldi. Ularning metodologik tamoyilida til faqat o'zi uchun yashaydigan insondan tashqaridagi, uning ustida turuvchi narsa emas, balki faqat individda mavjuddir degan g'oya bosh g'oyaga aylandi. Shuning uchun tildagi har qanday o'zgarish faqat so'zlovchi shaxs bilan bog'liq deb hisobladilar.

XIX asrning 80-yillaridan boshlab alohida lingvistik oqim sifatida e'tirof etilgan va 50-yillar atrofida katta ilmiy kuch sifatida faoliyat ko'rsatgan yosh grammatikachilar tilshunoslik tarixida ilmiy maxsulotlarining ko'pligi, ilmiy tekshirish metodining yetukligi va til amaliyotiga ta'sirining kuchliligi jihatidan XIX asr va XX asr boshlarida mavjud bo'lgan lingvistik oqimlar ichida tengi yo'q oqim sanaladi.

4. Yosh grammatikachilar bir qancha tillar misolida juda katta faktik materiallarni to'plab, sistemalashtirib berdilar. Bu bilan tilshunoslikning amaliy tomonini rivojlantirishga, yangi-yangi lingvistik yo'naliishlarning maydonga kelishiga zamin hozirladi. Natijada tilshunoslikda dialektologiya, lingvistik geografiya yo'naliishlari vujudga keldi. Ularning faoliyati tufayli fonetika sohasida, xususan, eksperimental fonetika sohasida va fonetik qonuniyatlar yuzasidan katta muvaffaqiyatlarga erishildi.

5. Yosh grammatikachilar tilshunoslikning bevosita o'rganish ob'ekti nutqiy jarayon, individual nutq ekanligini e'tirof etganliklari tufayli, u bilan bog'liq bo'lgan qator massalalarni, xususan, nutqiy jarayonda individuallik-sotsiallik munosabatini, individual nutq, me'yor va til tuzilishi masalalarini ko'tarib chiqdilar.

Shunday bo'lishiga qaramasdan, ularning qarashlaridagi bir qator masalalar bahstalab va yetarli ilmiy asosini topmagan edi.

Ular moddiy tomondan faqat alohida individlar tiligina mavjuddir, degan g'oyani o'zlariga metodologik tamoyil qilib olish bilan individual psixologiyani tilshunoslikning nazariy asosi sifatida e'tirof etdilar. Natijada ilmiy abstraksiyaga, til ontologiyasining ilmiy talqiniga e'tibor berilmadi.

Til birliklarining o‘zaro munosabati, tilning funksionallashuvida ekstralengvistik omillarning ahamiyati: tillarning o‘zaro ta’siri, dialektlarning o‘zaro munosabati, yozuv an’anasining ta’siri kabi masalalar yosh grammatikachilar nazaridan chetda qoldi.

Yosh grammatikachilar o‘z nazariyasining induktiv xarakterini doimo ta’kidlaganlari holda, til nazariyasi bilan bog‘liq bo‘lgan qator muammolarni muhokama qilishni, tilning falsafiy masalalari bilan shug‘ullanishni ortiqcha deb bildilar.

Muammoning javobi: Jahon tilshunosligi tarixida qiyosiy-tarixiy metod va chog‘ishtirma lingvistikaning maydonga kelishi Markaziy Osiyo tilshunoslari xizmatlari bilan belgilanadi, uning nazariy asoslari Yevropaga borib taqaladi.

STRUKTUR TILShUNOSLIK

“Umumiy lingvistika kursi” kitobi F.de Sossyur nomi bilan nashr qilingan bo‘lsa ham, lekin bunday kitobni yozish, nashr qilishni u xayoliga ham keltirgan emas. Bu kitobni F.de Sossyur nomi bilan chiqargan va unga dunyo miqyosida mislsiz shuhrat olib bergen kishilar shogirdlari Sh.Balli va A.Seshelardir.

Bu ikki zot o‘z ustozining nomini dunyo tilshunosligi tarixida yuqori cho‘qqiga olib chiqishga musharraf bo‘lishlari bilan birga, ustozlarga sadoqat namunasini ko‘rsatdilar va shu sadoqatlari bilan jahon ilmiy jamoatchilagini lol qoldirdilar.

Aslida F.de Sossyur 1907-1911 yillarda Jeneva universitetida “Umumiy lingvistika kursi” bo‘yicha uchta kursga ma’ruzalar o‘qiydi.

F.de Sossyurning ma’ruzalari shu qadar mazmunan boy va mundarijasi yangi ediki, tinglovchilar unga lol qolardilar. F.de Sossyur vafotidan bir yil so‘ng, shogirdlari Sh.Balli va A.Seshelar 1907-1911 yillar davomida F.de Sossyur ma’ruzalarini tinglagen talabalarning konspektlari asosida uning ma’ruzalarini kitob holida nashr qilishni hayollariga keltirdilar. Natijada to‘qqiz kishining konspektini topdilar va ana shu konspektlar asosida F.de Sossyur ma’ruzalarini tiklashga harakat qildilar. Ana shunday harakat tufayli 1916 yilda F.de Sossyur nomi bilan bu asar dunyoga keldi.

Mashhur tilshunos E.Benvenist tilshunoslik taraqqiyotini falsafiy, qiyosiy-tarixiy davrlarga bo‘lar ekan, F.de Sossyurning ushbu kitobining nashr etilishi natijasida lingvistika tarixida yangi davr boshlanganini ta’kidlaydi. Bu davr lingvistikasining o‘ziga xos xususiyati shundaki, uning o‘rganish ob’ekti til falsafasi ham, grammatik shakllarning tarixiy taraqqiyoti ham emas, balki tilning immanent realligi hisoblandi. Natijada lingvistika formal, qat’iy, sistematik fanga aylanishga intildi.

Ferdinand de Sossyur tilshunoslik tarixinining uch taraqqiyot bosqichini ko‘rsatadi.

Tilshunoslik tarixinining ilk davrini “grammatika” davri deb nomlaydi. Bu davr tilshunosligi yunonlarda shakllanib, Fransiyada gullab-yashnaganligini ta’kidlaydi. Bu tilshunoslik asosan mantiqqa tayangan bo‘lib, tilning o‘ziga xos xussiyatlarini ilmiy asosda ob’ektiv ravishda yoritib berishdan uzoqda edi. Uning maqsadi noto‘g‘ri shakllardan to‘g‘ri shakllarni farqlash bilan cheklangan edi.

Ikkinchi davri «filologiya» davri sanaladi. Garchi “Filologiya” maktabi Aleksandriyada ham mavjud bo‘lgan bo‘lsa-da, lekin bu atama ko‘proq 1777 yilda Fridrix Avgust Volf tomonidan asos solingan va shu kungacha davom etayotgan ilmiy yo‘nalishga nisbatan qo‘llaniladi. Bu yo‘nalishda til yagona o‘rganish ob’ekti hisoblanmaydi. U o‘z oldiga matnlarni izohlashni asosiy maqsad qilib qo‘yadi. Bu asosiy vazifani hal etish adabiyot tarixi, xalqning maishiy hayoti va sotsial masalalar bilan ham shug‘ullanishga olib keladi. Filologiya yo‘nalishi hamma joyda o‘zining tekshirish metodini-manbani tanqidiy o‘rganish metodini qo‘llaydi. Faqat turli davrlarga oid matnlarni o‘zaro qiyosiy o‘rganganda, eski yozma manbalarda mavjud bo‘lgan tushunilishi qiyin so‘zlar izohida yoki ma’lum muallifning individual uslubini yoritish lozim bo‘lgandagina lingvistika masalalariga murojaat qilingan.

Sossyurning ta’kidlashicha, bunday yo‘nalish tarixiy lingvistika uchun yo‘lni tozalab bergen bo‘lsa ham, lekin uning bir muhim kamchiligi mavjud edi. U ham bo‘lsa, yozma nutqqa qullarcha sajda qilgan holda, jonli tilni unutib qo‘ydi. Buning ustiga ular asosan yunon va lotin obidalariga qiziqish bildirdilar.

Frans Boppning 1816 yilda “Sanskrit tilida tuslanish sistemasi haqida” asarining dunyoga kelishi bilan tilshunoslikning uchinchi davri boshlandi. F.Bopp bu asarida sanskrit tilini yunon, lotin va boshqa Ovro‘pa tillari bilan bog‘lab turuvchi munosabatlarni ochib berdi. Lekin F.Boppga qadar ham bu tillar o‘rtasidagi o‘xhashlik ingliz sharqshunosi Djons tomonidan bayon qilingan edi. Lekin uning fikrlari ayrim faktlar bilan cheklangan bo‘lib, chuqur ilmiy xulosalardan yiroq edi.

F.Boppning xizmati sanskrit tilining Ovro‘pa va Osiyodagi bir qator tillar bilan qarindoshligini ochish bilan belgilanmaydi. Uning lingvistika tarixi oldidagi xizmati shundaki, qarindosh tillarning o‘zaro munosabatini o‘rganuvchi alohida fanni shakllantirish mumkinligini anglatdi.

Sossyurning e’tirof etishicha, F.Boppning katta xizmati bir tilni unga o‘xhash boshqa bir til asosida tahlil etish, bir tilga xos bo‘lgan shaklni boshqa bir til shakli vositasida izohlashdir.

F.Boppning bunday katta yutuqqa erishuviga sanskritning ochilishi muhim rol o‘ynadi. Lotin va yunon manbalaridan tashqari, uchinchi manba-sanskrit tili materiallarini ham qiyoslab o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning shakllanishida F.Bopp bilan bir vaqtida germanistikaning asoschisi Yakov Grimmning ham xizmati kattadir. Maks Myuller, Avgust Shleyxerlar tilshunoslikning bu yo‘nalishini yangi materiallar bilan boyitdilar.

Shuni ta’kidlash kerakki, bu maktab hosildor qo‘riqni ochgan bo‘lsalar-da, lekin ularga ham haqiqiy ilmiy lingvistikani yaratish baxti nasib etmadni. O‘rganilayotgan ob’ektning tabiatini ochish masalasi ularning nazaridan chetda qoldi.

Ularning xatosi shundan iboratki, o‘z tadqiqotlarida chegaralangan tillar, ya’ni hind-ovro‘pa tillari doirasi bilangina cheklandilar va o‘z oldilariga qiyoslash natijasi nimaga mos keladi, kashf qilinayotgan munosabat nimani bildiradi? kabi savollarni qo‘ymaydilar. Ularning tadqiqotlari tarixiylik o‘rniga, asosan qiyosiy bo‘lib qoldi.

Sossyurning fikricha, qiyoslash tarixiy haqiqatni yoritishda zaruriy shart-sharoit tug‘diradi. Lekin faqat qiyoslashning o‘zi bilan cheklanish o‘rganilayotgan ob‘ekt haqida to‘g‘ri xulosa chiqarishga olib kelmaydi.

Faqat XIX asrning 70-yillaridan boshlab tillarning yashash sharoiti qandayligi masalasi e’tiborni torta boshladi. Natijada tilshunoslikning yangi davri boshlandi. Bu davr yosh grammatikachilar davri hisoblanadi. Ularning xizmati shunda bo‘ldiki, qiyoslash natijalarini tarixiy istiqbolga qo‘shdilar va faktlarni tabiiy tartibda joyladilar. Natijada til o‘zi rivojlanayotgan organizm sifatida emas, balki til guruhlari jamoasining ruhiy hosilasi sifatida qarala boshlandi. Lekin bu maktabning tilshunoslik oldidagi xizmatlari qanchalik katta bo‘lishiga qaramasdan, hamma masalalarga oydinlik kiritdi, deb bo‘lmaydi. Umumiy lingvistikaning asosiy masalalarini hal qilish yana ochiq qoldi.

Sossyurning “Umumiy lingvistika kursi” bo‘yicha ma’ruzalari ana shu masalalarni yoritishga bag‘ishlandi. Bu asarning maydonga kelishi tilshunoslik tarixida sistemaviy-struktur tilshunoslikning shakllanishiga olib keldi.

F.de Sossyurning dunyo tilshunoslida bunchalar katta shon-shuhratga olib kelishiga sababchi bo‘lgan omillar nima edi?

Nutqiy faoliyat (Longuege) sotsiallik bilan individuallikni o‘zida birlashtirgan murakkab jarayon ekanligini e’tirof etadi. U o‘zaro dialektik aloqada bo‘lgan **til** (La langue) va **nutq** (porole) ning munosabatidan tashkil topgan butunlik ekanligini izchil ravishda ilmiy asoslab berdi.

Sossyurning fikricha, nutqiy faoliyatning ikki tomoni mavjud: individual va sotsial. Ularni bir-birisiz tasavvur qilish mumkin emas. “Til” nima? degan savolga javob berar ekan, u “til” tushunchasiga “nutqiy faoliyat” tushunchasi teng kelmasligi, “til” “nutqiy faoliyat”ning bir qismi, lekin eng muhim qismi ekanligini, u sotsial mahsulot ekanligi, u yoki bu til egalarining har biri xotirasida mavjud bo‘lgan nutqiy faoliyatga kirishish imkoniyati ekanligini ta’kidlaydi.

F.de Sossyur tilning belgilari sistemasi ekanligini e’tirof etish bilan birga, uning tuzilishi haqida ham qimmatli fikr bayon qiladi. U tilni munosabatlar yig‘indisi sifatida ijtimoiy hodisalar qatorida o‘rganar ekan, uning boshqa ijtimoiy hodisalardan farqi belgili xarakteri ekanligini, “til g‘oyalarni ifodalovchi belgilari sistemasi” ekanligini bayon qiladi.

Uning fikricha, til-bu bir ijtimoiy jamoaga mansub bo‘lgan kishilarning nutqiy amaliyoti orqali to‘plangan bir hazinadir. Bu har bir til egasi ongida virtual mavjud bo‘lgan grammatik sistema, to‘g‘riroq‘i, u individlar yig‘indisi ongida yashaydi. Chunki til hech bir alohida individda to‘liq mavjud bo‘lmaydi, u to‘liq holda faqat jamoada mavjud bo‘ladi.

Nutqiy faoliyatni til va nutqqa bo‘lar ekan, bu bilan F.de Sossyur sotsiallikni individuallikdan, muhimni nomuhimdan, qo‘srimcha, tasodifiy holatlardan farqlanishini bayon qiladi.

F.de Sossyur tilning so‘zlovchi faoliyati (fonetion) emas, balki so‘zlovchi tomonidan passiv ro‘yhatga olinadigan tayyor mahsulot ekanligini ta’kidlaydi.

L.Elmselev ham F.de Sossyurning til va nutq dixotomiyasiga yuqori baho beradi. Uning fikricha, Sossyur ta’limotining mohiyati til va nutqni farqlashdir. Boshqa barcha nazariyalar mantiqan ana shu asosiy tezisdan keltirib chiqariladi.

Sossyurgacha bo‘lgan lingvistika individuum xulqiga tayandi; nutqiy faoliyat individual aktlar yig‘indisi sifatida tasavvur qilindi.

Xuddi mana shu yerda yangi lingvistik nazariya bilan an’anaviy nuqtai nazarning prinsipial farqlanishi va ayni paytda, tutash nuqtasi kuzatiladi. F.de Sossyur so‘zlashish jarayonidagi individning ahamiyati va lingvistik o‘zgarishlarda uning roliga katta e’tibor berdi. Ana shu yo‘l bilan an’anaviy tilshunoslik bilan struktur tilshunoslik o‘rtasiga ko‘prik o‘rnatdi. Shu bilan bir vaqtida an’anaviy tilshunoslikdan jiddiy farq qiladigan tamoyilni-an’anaviy tilshunoslikni o‘zgartirish yoki to‘ldirish lozim bo‘lgan struktur lingvistikani yaratish tamoyilini shakllantirdi.

L.Elmslevning fikriga ko‘ra, lingvistikaga strukturlik tamoyili kiritilgan hozirgi kunda bu tamoyildan har xil mantiqiy natijalar olish uchun katta hajmdagi ishlarni amalgalosirish lozim.

Tilning sistema ekanligi. F.de Sossyur tilni substansiya emas, balki shakl ekanligini e’tirof etdi va bu bilan tilshunoslik tarixida til-nutq zidanishini biringchi planga olib chiqdi. Tilshunoslardan diqqatini nutqiy qurshovdan holi bo‘lgan muhiyatlarni o‘rganishga jalb qildi va tilning sistema ekanligini e’tirof etdi.

U tilda sinxron va diaxron holatlarni farqlar ekan, tilning sinxron holati uchun sistema xarakterli ekanligini ta’kidlaydi.

F.de Sossyur sistemaning ikki muhim xususiyatini ko‘rsatadi: a) sistemaning barcha a’zolari tenglikka ega; b) sistema yopiq hisoblanadi. Lekin keyinchalik til sistemasida ochiq sistemalar ham borligi aniqlandi.

F.de Sossyur konsepsiyasida *sistema* atamasi bilan birgalikda *struktura* atamasi ham muhim ahamiyatga ega. Struktura atamasi ostida sistema a’zolarining munosabat tiplari tushuniladi.

Tilning belgilar sistemasi ekanligi. F.de Sossyur lingvistik konsepsiyasining yana bir muhim jihatni tilning belgilar sistemasi ekanligi haqidagi qarashidir.

Til kishilar o‘rtasidagi eng muhim aloqa vositasidir. U ob’ektiv borliqdagi ma’lum voqeа-hodisa haqida axborot tashuvchi asosiy vositadir. Bundan axborot tashishning boshqa yo‘llari ham borligi ma’lum bo‘ladi. Masalan, yo‘l harakatidan ma’lumot beruvchi vositalar, yo‘ldan o‘tish-o‘tmaslik xabarini beruvchi vositalar va boshqalar. Bu jihatdan til ham axborot berish uchun xizmat qiladigan yuqoridagi vositalar sirasida turadi. Ularning hammasi uchun umumiylara narsa, avvalo, o‘zi haqida va shu bilan birga borliqdagi boshqa ma’lum narsa-hodisalar haqida ma’lumot berishdir. Bunday vositalar b yelgilalar deb nomlanadi.

F.de Sossyurning fikricha, til belgilari o‘z tabiatiga ko‘ra garchi psixik bo‘lsa ham, lekin u abstraksiya emas, balki jamiyat a’zolari til xotirasida joylashgan reallikdir. U ayrim mualliflarning til alohida narsalarning nomlari yig‘indisi (nomenklaturasi) degan qarashlariga tanqidiy munosabatda bo‘ladi.

Uning fikricha, lingvistik belgi **narsa** va uning **nomi** o‘rtasidagi munosabatdan emas, balki **tushuncha** va **akustik obraz** o‘rtasidagi munosabatdan tashkil topadi. Akustik obraz deganda fizik holat, moddiy tovushlar yordamida ifodalanish emas, balki tovushlanishning psixik muhri, sezgi a’zolarimiz tomonidan tovush tomoni haqida tasavvur tushuniladi.

F.de Sossyur o'zigacha bo'lган олимлар *belgi* deganda faqat akustik образни тушunganiga tanqidiy yondashgani holda, lingvistik belgi tarkibiy qismlarini ifodalovchi *tushuncha* atamasini *ifodalanmish* atamasiga, akustik образ atamasini *ifodalovchi* atamasiga o'zgartirishni tavsiya etadi. Bunday vaqtida **lingvistik belgi** atamasi butunni, keyingi ikki atama esa uning ikki tarkibiy qismini ifodalaydi. Keyingi ikki atamaning qulayligi shundaki, avvalo, butun tarkibidagi unsurlarning o'zaro zidlanishini, qolaversa, butun va bo'lak zidlanishini to'g'ri ifodalaydi.

Lingvistik belgi eng muhim ahamiyatga molik ikki xususiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Ularning birinchisi *erkinlik* (proizvolnost), ikkinchisi esa ifodalovchining *ketma -ketligidir*.

Lingvistik belgining erkinligi. F.de Sossyurning talqiniga ko'ra, har qanday lingvistik belgi ifodalovchi va ifodalanmish munosabatidan tashkil topgan butunlik sanaladi. Lingvistik belgining ifodalovchi va ifodalanmishi o'rtasidagi munosabat erkindir.

Masalan: *opa* tushunchasi *o-p-a* tovushlar ketma-ketligi bilan hech qanday ichki munosabatga ega emas. Bu tushuncha boshqa har qanday tovushlar ketma-ketligi asosida ham ifodalanishi mumkin. Bu turli tillarda mazkur tushunchaning turlicha ifodalanishi va turli tillarning mavjudligi bilan ham izohlanadi.

Lingvistik munosabatlar. F.de.Sossyurning lingvistik birliklar o'rtasidagi munosabatga jiddiy e'tibor bergenligi qiymat tushunchasini belgilashda ham, tilning sistemaviy tabiatini belgilashda ham aniq ko'rinish turadi.

Uning fikricha, tilning muayyan bir davrida har bir narsa munosabatlarga asoslanadi. Barqaror (uzual) munosabatlar yig'indisi tilni tashkil etadi va uning funksiyalanishini belgilaydi. Shuning uchun sistemaning har bir a'zosi boshqa a'zolar bilan sintagmatik va assotsiativ munosabati orqali aniqlanadi. Munosabatlarni xarakteriga ko'ra ikki guruhga ajratadi: a) sintagmatik munosabat va b) assotsiativ munosabat. Bu ikki munosabat aqliy faoliyatimizning ikki shakliga muvofiq keladi.

Sintagmatik munosabat ikki va undan ortiq munosabat a'zolarining aktual ketma-ketliligiga asoslansa va in praesentia bo'lsa, assotsiativ munosabat bunday munosabat a'zolarini virtual, mnemonik qatorga birlashtiradi, ularning a'zolari doimo in avbsentia bo'ladi.

Sintagmatik munosabat. So'z nutq jarayonida o'zaro bog'lanib, ketma-ketlikka asoslangan munosabatga kirishadi. Ketma-ketlik xususiyati ikki elementning bir vaqtida talaffuz -qilinishiga imkon bermaydi. Bu elementlar nutq oqimida biri ikkinchisi orqasidan teriladi. Ana shunday cho'ziqlikka ega bo'lgan bog'lanish F.de Sossyur fikriga ko'ra, sintagma sanaladi.

Assotsiativ munosabat. So'z sintagmatik munosabatga kirishi bilan birga nutqiy jarayondan tashqarida boshqa so'zlar bilan umumiylig belgisiga ko'ra so'zlovchi til xotirasida assotsiyalashadi va bu assotsiyalashgan birliklar xotirada muayyan guruhlarni hosil qiladi.

Guruhi birliklari o'rtasida esa xilma-xil munosabatlar mavjud bo'ladi. Masalan, *ishla* so'zini aytishimiz bilan beixtiyor xayolimizga, bir tomonidan, so'zla, *tuzla*, *muzla* singari so'zlar guruhi, ikkinchi tomonidan, *ishchi*, *ishsiz*, *ishli* kabi so'zlar guruhi keladi.

Lisoniy birliklarning bunday munosabati yuqorida ko'rsatilgan sintagmatik munosabatdan tubdan farq qilishi ta'kidlanadi.

Bu munosabat sintagmatik munosabatdan farqli ravishda ketma-ketlikka asoslanmaydi. Balki so'zlovchi xotirasida o'zaro bog'langan holda joylashadi. Bunday munosabat assotsiativ munosabat deb hisoblanishini bayon qiladi.

Sinxroniya va diaxroniya. F.de Sossyurning tilni belgilar sistemasi sifatida e'tirof etishi, nutqiy faoliyatning til va nutq dixotomiyasidan iborat ekanligi, lingvistik belgida o'zgarmaslik va o'zgaruvchanlik dixotomiyasining mavjudligi, tilning ijtimoiylicha haqidagi g'oyalari, tabiiy ravishda, tilning vaqtga munosabati g'oyasini keltirib chiqardi. Natijada uning sinxroniya va diaxroniya dixotomiyasi haqidagi ta'limoti maydonga keldi.

F.de Sossyur lingvistik birliklar o'rtasidagi zidlanishlarni chorrahaga qiyoslagan holda, til va nutq dixotomiyasini tilshunos duch keladigan birinchi chorraha, sinxroniya va diaxroniya o'rtasidagi zidlanishni esa ikkinchi chorraha hisoblaydi. Ikkinchi chorrahadan kesishgan yo'llarning birinchisi sinxroniyaga, ikkinchisi esa diaxroniyaga yetaklashini ta'kidlaydi.

Uning fikricha, tilning bir necha qonunlari bo'lib, ularning barchasining negizida sinxroniya va diaxroniya yotadi.

F.de Sossyurning lingvistik ta'limoti dunyo tilshunosligiga katta ta'sir qildi va struktur tilshunoslikning turli yo'naliшlarining shakllanishiga nazariy asos bo'ldi.

Funksional lingvistika. Praga strukturalizmi

Struktur tilshunoslikning shakllanishi va rivojlanishida Praga lingvistika maktabi alohida o'rinni egallaydi. Bu maktab negizida 1926 yilda mashhur chek tilshunosi V.Matezius (1882-1945) tashabbusi bilan tashkil etilgan Praga lingvistik to'garagi a'zolarining qarashlari yotadi. Praga lingvistik to'garaginegina nazariy qarashlari 1929 yilda Pragada bo'lib o'tgan slavyanshunoslarning I xalqaro se'zdida tavsiya etilgan "Praga lingvistik to'garagi tezislari"da bayon qilingan.

Praga lingvistik maktabining o'ziga xos xususiyati **strukturlik** va **funktionallik**dadidir. Bu maktab vakillari tilning strukturligiga tayanish bilan birga, til va uning birliklarining vazifasiga jiddiy e'tibor beradilar.

Unda ta'kidlanishicha, Praga maktabi lingvistik konsepsiyanining ikki muhim jihatni mavjud. Ularning har ikkisi Praga maktabining lingvistikaga olib kirgan yangilik uchun bir xil qimmatga ega. Bu muhim ikki jihatning birinchisi **strukturallikdir**. Praga lingvistlari lingvistik muammolar qatoriga struktura muammosini, ya'ni tilning struktur xarakteri va uning qismlari o'rtasidagi munosabat muammosini olib kiradi.

Ikkinci jihat shundan iboratki, Praga lingvistik maktabi **funktionaldir**. "Funksiya" atamasi bu o'rinda tobelilik ("zavisimost") ma'nosida emas, balki vazifa ma'nosida qo'llaniladi.

Shunday qilib, strukturlik va funksionallik Praga lingvistik maktabining ikki muhim xususiyati hisoblanadi. Shuning uchun ham Praga lingvistik maktabi funksional lingvistika nomi bilan yuritiladi.

N.S.Trubeskoy esa til va nutq dixotomiyasini e'tirof etgani holda, nutqiy jarayonning bu ikki aspekti o'rtasida katta tafovut mavjudligini, shuning uchun nutqiy jarayonning tovush tomonini turli fanlar o'rganishi lozimligini ko'rsatadi.

Ana shu asosda N.S.Trubeskoy til tovushlari va nutq tovushlarini ajratadi. Uning fikricha, nutq tovushlari haqidagi ta'limot konkret moddiy hodisalar bilan ish ko'rghanligi tufayli tabiiy fanlarning tekshirish metodi bilan ishlash lozim bo'lsa, til tovushlari, aksincha, sof lingvistik metod bilan ish yuritadi. Shunga ko'ra nutq tovushlari haqidagi ta'limotni **fonetika**, til tovushlari haqidagi ta'limotni esa **fonologiya** deb nomlanishini ta'kidlaydi.

Grammatika sohasida F.de Sossyurning til va nutq dixotomiyasini V.Skalichka qo'llab-quvvatladi. U grammatika atamasi ostida til doirasiga mansub bo'lган barcha sohalarni (fonologiyadan tashqari) tushunadi. Skalichkaning fikricha, til o'zining struktur grammatika deb yuritiluvchi maxsus o'rganish ob'ektiga ega. Bu bilan struktur grammatika nutq bilan ish ko'rvuchi tavsify (descriptiv) grammatikadan farq qiladi.

Praga tilshunoslari tilning barcha sath birliklarini funksional o'rganishga alohida ahamiyat berdilar.

Glossematika. Struktur lingvistikaning muhim tarmog'i glossematikadir. Bu yo'naliш F.de Sossyur konsepsiysi asosida, lekin uning qarashlariga bir tomonlama yondashgan holda maydonga keldi.

Glossematika yunoncha **glossa "til"** so'zidan olingen bo'lib, bu yo'naliш tarafdarlarining e'tirof etishiga ko'ra, ob'ektni o'rganishda o'ta sub'ektivizmga yo'l qo'ygan va shuning uchun noilmiy bo'lган an'anaviy tilshunoslikka qaramaqarshi ravishda paydo bo'ldi.

Glossematikaning asosiy tamoyillari V.Brendalning "Struktural lingvistika", L.Elmslevning "Til nazariyasi tezislari", "Boshqaruv tushunchasi", "Lingvistikada struktur tahlil metodi", "Til va nutq" singari bir qator asarlarida bayon qilingan.

Glossematikaning asosiy tamoyillari uning yirik vakili bo'lган L.Elmslev asarlarida yorqin o'z ifodasini topgan.

"Boshqaruv tushunchasi" asarida struktural lingvistika endigina shakllanayotgani, hozirgi kunda u amal qiladigan dastur haqida gapirish ham hali erta ekanligini ta'kidlagan holda, bu tilshunoslikning muhim jihatni tilga struktura sifatida yondashuv ekanligini bayon qiladi"

Uning fikricha, struktura o'z ichki tartibiga asoslangan ierarxiya ekanligi va yagona tayanch nuqtaga egaligi bilan xarakterlanadi. Bu ierarxiyani faqat deduktiv yo'l bilan yoritish mumkin.

Xuddi shunday ierarxiyani o'rganishga mo'ljallangan deduktiv metodni esa *empirik* yoki *immanent-semiologik* metod deb hisoblaydi.

Empirik yoki immanent - semiologik metod belgilar funksiyasini lingvistik tadqiqotlarning asosiy predmeti deb hisoblaydi. Bu metod, L.Elmslev ta'biri bilan aytganda, semiologik hodisalar bilan semiologik bo'lмаган hodisalarini farqlamasdan, ularni aralashgan holda o'rganuvchi har qanday metoddan afzallikka ega. Empirik metod bu *soddalik* tamoyiliga asoslangan metoddir.

Uning ta'kidlashicha, semiologik funksiya yangi tushuncha emas. Yangilik semiologik funksiyani birinchi planga olib chiquvchi struktural yondashuvdir. Struktural metod tufayligina lingvistika sub'ektivlik va noaniqlikdan, intuitiv va sof shaxsiy xulosalardan holi bo'lган chinakam fanga aylandi.

Struktural lingvistika tilshunoslikda yangi yo'naliш sanalib, uning metodi bir vaqtning o'zida *deduktivlik* va *empirik* tamoyilga asoslanishini bayon qiladi.

“Tilshunoslik va struktur tahlil metodi” asarida hozirgi tilshunoslikning asoschisi ko‘p jihatdan F.de Sossyur hisoblanishi, chunki u birinchilardan bo‘lib, tilni struktur o‘rganishga, ya’ni til birliklarini bevosita nutq jarayonida qanday voqelanishidan qat’iy nazar, ular o‘rtasidagi munosabatni o‘rganishga da’vat etganini bayon qiladi.

Ana shundan kelib chiqqan holda, u real til birliklari tovush yoki harf va ma’nolar emas, balki tovush yoki harf va ma’nolar yordamida gavdalangan *munosabat elementlaridir*, degan xulosaga keladi. Muhim narsa tovush yoki harflardan emas, balki nutq zanjirida va grammatikadagi paradigmalarda mavjud bo‘lgan *munosabatlardir*. Xuddi ana shu munosabat til sistemasini tashkil etadi. Xuddi ana shu ichki sistema ma’lum bir tilni boshqa bir tildan farqlab turuvchi xarakterli belgi sanaladi.

Amerika deskriptiv lingvistikasi. Struktur tilshunoslikning uchinchi yirik tarmog‘i deskriptiv lingvistika nomi bilan yuritiluvchi Amerika strukturalizmidir.

Deskriptiv lingvistika F.Boas (1808-1942), E.Sepir (1884-1939) va L.Blumfield (1887-1949)lar nomi bilan bog‘liqdir.

Deskriptiv metodni targ‘ib qiluvchi tilshunoslarning fikriga ko‘ra, tilshunoslikning bosh vazifasi tilni tavsiflash, ya’ni til faktlarini tushuntirish, izohlash emas, balki ro‘yxatga olishdan iboratdir. Ana shu vazifadan kelib chiqqan holda bunday tadqiqot metodi deskriptiv (ingl.to desscribe-“tavsiflash”) metod nomini oldi.

L.Blumfield deskriptiv lingvistika sistemasining bevosita yaratuvchisi sanaladi. Yu.D.Apresyanning ta’kidlashicha, Amerika lingvistik maktabining vujudga kelishi E.Sepir va L.Blumfieldlar nomi bilan bog‘liqdir. Ularning ta’limotlari asosida Amerika lingvistikasining ikki tarmog‘i maydonga keldi. Ularning biri Sossyur strukturalizmining davomchilari bo‘lib, L.Blumfield qarashlari, ikkinchisi esa E.Sepir qarashlari asosida shakllandi. L.Blumfield ta’limoti Sossyur strukturalizmining bir ko‘rinishi sifatida maydonga keldi. E.Sepir qarashlari asosida maydonga kelgan ikkinchi tarmoq esa Sossyur strukturalizmidan bir mucha chetga chiqadi. Chunki bu ta’limotda tilning struktur tahlili natijalari shu til egalari bo‘lgan xalqning moddiy va ma’naviy madaniyati struktur tahlili natijalari bilan solishtiriladi.

L.Blumfield tilning asosiy birliklari sifatida *fonema*, *morfemalarni e’tirof* etadi. Uning fikricha, minimal shakl *morfema*, uning ma’nosи esa *semema* sanaladi. “Shunday qilib, - deydi u, - boshqa takrorlanuvchi ma’noli shaklga ajralmaydigan takrorlanuvchi shakl morfemadir. Demak, har qanday ma’noli qismlarga bo‘linmaydigan so‘z yoki formant morfemadir”.

Bog‘liq morfemalardan foydalanish darajasiga ko‘ra tillarni *analitik* va *sintetik* tillarga bo‘ladi.

Shuningdek, morfologik nuqtai nazardan tillarning to‘rt guruhga bo‘linishida ham bog‘liq morfemaning qo‘llanilish darajasi tayanch nuqta bo‘lib xizmat qilishi ta’kidlanadi. Masalan, xitoy tili kabi bog‘liq morfemadan foydalanmaydigan tillar *ajralgan* tillar, turkiy tillar kabi bog‘liq morfema ketma-ket qo‘llanadigan tillar *agglyutinativ*, eskimos tili kabi mazmuniy muhim qism, masalan fe’lning ob’ekt valentligi bog‘liq morfema orqali ifodalanadigan tillar *polisintetik* tillar, bir necha

ma’no elementlari bir bog‘liq morfema orqali ifodalangan tillar *flektiv* tillar sanaladi.

Shuningdek, **til sathlari nazariyasi** ham L.Bluemfeld nomi bilan bog‘liqdir. Uning fikricha, tilni tavsiflashni eng quyi sath bo‘lgan fonologik sathdan boshlash lozim. Unda fonemalar miqdori aniqlanadi va bu fonemalarning qo‘shilish imkoniyatlari belgilanadi. Fonologik sath tavsiflangandan so‘ng yuqori sath-semantik sathga o‘tildi. Bu sath grammatika va leksikani o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, L.Bluemfeld tilni tadqiq etishning izchil sistemasini ishlab chiqdi.

Yu.D.Apresyanning e’tirof etishicha, L.Bluemfeld ishlab chiqqan sistema lingvistik tahlil texnikasini mukammallashtirishda metodologik asos rolini bajardi. O‘tgan asrning 30-yillari oxiri, 50-yillari boshlarida shakllangan va Amerika strukturalizmning eng obro‘li tarmog‘i sanalgan distributiv lingvistikaning paydo bo‘lishi uchun poydevor bo‘lib xizmat qildi.

Til. Tilning semiotik tabiatи

Til kishilar o‘rtasidagi eng muhim aloqa vositasidir. U ob’ektiv borliqdagi ma’lum voqeа-hodisa haqida axborot tashuvchi asosiy vositadir. Bundan axborot tashishning boshqa yo‘llari ham borligi ma’lum bo‘ladi. Masalan, yo‘l harakatidan ma’lumot beruvchi vositalar, yo‘ldan o‘tish-o‘tmaslik xabarini beruvchi vositalar va boshqalar. Bu jihatdan til ham axborot berish uchun xizmat qiladigan yuqoridagi vositalar sirasida turadi. Ularning hammasi uchun umumiylarsa, avvalo, o‘zi haqida va shu bilan birga, borliqdagi boshqa ma’lum narsa-hodisalar haqida ma’lumot berishdir. Bunday vositalar **belgilar** deb nomlanadi.

Inson o‘zini qurshab to‘rgan olamni bilish jarayonida olam unsurlarini obrazlar orqali ongida aks ettiradi va bu ongda aks etgan olam unsurlari belgi orqali ifodalananadi. *Sotsial axborotning har qanday moddiy ifodalovchilari belgi hisoblanadi.*

Tilning belgilar sistemasi ekanligi uning asosiy xususiyati va universal tomonidir.

XIX asr oxiriga qadar belgi nazariyasi bilan asosan faylasuflar shug‘llandilar. Faqat XIX asr oxiridan boshlab bu masala ruhshunoslarning ham diqqatini jalb qildi.

Belgi haqidagi falsafiy nazariya o‘zining uzoq tarixiga ega. Qadimgi ellinlar narsaning mohiyati va ularning nomlanishi yuzasidan ilmiy bahslaridayoq yashirin holda belgi tushunchasiga asoslangan edilar.

Faylasuflar ta’sirida XIX asrdan boshlab tilning umumiylar nazariyasiga bag‘ishlangan deyarli barcha lingvistik asarlarda so‘z ikki tomonlama xarakterga ega bo‘lgan belgi sifatida talqin qilina boshladi. V.Gumboldt, Shleyher, Shteyntal, L.Breal, A.Meye, F.Fortunatov, I.A.Boduen de Kurtene, N.Krushevskiy asarlarida so‘zga belgi nuqtai nazaridan yondashiladi. Lekin F.de Sossyur tilning belgilik tabiatini aniq-ravshan yoritib berdi. Hatto belgi nazariyasi bilan shug‘ullanuvchi alohida fan - **semiologiya** fani mavjud bo‘lishini va lingvistika ham semiologiya tarkibiga kirishi lozimligini ta’kidladi.

Bir tomonidan, strukturalizmning muvaffaqiyati, ikkinchi tomonidan, semiotika fanining rivojlanishi tufayli 50-yillardan boshlab belgi muammofiga qiziqish yanada ortdi. Lingvistik muammolarni semiotik aspektida o‘rganish

lingvistikaning o‘zining ham o‘rni o‘zgarishiga olib keldi. U ham inson bilimlari sistemasida markaziy o‘rin oluvchi fanga aylandi.

Belgini aniqlashda, odatda, uning ikki xususiyati ko‘rsatiladi: belgining birinchi xususiyati idrok qilinishdir. Demak, u idrok qilinishi uchun ma’lum moddiy asosga ega bo‘lishi kerak. Belgining moddiy asosi turlicha bo‘lishi mumkin; tovush (akustik), ko‘rish (optik), maza (gustator) va boshqalar.

Belgining ikkinchi xususiyati o‘zi haqida va boshqa ob’ekt haqida ma’lumot berishdir. Anglashiladiki, har qanday belgida o‘zaro ma’lum munosabatda bo‘lgan ikki ob’ekt mavjud bo‘ladi. Ob’ektlar o‘rtasidagi munosabat ikki xil: **sabab** – **natijali** munosabat va **shartli** munosabat. Sabab-natijali munosabatda o‘zaro munosabatda bo‘lgan ob’ektlar motivlangan, shartli munosabatda esa motivlanmagan bo‘ladi.

Belgilar ob’ektiv reallikdagi o‘zi aks ettirgan ob’ektga munosabatiga ko‘ra motivlangan va motivlanmagan belgilarga bo‘linadi. Masalan, tutunni ko‘rib, yong‘in yoki olov haqida, o‘rik gullaganini ko‘rib, bahor fasli haqida, suv jimirlaganini ko‘rib, baliq haqida, tosh so‘zini eshitib, qattiq jism haqida tasavvurga ega bo‘lamiz. Birinchi ob’ektlar (tutun, o‘rik guli, suv jimirlashi, tosh so‘zi), ikkinchi ob’ektlar (olv yoki yong‘in, bahor, baliq, qattiq jism) haqida axborot berish uchun xizmat qilyapti. Bularidan dastlabki uch ob’ektlar o‘rtasida (tutun va olov, o‘rik guli va bahor, suv jimirlashi va baliq) tabiiy bog‘lanish, sabab-natija munosabati, ya’ni ob’ektlar aloqasida motivlanish (motivatsiya) bor. Oxirgi ob’ektlar (tosh so‘zi va qattiq jism) munosabatida esa tabiiy bog‘lanish, sabab-natija munosabati (motivatsiya) yo‘q. Ular o‘rtasidagi munosabat shartli.

Mashhur Amerika olimi K.Fon Frishning ma’lumotiga ko‘ra asalarilar o‘yini ham belgi vazifasini bajaradi. Asalari o‘yinining shakli va chastotasi ozuqa manbaining masofasi va yo‘nalishi haqida ma’lumot beradi. Doira shaklidagi o‘yini ozuqa manbaining asalari uyasidan uzoq emasligini, yuz metr atrofida ekanligini, sakkiz shaklidagi o‘yini esa birdaniga ikki axborot - ozuqa manbaining masofasi yuz metrdan ancha ortiqligi va yo‘nalishini bildiradi. Masofa ma’lum vaqt ichida bajarilgan o‘yin shaklining miqdoriga bog‘liq. Masofa uzunligi asalari o‘yini chastotasiga teskari proporsionaldir. To‘qqiz-o‘nta sakkizlik bo‘lsa, yuz metr atrofidagi masofani, yetta sakkizlik shakli 200 metr masofani, to‘rt yarim sakkizlik shakli bir kilometr masofani, ikki sakkizlik shakli esa olti kilometr masofani ko‘rsatadi. Masofa qancha uzoq bo‘lsa, o‘yin shuncha sekin bo‘ladi. Yo‘nalish esa «sakkizlik» o‘qining nisbatiga ko‘ra belgilanadi. Quyoshga nisbatan «sakkizlik» o‘qining o‘ngga yoki chapga burilish burchagi yo‘nalish tomonini aniq ko‘rsatadi.

Asalari o‘yinining shakli va chastotasi bilan ular ifodalagan axborot o‘rtasida ham shartli, motivlanmagan munosabat bor.

Shuni ham ta’kidlash lozimki, biri ikkinchisi bilan almashinib keladigan har qanday ikki ob’ektning biri belgi bo‘lavermaydi. Faqat biri o‘rnida ikkinchisi muttasil almashinadigan va bu almashinuv (eng muhimi) inson ongida aks etganidagina belgilashadi. Masalan, tutun olovning belgisidir. Ammo uning belgiligi ob’ektlar o‘rtasidagi tabiiy sabab-natija (sabab-olv, natija-tutun) munosabati emas, balki bu munosabatning inson ongida aks etganligi,

konvensionalligi uchundir. Aks holda, tabiatdagi har qanday sabab-natija munosabatida bo‘lgan ob’ektlar o‘zlariga tabiiy ravishda belgi yaratib olardilar.

Sabab-natija munosabatli (motivlangan) belgilar tabiatdagi ob’ektlar o‘rtasidagi munosabatni inson ongida aks etishidan vujudga keladi. Shartli munosabatli (motivlanmagan) belgilarda esa ob’ektlar o‘rtasidagi munosabat inson tomonidan hosil qilinadi. Unda shu sub’ekiv hosil qilingan aloqa b yelgim a z m u n i (konsept yoki signifikat) hisoblanadi. Belgi orqali ifodalangan ob’ekt esa **denotat** yoki **referent** terminlari bilan nomlanadi.

F.de Sossyurning fikricha, til belgilari o‘z tabiatiga ko‘ra garchi psixik bo‘lsa ham, lekin u abstraksiya emas, balki jamiyat a’zolari til xotirasida joylashgan reallikdir. U ayrim mualliflarning til alohida narsalarning nomlari yig‘indisi (nomenklaturasi) degan qarashlariga tanqidiy munosabatda bo‘ladi.

Uning fikricha, lingvistik belgi **narsa** va uning **nomi** o‘rtasidagi munosabatdan emas, balki **tushuncha** va **akustik obraz** o‘rtasidagi munosabatdan tashkil topadi. Akustik obraz deganda fizik holat, moddiy tovushlar yordamida ifodalinish emas, balki tovushlanishning psixik muhri, sezgi a’zolarimiz tomonidan tovush tomoni haqida tasavvur tushuniladi.

Akustik obrazlarning psixik xususiyatini o‘zimizning shaxsiy nutqiy tajribamizda aniq kuzatishimiz mumkin. Labimizni ham, tilimizni ham qimirlatmasdan turib, ichimizda o‘z-o‘zimizga gapirishimiz yoki ma’lum she’riy parchani fikran o‘qishimiz mumkin. Til birligi bo‘lgan so‘zning tashqi tomoni akustik obraz bo‘lgani uchun ham uning tashqi tomoni tarkibiy qismlari haqida fikr yuritganda, “fonema” haqida gapirib bo‘lmaydi. Chunki bu atama fonatsiya jarayoniga, faqat real talaffuz qilingan so‘zga taalluqlidir.

F.de Sossyur o‘zigacha bo‘lgan olimlarning *belgi* deganda faqat akustik obrazni tushunishiga tanqidiy yondashgan holda, lingvistik belgi tarkibiy qismlarini ifodalovchi *tushuncha* atamasini *ifodalanmish* atamasiga, akustik obraz atamasini *ifodalovchi* atamasiga o‘zgartirishni tavsiya etadi. Bunday vaqtida **lingvistik belgi** atamasi butunni, keyingi ikki atama esa uning ikki tarkibiy qismini ifodalaydi. Keyingi ikki atamaning qulayligi shundaki, avvalo, butun tarkibidagi unsurlarning o‘zaro zidlanishini, qolaversa, butun va bo‘lak zidlanishini to‘g‘ri ifodalaydi.

Lingvistik belgi eng muhim ahamiyatga molik ikki xususiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi. Ularning birinchisi *erkinlik* (proizvolnost), ikkinchisi esa ifodalovchining **ketma -ketligidir**.

F.de Sossyurning talqiniga ko‘ra, har qanday lingvistik belgi ifodalovchi va ifodalanmish munosabatidan tashkil topgan butunlik sanaladi. Lingvistik belgining ifodalovchi va ifodalanmishi o‘rtasidagi munosabat erkendir.

Masalan: *opa* tushunchasi *o-p-a* tovushlar ketma-ketligi bilan hech qanday ichki munosabatga ega emas. Bu tushuncha boshqa har qanday tovushlar ketma-ketligi asosida ham ifodalanishi mumkin. Bu turli tillarda mazkur tushunchaning turlicha ifodalanishi va turli tillarning mavjudligi bilan ham izohlanadi.

Bu o‘rinda erkinni atamasining ma’nosiga alohida ahamiyat berish lozim bo‘ladi. Garchi lingvistik belgining ifodalovchi va ifodalanmish tomoni

o‘rtasidagi munosabat erkin bo‘lsa ham, lekin bundan so‘zlovchi belgining ifodalovchi tomonini erkin tanlaydi, degan xulosaga kelmaslik lozim.

So‘zlovchi lingvistik belgining jamoatchilik tomonidan qabul qilingan ifodalovchi tomoniga ozgina bo‘lsa-da o‘zgarish krita olmaydi. U o‘zining til xotirasida o‘zigacha bo‘lgan ifodalovchi va ifodalanmish munosabatidan tashkil topgan lingvistik belgini bir butun holda o‘zlashtiradi.

Lingvistik belgining erkinligi faqat uning ifodalovchi tomonining ifodalanmish tomoniga nisbatandir. Chunki bu ikki tomon o‘rtasida hech qanday tabiiy aloqa yo‘q.

Shu bilan birga, til sistemasida bu tamoyilga istisnolar ham uchraydi. Xususan, F.de Sossyur tovushga taqlid so‘zlar bilan undov so‘zlarni ana shunday belgilar qatoriga qo‘shadi. Lekin ularning kam sonligi va til sistemasining “organik elementi” emasligi, shuning uchun bu holatlar lingvistik belgining erkinligi tamoyilini rad etolmasligini ta’kidlaydi.

Ifodalovchi o‘z tabiatiga ko‘ra eshitish sezgisi orqali qabul qilinish xususiyatiga ega bo‘lganligi tufayli vaqtda kengayib boradi. Shuning uchun u vaqt belgisiga ko‘ra tavsiflanadi: a) u cho‘ziqlik belgisiga ega; b) bu cho‘ziqlik bir o‘lchovga ega.

Lingvistik belgining boshqa belgilardan, xususan, dengiz signallaridan asosiy farqi shundaki, u eshitish orqali qabul qilinadi va eshitilgan ifoda tomoni tovush ketma-ketligiga ega. Bir vaqtning o‘zida ikkita tovushni talaffuz qilib bo‘lmaydi. Bir element talaffuz qilingandan so‘ng, ikkinchisi talaffuz qilinadi. Ayniqsa, lingvistik belgining ifodalovchisi yozuv orqali ifodalanganda uning bu xususiyati ham ravshan namoyon bo‘ladi.

Til murakkab hodisadir. Qaysi tomondan yondashishga muvofiq, u turlicha ta’riflanishi mumkin.

1. Vazifasi nuqtai nazaridan: a) til kishilarning eng muhim aloqa vositasi, fikrni shakllantiruvchi, ifodalovchi; b) bilimlarni to‘plab, keyingi avlodlarga yetkazuvchi; v) tinglovchiga ta’sir qiluvchi vositadir. Bulardan birinchisi tilning *kommunikativ*, ikkinchisi *kummulyativ*, uchinchisi esa *ekspressiv* funksiyasini e’tiborga oladi.

2. Qurilish mexanizmi nuqtai nazaridan: til ayrim birliklar va bu birliklardan foydalanish qoidalari yig‘indisi.

3. Semiotik nuqtai nazaridan: til belgilar sistemasi.

4. Axborot uzatish nazariyasi nuqtai nazaridan: til mazmuniy axborotni kodlashtirish uchun xizmat qiladigan kod sanaladi.

5. Gnoseologik nuqtai nazaridan: til ma’nolar dunyosi bilan tovushlar dunyosi o‘rtasida vositachilik qiluvchi murakkab sistema (U.Cheyf) va boshqalar.

Bu ko‘rsatilgan ta’riflar tilning murakkab qirralardan faqat bittasiga tayanadi va har qaysisi o‘zi tayangan qirrasi nuqtai nazaridan bir tomonlama to‘g‘ri aks ettiradi.

V.M.Solnsev esa tilning bu belgilarining barchasini jamlagan holda unga quyidagicha ta’rif beradi: “Til kishilar o‘rtasida aloqa vositasi bo‘lib xizmat qiluvchi semiotik (belgilik) xususiyatga ega bo‘lgan funksional moddiy sistemadir”.

Til so‘z, morfema va fonemalarning oddiy yig‘indisi emas. U bir butun sistemadir. Tilning sistemaliligi uning ichki tuzilishida namoyon bo‘ladi. Chunki u ham ichki tuzilishiga ega bo‘lib, bu ichki tuzilish pog‘onaviylik xususiyatiga ega. Har bir pog‘onaga xos birlik ikki va undan ortiq uzvlarning o‘zaro munosabatidan tashkil topgan butunlikdir. Masalan, sintaktik sath birligi bo‘lgan *gap* predikativ belgini o‘zida ifoda etuvchi butunlik sanalib, shaxs (personallik), zamon (temporallik), modallik va tasdiq-inkorlik ma’nolari va bu ma’nolarni ifodalovchi shakllarning o‘zaro munosabatidan tashkil topadi. So‘z morfologik sath birligi sifatida ikki va undan ortiq morflarning o‘zaro munosabatidan tashkil topgan butunlik, morfema esa ikki va undan ortiq fonlarning o‘zaro munosabatidan tashkil topgan butunlik sanaladi.

Ko‘rinadiki, til bir butun sifatida sistema bo‘lib, u ichki bo‘linuvchanlik xususiyatiga ega. Tilning ichki bo‘linishi pog‘onaviylik kasb etadi. Til ichki bo‘linishining eng oxirgi nuqtasi shakliy tomondan *fonema (fon)*, mazmuniy tomondan *sema* bilan yakunlanadi. Masalan, jo‘nalish ma’nosini bildiruvchi morfema ikki va undan ortiq elementlarning o‘zaro munosabatidan tashkil topgan butunlik hisoblanadi. Bu butunlik shakliy tomondan [g] va [a] fonema (fon)larining xuddi shu tartibdagi sintagmatik munosabatidan, mazmuniy tomondan esa yo‘nalish (*Toshkentga*), atash (*akamga oldim*), evaz (*yuz so‘mga oldim*) singari semalar munosabatidan tashkil topgan.

Tilning ichki tuzilishining pog‘onaviylik tabiatи butunlik deb olinayotgan birlikning nisbiyligini ko‘rsatadi. Butunlik deb qaralayotgan ob’ekt faqat tilning ma’lum pog‘onasiga nisbatan olinadi. Bir pog‘onada butunlik sifatida qaralayotgan ob’ekt o‘zidan yuqori pog‘ona uchun katta butunlik tarkibiga uning elementi bo‘lib kiradi. Masalan, morfema morfemik sathda ikki va undan ortiq fonema (fon)larning munosabatidan tashkil topgan butunlik sifatida, morfologik sathda esa so‘z (so‘z shakl)ning bir elementi sifatida qaraladi.

Bu esa tilning sistemalar sistemasi ekanligidan dalolat beradi.

Tilning sistemaviylik tabiatini yoritishga ilk bor F. de Sossyur e’tibor qaratdi.

U tilda sinxron va diaxron holatlarni farqlar ekan, tilning sinxron holati uchun sistema xarakterli ekanligini ta’kidlaydi.

F.de Sossyur sistemaning ikki muhim xususiyatini ko‘rsatadi: a) sistemaning barcha a’zolari tenglikka ega; b) sistema yopiq hisoblanadi. Lekin keyinchalik til sistemasida ochiq sistemalar ham borligi aniqlandi.

F.de Sossyur konsepsiyasida *sistema* atamasi bilan birgalikda *struktura* atamasi ham muhim ahamiyatga ega. Struktura atamasi ostida sistema a’zolarining munosabat tiplari tushuniladi.

E.Benvenist turli sistemalarni tahlil qilish natijasida til shakllari ma’lum strukturaga ega, degan xulosaga keladi va uning quyidagi xususiyatlarini ko‘rsatadi:

1) u qismlari ustidan hukmronlik qiladigan ma’lum butunlikning birligi sanaladi;

2) bu birliklar ma’lum barqaror tamoyillar asosida shakliy tartibga solingandir;

3) butunning barcha qismlari u yoki bu vazifani bajarganligi tufayligina struktura xarakteriga ega bo‘ladi;

4) bu qismlar ma’lum sathning har bir birligi boshqa yuqoriroq sathning kichik birligi, ya’ni butunning bo‘lagi bo‘lishi mumkin.

Munosabatlar yig‘indisi tilning aloqa vositasi sifatida amal qilishini belgilaydi. Bu esa uning sotsialligini ko‘rsatadi. Lekin tilning boshqa sotsial hodisalardan, xususan, siyosiy, huquqiy hodisalardan farqi nimada, degan savolga F.de Sossyur: “*Til g‘oyalarni ifodalovchi belgilar sistemasi*dir”, -deb javob beradi. Shuning uchun Sossyur lingvistik ta’limotida lingvistik belgi masalasi markaziy o‘rinni egallaydi.

Nemis faylasufi Kassirer insonning rasional bilishini e’tirof etgan holda, tilning belgi ekanligini qayd etadi. Uning fikricha, inson ruhiga ramziy (simvolik) shakllar xosdir. U belgilarda, tilda, umumlashgan tushunchalarda namoyon bo‘ladi. Inson hayvondan fikrlash, o‘z xulqini ramziy vositalar yordamida shakllantirish imkoniyatiga egaligi bilan farqlanadi.

Shunday qilib, V.Fon Gumboldt tomonidan aytilgan va F.de Sossyur nomi bilan mashhur bo‘lgan tilning belgilar sistemasi ekani haqidagi qarash ilmiy jamoatchilik o‘rtasida keng tarqaldi.

Belgilarning tuzilishi haqidagi qarash bugungi kunda bir xil emas, ayrim tilshunoslar belgi deganda, faqat ifodalovchini e’tiborga oladilar, belgi ma’noga ishora qilishini ta’kidlaydilar (F.de Sossyur, L.O.Reznikov va boshqalar). Boshqa guruhdagi olimlar (Richards-Ogden, G.P.Melnikov va boshqalar) belgining ifodalovchi va ifodalanmish birligidan iboratligini qayd etadilar. Bu ikki yo‘nalish fanda monoliteralistik va biliteralistik qarash nomi bilan yuritiladi.

Biliteralistik qarashga muvofiq, har qanday lingvistik belgi ikki tomonlama mohiyat sanalib, ifodalovchi va ifodalanmish birligidan iborat. Ifodalanmishning o‘zi ham murakkab struktura sanalib, uning bir ma’nosini ob’ektiv reallik bilan bog‘lanadi. Shu sababli ham lingvistik belgining ifoda va ma’no tomonlarining dialektik munosabati haqida fikr yuritilganda, ularni ba’zan uchburchak (Richards-Ogden), ba’zan esa trapesiya (Melnikov) geometrik figuralari orqali belgilaydilar.

Har qanday so‘z lingvistlar tomonidan qanday talqin qilinishidan qat’i nazar, semantik uchburchak holidami, to‘rtburchak holidami, ob’ektiv borliqni ong orqali – aks ettirish bosqichi vositasida ifodalaydi.

Ob’ektiv borliq umumlashgan obrazlar orqali, til belgilari orqali o‘z ifodasini topadi. Bugungi kunda tilning belgilar sistemasi ekanligini deyarli barcha tilshunoslar e’tirof etdilar. Hatto o‘tgan asrning o‘rtalarida tilning belgilar sistemasi ekanligini rad etuvchi ayrim olimlar ham (jumladan, L.O.Reznikov va boshqalar), keyinchalik tilning belgilik tabiatini e’tirof eta boshladilar. Belgi tabiatiga ikki xil qarashning paydo bo‘lishiga ma’noni tilshunoslar tomonidan turli xil tushunish sabab bo‘ldi. Xususan, belgining ikki tomonlama tabiat mavjud ekanligini e’tirof etuvchi tilshunoslar tayangan asos, bizningcha, to‘g‘ri, ya’ni belgi ma’noga ega ekanligi bilan belgidir. Biroq bu fikrdan belgi ikki elementdan tashkil topgan bir butunlik (kombinatsiya) dir, - degan xulosa chiqarib bo‘lmaydi.

Belgining bir tomonlama ekanini ma’qullovchilar ma’noni belgi tarkibiga kiritish yoki kiritmaslik yoxud belgining biryoqlama va ikkiyoqlama mohiyat

ekanligini tan olish ko‘p jihatdan ma’no tabiatini turlicha tushunish bilan bog‘liqligini ko‘rsatadilar. Hozirgi kunda ma’noni munosabat turi va ideal aks ettirish sifatida ikki xil tushunish mavjud.

Ma’no munosabat turi sifatida tushunilganda, belgining ifodalanmish – predmetga munosabati hamda tushunchaga munosabati nazarda tutilib, unda belgiga ikki tomonlama mohiyat sifatida yondashishga asos mavjud bo‘ladi.

Ma’noni tushuncha bilan bir xil tarzda in’ikos kategoriyasi sifatida, ayni paytda, ong fakti sifatida tan olish ma’noni belgi tarkibiga kiritishga monelik qiladi va belgini bir tomonlama mohiyat deb qarashga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Belgining ikki tomonlamaligi tan olingan yo‘nalishda ma’no belgining ifodalanayotgan predmetga munosabati sifatida talqin etiladi, belgining bir tomonlamaligi yo‘nalishida esa ma’noga munosabat sifatida yondashuv to‘g‘ri emasligi ta’kidlanadi.

I.P.Susov “ifodalanmishning tildagi zidlangan a’zosi yaxlit belgining barcha tomonini tashkil etmay, balki uning faqat substansional tomonini tashkil etadi”, - deydi. Bu xususiyat belgining ifodalanmishi hisoblanadi. Belgining boshqa tomoni esa ma’no sanaladi. Ma’no til ifodasining tildan tashqaridagi ifodalanmishga nisbatan munosabatini ifodalaydi va shu asosda ma’no belgining substansional va funksional tomonlarini bir butun tarzida shakllantiradi. Lingvistik belgi ma’nosini aniqlashning murakkab ekanini lingvistik belgining bir vaqtida bir necha vazifada kelishini ta’kidlagan A.A.Ufimseva belgi shaklining ifodalanmish bilan munosabati ikki tomonlama ekanligini qayd etadi:

- 1) ifodalanmishning belgi shakliga munosabati;
- 2) ifodalanmishning predmetga munosabati.

Dastlabkisi ma’no, ikkinchisi ifoda sanaladi. Belgi ma’nosining shakllanishida belgi-predmet haqidagi tushuncha-predmet o‘zaro bog‘langan holda ma’lum darajada aks etadi.

Belgi bilan ifoda predmeti o‘rtasidagi alohida munosabat ostida inson ongi orqali yuzaga chiqadigan aloqa tushuniladi. Demak, belgi ma’nosini ifodalanmish bilan teng bo‘lmay, ifodalanmish belgidan va tildan tashqarida qoladi.

Belgining biryoqlamaligi va ikki yoqlamaligi muammozi ma’noga ikki xil yondashuv bilan bog‘liq. Belgiga biryoqlama mohiyat sifatida yondashuvchilar in’ikos jarayonini uch bosqichdan iborat deb hisoblaydilar:

- narsa;
- narsa belgilarining umumlashmasi;
- narsa obrazi (tushuncha)

Ikkinci yondashuv tarafдорлари in’ikos jarayonini to‘rt bosqichdan iborat deydilar:

- narsa;
- tushuncha;
- munosabat (ma’no);
- ifodalovchi.

Bu yondashuvga asosan ifodalovchi bilan narsaning umumlashgan obrazi, ya’ni tushuncha o‘rtasidagi munosabat ma’no hisoblanadi. Shunga ko‘ra, ma’no belgi tarkibiga kiritiladi.

Muammoning javobi: Til ramziy belgilar sirasiga kirib, sistemaviy xususiyatga egadir, in’ikos jarayoni to’rt bosqichdan iborat.

TIL STRUKTURASI VA SATHLARI

Bir paradigmaga mansub bo’lgan a’zolar umumiy belgiga ega bo‘lishi bilan birga, har qaysisi bir-biridan farq qiladigan xususiy belgilariga ham ega bo‘ladi. Xususiy belgilarga ega bo‘lishi paradigma a’zolarining o‘zaro zidlanishiga va alohida til birligi sifatida til sistemasida yashashiga imkon beradi. Bu shuni ko‘rsatadiki, muayyan umumiy belgi ostida birlashgan paradigma a’zolari o‘zaro farqlovchi belgilar majmuasidan iborat bo‘ladi. Demak, har qaysi paradigma a’zosi muayyan strukturaga ega bo‘ladi.

Lingvistik birliklar sistema tarkibida ma’lum munosabatda bo‘ladi. Ularni dastlab ikki guruhga ajratish mumkin: 1) bir sathga mansub bo’lgan birliklar munosabati; 2) turli sathga mansub bo’lgan birliklar munosabati, ya’ni sathlararo munosabat.

Bir sathga mansub bo’lgan birliklar o‘zaro ikki xil munosabatga kirishadi: 1) paradigmatic (paradigmatik) munosabat; 2) sintagmatic (ketma-ketlik) munosabat.

Bir sathga mansub bo’lgan, qimmat jihatdan bir xil birliklarning ma’lum umumiy belgi asosida bir guruhga (uyaga) birlashuvি paradigmatic munosabat sanaladi. Paradigmatik munosabatda bo’lgan birliklar uchun umumiy belgi sifatida shu birliklarning ma’nosi ham, shakli ham xizmat qilishi mumkin. Masalan, *ishchi*, *ishla* leksemalari o‘zakning umumiyligi bilan o‘zaro birlashsa, qo‘sishimchalari bilan farqlanadi. Yoki aksincha, *ishla*, *angla*, *so‘zla* singari leksemalar qo‘sishimchaning umumiyligi bilan birlashib, o‘zakning xilma-xilligi bilan farqlanadi. Leksik sathda ayrim leksemalar shakliy o‘xshashlik umumiy belgisi asosida bir uyani, sinfni tashkil etadi. Bunday leksemalar munosabati leksik omonimlarni hosil qiladi yoki ba’zi leksemalar ma’no umumiyligi asosida bir sinfga birlashadi. Lingvistik birliklarning paradigmatic munosabatini belgilashda ko‘proq ma’no umumiyligi belgisi xizmat qiladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, ma’lum umumiy ma’no asosida bir paradigmaga birlashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qilgan umumiy ma’no takrorlanishi lozim. Ana shu takrorlanuvchi ma’no (sema) har bir a’zoni ayni shu uyaga (paradigmaga) birlashtirish uchun xizmat qiladi. Shu bilan birga, uyaning har qaysi a’zosi boshqa a’zodan ma’lum belgilariga ko‘ra farqlanish xususiyatiga ham ega. Ana shu farqlanish belgisi bilan uyaning alohida birligi ekanligini saqlab turadi. Demak, har bir a’zo birlashtiruvchi va farqlovchi semalar birligidan tashkil topadi. Birlashtiruvchi sema har bir a’zoni ma’lum mazmuniy uyaga (paradigmaga) birlashishini, farqlovchi sema esa uya tarkibidagi har bir a’zoning o‘ziga xosligini, alohidaligini ko‘rsatib turadi. Anglashiladiki, paradigmanning har bir a’zosida umumiylilik va o‘ziga xoslik dialektikasi amal qiladi.

Har bir paradigma a’zolari bir-biri bilan zidlanish xususiyatiga ega. Zidlanish har qanday narsa va hodisaning ichki taraqqiyot negizidir. Shunday ekan, davrlar o’tishi bilan paradigma a’zolari o‘rtasida miqdoriy o‘zgarish ro‘y berishi mumkin. Ayrim a’zolar eskirib, iste’moldan chiqishi, yangisi kirib kelishi mumkin. Bu esa til sistemasining ochiq sistema ekanligini ko‘rsatadi.

Paradigma a'zolari nutq jarayonida har qaysi tilning muayyan qonun-qoidasi asosida hamda paradigma a'zosining ma'nosi doirasida boshqa paradigma a'zosining varianti bilan sintagmatik munosabatga kirishadi. Sintagmatik munosabatda munosabatga kirishuvchi lingvistik birliklar tanlanish xususiyatiga ega bo'ladi, ya'ni har qanday qimmat jihatidan bir xil bo'lgan lingvistik birliklar emas, balki mazmuniy muvofiqlashgan, ma'no taqozo etgan ikki paradigma a'zosi variantlarigina sintagmatik munosabatga kirishadi. Sintagmatik munosabatga paradigma tarkibidagi invariant o'zining barcha variantlari orqali emas, balki bitta varianti orqali munosabatga kirishadi. Masalan, *gapirmoq* leksemasi "biron fikri boshqasiga tovushlar majmuasi orqali ifoda qilmoq" semasi orqali faqat "shaxs" semasiga ega bo'lgan predmet bilangina sintagmatik munosabatga kirishadi. *Chaynamoq* leksemasi:

"ma'lum bir yemishni tish orqali maydalash" yoki "rezinani tish orqali ezg'ilash";

"yomonlamoq";

"ezmalanmoq";

"muayyan bir moddani o'ramoq"

singari leksik-semantik variantlar umumlashmasi - invarianti sanaladi. Bu leksik-semantik variantlar alohida-alohida tarzda sintagmatik munosabatga kirishadilar va har qaysi leksik-semantik variantlarning, bir necha paradigma a'zolarining varianti bo'lib kelishi mumkin.

Bir sathga mansub, murakkablik darajasiga ko'ra bir xil bo'lgan lingvistik birliklar munosabatidan tashqari, turli sathga mansub, turli murakkablikdagi birliklar ham o'zaro munosabatga kirishadi. Murakkablik darajasi turli xil bo'lgan, ikki xil sathga mansub lingvistik birliklar munosabati pog'onali munosabat sanaladi. Demak, quyi sath birligi o'zidan bir daraja yuqori sath birligi uchun qurilish (konstruktiv) birligi bo'lib xizmat qiladi. Yuqori sath birligi esa qurilma (konstruktiv) sifatida o'zidan bir daraja quyi sath birliklarining ketma-ketlik (sintagmatik) munosabatidan tashkil topadi. Masalan, **maktabga** so'z shaklining morfologik sath birligi sifatida morfemik sath birligiga nisbatan murakkablik darajasi yuqori, chunki u o'zidan bir daraja quyi morfemik sathning **maktab** va **-ga** birliklari o'rtasidagi sintagmatik munosabat hosilasi sifatida maydonga kelgan. Demak, morfologik sath birligi bo'lgan so'z shakl morfemik sath birligi bo'lgan morfemalarning (morfema variantlarining) o'zaro sintagmatik munosabatidan tashkil topadi. Morfema (morfema varianti) esa so'z shakl tarkibiga kiradi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, paradigmatic munosabatda bo'lgan lingvistik birliklar muayyan birlashtiruvchi semaga ega bo'lish bilan birga, o'zaro farqlovchi semaga ham ega bo'ladi. Ana shu farqlovchi semalar paradigma a'zolarining o'zaro zidlanishi uchun asos bo'ladi.

Sistemaviy tilshunoslikda paradigma a'zolarining ana shunday farqlovchi semalar asosida zidlanishini belgilash markaziy o'rinni egallaydi. Chunki lingvistik birliklarni ma'lum sinflarga birlashtirish qanchalik muhim bo'lsa, sinf a'zolarini bir-biriga zidlash ham shunchalik ahamiyatlidir. Sinflarga birlashtirishda lingvistik birlik mazmuniy mundarijasidagi birlashtiruvchi sema xizmat qilsa, bir-biridan ajratishda farqlovchi sema asosiy rol o'ynaydi. Shuning uchun sistemaviy

tilshunoslik asoschilaridagi zidlanish tushunchasiga katta e'tibor berib tilda zidlanishdan boshqa hech narcha yo'qligini ta'kidlaydilar.

Zidlanish a'zolari o'rtasidagi munosabatga ko'ra zidlanishlar privativ (qiyosga asos bo'lgan belgi birida bor, ikkinchisida yo'q bo'lgan zidlanish) darajali (gradual) va teng qimmatli (ekvipotent) zidlanishlarga bo'linadi.

Zidlanuvchi a'zolardan birida zidlanish uchun asos bo'lgan belgining mavjudligi, ikkinchisiga esa yo'qligiga asoslangan zidlanish, privativ zidlanish hisoblanadi. Zidlanuvchilarning belgiga ega bo'lgan a'zosi belgili (markirlangan), kuchli belgiga ega bo'lman a'zosiga esa belgisiz (markirlanmagan), kuchsiz a'zo deyiladi. Masalan, *t-d*, *k-g*, *p-b* undoshlari zidlanishlari privativ ziddiyatlar sanalib, zidlanuvchi juftliklarning har birida birinchi a'zo «ovoz» (jarang) belgisining yo'qligi, ikkinchisida esa borligi bilan xarakterlanadi. Bunday zidlanishlarning grafik ifodasi uchun kuchsiz a'zoga «-», kuchli a'zoga «+» belgisi qo'llaniladi. Masalan, so'z turkumlari sistemasida ot bilan fe'l o'rtasidagi qiyos uchun belgi «harakat» sanalib, birinchi bu belgining yo'qligi (-), ikkinchisi esa borligi (+) bilan xarakterlanadi.

Zidlanuvchi a'zolar bir belgining turli darajasini (gradatsiyasini) ko'rsatuvchi zidlanish darajali zidlanish hisoblanadi. Masalan, unlilarda og'iz ochilishining turli darajasini ko'rsatuvchi *u-o'-o*, *i-e-a* o'rtasidagi zidlanish.

Darajali zidlanish ko'p a'zoli bo'lib, darajalanish silsilasidagi birinchi va so'nggi a'zo chegara a'zolar, ular o'rtasidagi a'zolar esa oraliq a'zolar sanaladi.

Chegara a'zolar zidlanishning ikki qutbini tashkil etadi va maksimal zidlanish hosil qiladi.

Zidlanuvchi a'zolarning har ikkisi mantiqan teng bo'lgan ya'ni, belgining ikki darajasini ham, bor yoki yo'qligini ham bildirmaydigan zidlanishlar teng qimmatli (ekvipotent) zidlanish hisoblanadi.

Tilning ichki tuzilishini til birliklarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Til birliklari har qanday tilning tayanchi, u orqali ikkinchi signal sistemasi hisoblanuvchi til mavjud bo'ladi. Til birliklarisiz til tuzilishining mavjud bo'lishi mumkin emas. Tilning funksiyalanish jarayonida til birliklaridan nutqiy hosilalar vujudga keladi.

Shu kunga qadar tilshunoslikda til birliklarini deyarli barcha tilshunoslari e'tirof etsa ham, lekin qaysi birliklar til birliklari hisoblanishi yuzasidan turlituman fikrlar yuritiladi.

Xususan, Amerika deskriptiv tilshunosligida til birliklari sifatida fonema, morfema va konstruksiylar e'tirof etiladi. Morfema atamasi so'zning qismlari (o'zak va qo'shimchani) ham ma'noli qismlarga bo'linmaydigan mustaqil so'zlarni ham, yordamchi so'zlarni ham qamrab oladi.

Fonema tilning ifoda sistemasining minimal birligi, morfema esa tilning ifoda sistemasining ma'no bilan bog'langan asosiy birligi sifatida baholanadi. Ularning fikricha, tilning qolgan birliklari morfemalar qo'shiluvidan (aranjirovkasidan) hosil bo'ladi. Shuning uchun ular til sathida qo'shilish modellariga ega bo'ladi. Ana shu qo'shilish modellari konstruksiya hisoblanadi.

Boshqa tilshunoslari esa fonema, morfema, leksema, so'z va gap (gapning struktur sxemalari)ni til birliklari qatoriga qo'shadilar va til birliklarini ikki

guruhgaga ajratadilar: a) tilning asosiy birliklari (fonema, morfema), b) tilning konstruktiv birliklari (so‘z, gap).

Har qanday til birligi nutq jarayonida bir qancha nutq birliklari (variantlar) orqali namoyon bo‘ladi: fonema fonlar (allofon, tovush) orqali, leksema leks (aloleks, leksema varianti), morfema morf (allomorf, morfema varianti), so‘z so‘z shakli, gap jumla, allofrazema orqali namoyon bo‘ladi.

Tilning o‘zaro bog‘liq va bir-birini taqozo etuvchi bir necha qatlamlardan iborat ekanligi haqidagi qarash o‘zining uzoq tarixiga ega. Xususan, til tuzilishining an’anaviy tilshunoslikda uch qismga, leksik va grammatik qismlarga bo‘linishi va bu qismlarni o‘rganadigan tilshunoslikning uchta bo‘limga ajratilishi tilni ana shunday qatlamlar butunligi sifatida tushunishning yorqin namunasidir.

Lekin sistemaviy-struktur tilshunoslik shakllangunga qadar tilning bunday ichki tuzilishini qatlam sifatida tushunish amaliy kuzatishning ilk natijalari bo‘lib, til stratifikatsiyasi ilmiy jihatdan asoslanmagan edi. Sistemaviy-struktur tilshunoslikning shakllanishi va rivojlanishi til ichki tuzilishining o‘ziga xos xususiyatini, ichki tuzilish birliklarining oddiydan murakkabga qarab bosqichmabosqich rivojlanib borishi, quyi bosqich birligi o‘zidan yuqoriqoq bosqich birligi tarkibida o‘z funksiyasini ko‘rsatishini ilmiy asoslab berdi.

Shunday qilib, XX asrning 50-yillaridan boshlab til sathi (lingvistik sath) tushunchasi maydonga keldi. Bu tushunchaning shakllanishi va ilmiy asoslanishida L.Elmslev hamda bir qator Amerika deskriptiv tilshunoslari, xususan, Dj.Treyjer, K.Payk, Ch.Xokket, Z.Xarris singari olimlarning xizmati katta bo‘ldi.

Lingvistik sath tushunchasining paydo bo‘lishiga tilning ikki tomonlama mohiyat ekanligining e’tirof etilishi, shakli va mazmuniy tomonlarning har biri o‘ziga xos ichki tuzilishga ega ekanligi, ularning har qaysisi o‘z ichki uzvlari munosabatidan tashkil topgan kichik sistema ekanligi, shunday qilib, tilning tuzilishi sistemalar sistemasi tartibida bo‘lishi, ular o‘rtasidagi munosabat til mexanizmini harakatga keltirishi haqidagi qarashlarning maydonga kelishi turtki bo‘ldi. Garchi lingvistik sath tushunchasi keyinchalik bir qator tilshunoslari tomonidan e’tirof etilgan bo‘lsa ham, lekin bu atama juda keng ma’noda qo‘llanila boshlandi.

Shunday bo‘lishiga qaramasdan, tilning ontologik tabiatini nisbiy avtonom sistemalar (kichik sistemalar) majmuasi sifatida tasavvur qilish lingvistik sath konsepsiysi tarafdarlarini birlashtirib turgan umumiyligi jihatlardan sanaladi. Har bir kichik sistema chegaralangan miqdordagi elementlardan tashkil topadi va bu elementlar shu kichik sistema nuqtai nazaridan mayda bo‘laklarga bo‘linuvchanlik xususiyatiga ega deb e’tirof etish, shuningdek, har bir kichik sistema o‘z ichki elementlarining bir-biri bilan bog‘lanish qonun-qoidalariga ega ekanligini e’tiborga olishdir.

Sath tushunchasining ma’lum til birliklari yig‘indisi tushunchasi bilan aloqasi borligi shubhasiz. Lekin sathni belgilashda qanday lingvistik belgilarga tayanish masalasini aniqlash katta ahamiyatga ega.

Til birliklarini muayyan guruhlarga turli belgililar asosida birlashtirish mumkin. Shunga muvofiq ravishda sath tushunchasi nisbiy bo‘lib qoladi va bu tushuncha ayrim birliklarning ma’lum belgi asosida birlashgan guruhining oddiy nomiga aylanib qoladi.

Tilning ichki tuzilishini sathlarga ajratishda ana shunday boshboshdoqlikni bartaraf qilish uchun til birliklarining doimiy, barqaror sathlarini ajratishga imkon beradigan belgilariga tayanish lozim. Ana shunday belgi til birliklarining pog‘onaviylik belgisidir. Xuddi ana shu belgi deskriptiv tilshunoslik vakillari tomonidan tilni sathlarga ajratishning asosiy belgisi sifatida e’tirof etilgan edi. Lingvistik birlikning ana shu pog‘onaviylik belgisi lingvistik sathni belgilashning asosiy tamoyili sifatida e’tirof etilganda, til ichki tuzilishining pog‘onaviylik tabiatini to‘g‘ri ochilgan bo‘ladi.

Bunga muvofiq, lingvistik sath tushunchasi ostida o‘zaro pog‘onaviy munosabatda bo‘lmagan nisbiy bir xil birliklar munosabati anglashiladi. Bir sath birliklari boshqa sathga mansub (o‘zidan katta yoki o‘zidan kichik) bo‘lgan birliklar bilan pog‘onaviy munosabatda bo‘ladi. Bunda quyi sath birligi yuqori sath birligidan tashkil topadi, quyi sath birligi yuqori sath birligi tarkibiga kirish xususiyati aks etadi.

Til va nutq hodisalari umumiylit-xususiylik, mohiyat-hodisa, invariant-variantlilik tushunchalari bilan uzviy bog‘lanadi. Umumiylit va xususiylik dialektikasi to‘g‘risida gapirganda, Gegelning bir iborasini eslash o‘rinlidir. Biz gilos, olma, o‘rikni yeymiz, hech qachon mevani yeya olmaymiz. Yoki V.M.Solnsev ta’kidlaganidek, yilqi ichidagi qaysi otni boshqa otga nisbatan invariant deb hisoblash mumkin. Tabiiyki, hech qaysisini, faqat ularning bittasini «namuna» deb e’tirof etish mumkin.

Muammoning javobi: Til sistemaviy-struktur xususiyatga ega bo‘lib, u fonologik, morfemik, leksik, grammatik sath birliklari asosida shakllanadi.

3-MAVZU: TILShUNOSLIK METODLARI VA ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI

Reja:

1. Metod va metodologiya
2. Bilish usullari: amaliy va nazariy bilish.
3. Lingvistik metodlar. An’naviy metodlar: tavsifiy metod, qiyosiy-tarixiy metod.
4. Struktur metod: distributiv tahlil, bevosita ishtirokchilar metodi, transformatsiya metodi

MAQSAD: *Metod va metodologiya, lingvistik metodlar, an’naviy va yangi metodlar xususidagi bilimlarni chuqurlashtirish*

MUAMMO: *Tilni o‘rganishning yangi metodlari ularning o‘ziga xosliklari.*

Ob’ektni bilish jarayonida tadqiqotchi unga muayyan metodologiya va tekshirish metodi asosida yondashadi. O‘rganilayotgan ob’ektni qay darajada ob’ektiv izohlash tadqiqotchining qanday metodologiya va tadqiqot metodiga tayanishiga bog‘liq. Shuning uchun har qanday fanda metodologiya va metod tayanch nuqta bo‘lib xizmat qiladi.

Metod yunoncha methodos so‘zidan olingan bo‘lib, tadqiqot usuli demakdir. **Metodologiya** esa yunoncha methodos “tadqiqot usuli” va logos

“ta’limot” so‘zlaridan olingan bo‘lib, fanning tadqiqot usullari haqidagi ta’limotdir.

Metodologiya umuman ilmiy metod haqidagi ta’limot hamda xususiy fanlar metodlari haqidagi ta’limot, ya’ni bilish faoliyatini yo‘llari haqidagi ta’limot sifatida har qanday fan nazariyasi va amaliyotida katta ahamiyatga ega.

Ko‘rinadiki, metodologiya va metod tushunchalari o‘zaro uzviy bog‘liqdir. Xususiy fan metodlari bilan umumiy ilmiy metod bir-biri bilan munosabatdadir.

Bilish usullari umumiy va xususiy bo‘ladi. Shuning uchun u falsafiy metod, ya’ni umuman bilish usuli haqidagi metod va umumilmiy metodlarga bo‘linadi. Birinchi holatda metodologiya u yoki bu falsafiy sistemaga xos bilish metodi tamoyillariga muvofiqligi sifatida tushunilsa, ikkinchi holatda esa metodologiya u yoki bu fan tarmog‘iga xos tadqiqot metodlari haqidagi ta’limot sifatida tushuniladi.

Fan metodologiyasi bilishning falsafiy metodining muayyan fan doirasida o‘rganilayotgan ob’ekt xususiyatlaridan kelib chiqqan holda konkret qo‘llanilishidir.

Falsafiy metod, ya’ni bilish metodi tabiat, jamiyat va tafakkurning umumiyligi qonuniyatlari haqidagi ta’limot sanaladi.

Umummetodologik tamoyillar turli fanlar bergan ma’lumotlarni umumlashtirish asosida vujudga keladi.

Har qanday fan maxsus tadqiqot metodlarini ishlab chiqadi. Bu ilmiy tadqiqot metodlari falsafiy va mantiqiy metodlar bilan umumilmiy metodlar orqali muvofiqlashadi.

Xususan, tilshunoslikda qo‘llaniladigan metodlar matematika yoki fizikada qo‘llaniladigan metodlardan farq qiladi. Fizikada asboblar yordamidagi eksperiment metodi ustuvorlik qilsa, tilshunos matn tahlili va uni umumlashtirish usulidan ko‘proq foydalanadi.

Tilshunoslikda tavsifiy, qiyosiy-tarixiy, struktur singari metodlar qo‘llaniladi va ulardan qaysi birining ustuvor metodga aylanishiga ko‘ra tilshunoslik tarixi ham turli bosqichlarga bo‘linadi.

Metod atamasi bilan **metodika** atamasi ko‘p hollarda sinonim sifatida ishlatiladi. Lekin metod va metodika bir-biridan farq qiladi. Metod bilish usuli bo‘lsa, metodika bilish usulida qo‘llaniladigan yo‘l-yo‘riqdir.

Har qanday fan asosida kishilarning olamni bevosita kuzatishi yotadi. Inson o‘zini qurshab to‘rgan olam uzbeklarini sezgi organlari yordamida his qiladi, boshqalariga solishtiradi, farqli va o‘xshash belgilarini aniqlaydi, so‘ngra muayyan xulosaga keladi. Demak, har bir fan insonlarning olamni kuzatishi, bilishi jarayonida, uning natijasida paydo bo‘ladi.

Fanning asosi bo‘lgan bilish uzoq vaqtlardan buyon mutafakkirlarni qiziqtirib keladi. Jumladan, bizning bobokalonlarimiz ham bu sohada o‘zlarining qimmatli fikrlarini bayon qilganlar.

Dunyo allomalari ichida ikkinchi muallim nomi bilan mashhur bo‘lgan Forobiy bilishning ikki darajasini ajratadi. Xususan, u «Ilmlarning kelib chiqishi to‘g‘risida» («Ixso al-ulum») asarida ilmning kelib chiqish sabablari haqida fikr yuritib, quyidagilarni bayon qiladi: Olamda substansiya (javhar) va aksidensiya

(oraz) hamda substansiya va aksidensiyani yaratuvchi Marhamatli ijodkordan boshqa hech narsa yo‘qdir.

Forobiyning tilga olgan javhar va oraz haqidagi bu fikri bilish nazariyasida buyuk inqilob edi. Chunki bizni qurshab to‘rgan olam va uning unsurlari javhar va orazlarning o‘zaro dialektik munosabatidan tashkil topgandir.

Forobiy tilga olgan javhar va oraz tushunchalari ostida nima yotadi? Har qanday narsa dastlab bizning sezgi organlarimizga ta’sir qiladi. Ana shu sezgi organlarimiz yordamida his qilish mumkin bo‘lgan belgilar oraz sanaladi. Oraz Aristotel falsafasidagi aksidensiyani bildiradi.

Forobiyning tushuntirishicha, orazni besh sezgi organlari yordamida his etamiz.

Xususan, rang ko‘rish sezgi organi orqali; ovoz eshitish organi orqali; maza-ta’m – maza sezgi organi orqali; predmetlarning holati: sovuq-issiqligi, qattiq-yumshoqligi, tana sezgisi orqali, hid hidlash organi orqali xis etiladi.

Bu sezgi organlari insondan tashqari hayvonlarda ham mavjuddir. Demak, yuqoridagi sezgi organlari barcha jonzotlarga xos. Ular orqali har qanday jonzot o‘zini qurshab to‘rgan olamni amaliy biladi, unga moslashadi.

Tavsifyi metod tilshunoslikda eng qadimiy va eng keng tarqalgan metod hisoblanadi. Ayniqsa bu metod til o‘qitish tajribasi uchun katta ahamiyatga ega.

Tavsifyi metodning o‘ziga xos jihatni shundan iboratki, u ob’ektni bevosita sezgi a’zolari bergen ma’lumotga asoslanib o‘rganadi. Xususan, tilshunoslikda o‘rganish ob’ekti matn hisoblanadi. Matndan gaplar, gaplardan so‘zlar, so‘zlardan morfemalar, morfemalardan tovushlar ajratiladi va ular muayyan guruhlarga birlashtirilgan holda tavsiflanadi.

Tavsifyi metod ma’lumotlari boshqa barcha metodlar uchun tayanch nuqta bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, struktur metod tavsifyi metod xulosalariga tayangan holda ish ko‘radi. Yoki qiyosiy-tarixiy metod uchun ham qiyoslanayotgan ob’ekt haqidagi izohni tavsifyi metod beradi. Demak, u ham tavsifyi metod xulosalari asosida ish ko‘radi.

Olamni bilishda o‘rganilayotgan ob’ektni qiyoslash katta rol o‘ynaydi. Oldin o‘rganilgan ob’ektni yangi o‘rganilayotgan ob’ektga qiyoslash bilishning eng asosiy usullaridan biridir. Qiyoslash natijasida qiyoslanayotgan ob’ektlarning umumiy va o‘ziga xos jihatlari aniqlanadi. Bunday usul tilshunoslikda ham qardosh va qardosh bo‘limgan tillarning umumiy va o‘ziga xos jihatlarini yoritishda keng qo‘llaniladi. Shuning uchun ham qiyoslash umumilmiy tafakkur jarayoni sifatida lingvistik tahlilning barcha metodlarida uchraydi.

Lekin lingvistik tadqiqot metodikasida bir tilning ichki tuzilishi bo‘yicha qiyoslash va tillararo qiyoslash jiddiy farqlanadi. Bir tilning ichki tuzilishi bo‘yicha qiyoslash shu tilning turli grammatik hodisalari va kategoriyalarini o‘z ichiga oladi. Masalan, sifat bilan ravish qiyoslanadi va ularning umumiy hamda o‘ziga xos jihatlari aniqlanadi.

Tillararo qiyoslashda turli tillar bir-biriga taqqoslanadi.

Tillararo qiyoslash, bir tomonidan, qardosh tillarni, ikkinchi tomonidan, noqardosh tillarni o‘rganish va o‘qitish tajribasi ta’sirida maydonga keldi.

Tillararo qiyoslash o‘ziga xos tadqiqot usullari sistemasiga ega. U ikki xil tilshunoslik metodini vujudga keltirdi. Birinchisi, qardosh tillarni qiyoslash, ikkinchisi esa noqardosh tillarni qiyoslash.

Birinchi tipdagи qiyoslashda qardosh tillardan bittasini boshqasiga qiyoslash yo‘li bilan ularning tarixiy taraqqiyoti, ular o‘rtasidagi farqlanish jarayoni ochib beriladi. Bunday qiyoslash **qiyosiy-tarixiy metod** asosida olib boriladi. Bu metod tillarning genetik umumiyligiga asoslanadi.

Ikkinci tipdagи qiyoslash turli sistemadagi tillar asosida olib boriladi va uning natijasida tipologik kategoriyalar aniqlanadi. Bunday metod **qiyosiy-chog‘ishtirma metod** sanaladi.

Tilshunoslik tarixida strukturalizm XIX asrning 70-yillaridan boshlab hukm so‘rgan yosh grammatikachilarining pozitivistik qarashlariga qarshi maydonga chiqa boshladi. Ularning yosh grammatikachilarga qarshi chiqishiga fransuz “sotsiologik maktabi” va Fosslerning “nemis neofilologik maktabi” qarashlari ma’lum darajada zamin yaratdi. Garchi bu maktablar yosh grammatikachilar qarashlaridan tamoman uzilmagan bo‘lsa ham, lekin tilni, bir tomondan “sotsial fakt”, ikkinchi tomonidan, psixologizm deb tushunish strukturalizmning maydonga kelishiga turtki bo‘ldi.

Har qanday ilmiy oqim kabi strukturalizm ham o‘z g‘oyaviy asoslariga ega. Struktur tilshunoslikning paydo bo‘lishiga I.A.Boduen de Kurtene va F.de Sossyur qarashlari asos bo‘lib xizmat qildi.

Struktur lingvistikaning muhim tarmog‘i glossematikadir. Bu yo‘nalish F.de Sossyur konsepsiysi asosida, lekin uning qarashlariga bir tomonlama yondashgan holda maydonga keldi.

Glossematika yunoncha **glossa “til”** so‘zidan olingan bo‘lib, bu yo‘nalish tarafdarlarining e’tirof etishiga ko‘ra, ob’ektni o‘rganishda o‘ta sub’ektivizmga yo‘l qo‘ygan va shuning uchun noilmiy bo‘lgan an’anaviy tilshunoslikka qarama-qarshi ravishda paydo bo‘ldi.

Glossematikaning asosiy tamoyillari V.Brendalning “Struktural lingvistika”, L.Elmslevning “Til nazariyasi tezislari”, “Boshqaruv tushunchasi”, “Lingvistikada struktur tahlil metodi”, “Til va nutq” singari bir qator asarlarida bayon qilingan.

Struktur tilshunoslikning shakllanishi va rivojlanishida Praga lingvistik maktabi alohida o‘rin egallaydi. Bu maktab negizida 1926 yilda mashhur chek tilshunosi V.Matezius (1882-1945) tashabbusi bilan tashkil etilgan Praga lingvistik to‘garagi a’zolarining qarashlari yotadi. Praga lingvistik to‘garagining nazariy qarashlari 1929 yilda Pragada bo‘lib o‘tgan slavyanshunoslarning I xalqaro se’zdida tavsiya etilgan “Praga lingvistik to‘garagi tezislari”da bayon qilingan.

Praga lingvistik maktabining o‘ziga xos xususiyati **strukturlik** va **funkcionallikdadir**. Bu maktab vakillari tilning strukturligiga tayanish bilan birga, til va uning birliklarining vazifasiga jiddiy e’tibor beradilar.

Praga maktabi lingvistik konsepsiyasining ikki muhim jihat mavjud. Ularning har ikkisi Praga maktabining lingvistikaga olib kirgan yangilik uchun bir xil qimmatga ega. Bu muhim ikki jihatning birinchisi **strukturallikdir**. Praga lingvistlari lingvistik muammolar qatoriga struktura muammosini, ya’ni tilning struktur xarakteri va uning qismlari o‘rtasidagi munosabat muammosini olib kiradi.

Ikkinchi jihat shundan iboratki, Praga lingvistik maktabi **funktionaldir**. “Funksiya” atamasi bu o‘rinda tobelilik (“zavisimost”) ma’nosida emas, balki vazifa ma’nosida qo‘llaniladi.

Shunday qilib, strukturlik va funksionallik Praga lingvistik maktabining ikki muhim xususiyati hisoblanadi. Shuning uchun ham Praga lingvistik maktabi funksional lingvistika nomi bilan yuritiladi.

“Praga lingvistik to‘garagi tezislari”da bayon qilinishicha, til inson faoliyatining hosilasi bo‘lishi bilan birga, ma’lum maqsadga yo‘naltirilganlik xususiyatiga ega bo‘ladi. Shuning uchun lingvistik tahlilga funksional nuqtai nazardan yondashmoq lozim. Ana shu jihatdan til muayyan maqsadga xizmat qiluvchi ifoda vositalari sistemasi hisoblanadi.

Struktur tilshunoslikning uchinchi yirik tarmog‘i deskriptiv lingvistika nomi bilan yurituvchi Amerika strukturalizmidir.

Deskriptiv lingvistika F.Boas (1808-1942), E.Sepir (1884-1939) va L.Bloomfield(1887-1949)lar nomi bilan bog‘liqdir.

V.A.Zeginsevning ta’kidlashicha, Amerika strukturalizmi to‘g‘ridan-to‘g‘ri F.de Sossyur ta’limotidan kelib chiqqan emas. U Amerika induslarining tilini o‘rganish jarayonidagi amaliy ehtiyoj zamirida vujudga keldi.

Deskriptiv metodni targ‘ib qiluvchi tilshunoslarning fikriga ko‘ra, tilshunoslikning bosh vazifasi tilni tavsiflash, ya’ni til faktlarini tushuntirish, izohlash emas, balki ro‘yxatga olishdan iboratdir. Ana shu vazifadan kelib chiqqan holda, bunday tadqiqot metodi deskriptiv (ingl.to desscribe-“tavsiflash”) metod nomini oldi.

Deskriptiv tahlil ob’ekti muayyan bir tildagi alohida tugal jumla sanaladi. Jumla esa ma’lum shaxs nutqining ikki pauza orasidagi parchasi hisoblanadi. Lekin jumla bilan gapning bir-biriga teng emasligi, jumla bir so‘zdan ham, so‘z birikmasidan ham, tugallanmagan gapdan ham tashkil topishi mumkinligi ta’kidlanadi.

Deskriptivchilarining bayon qilishlariga ko‘ra, lingvistik tadqiqot ma’lum bir dialektdagi jumlalarni to‘plashdan va to‘plangan materiallarni tahlil qilishdan iborat bo‘ladi.

To‘plangan material, ya’ni matn elementlarga bo‘linadi va bu elementlarning bir-biriga nisbatan distributsiyasi aniqlanadi.

Til tuzilishini ifoda va ma’no, ya’ni shakl va mazmun tuzilishi munosabatidan tashkil topgan butunlik sifatida e’tirof etuvchi deskriptivchilar ko‘proq shakliy tuzilish birliklarini o‘rganishga e’tibor qaratadilar.

Distributiv tahlilning birinchi bosqichi jumani eng kichik qismlarga ajratish-segmentlash va ularni daftarda simvollar bilan ifodalashdan boshlanadi.

Bir tovushni turli o‘rinlarda qo‘llab, ularning **qurshovi** belgilanadi. Elementning **qurshovi** yuqoridagi yo‘l bilan aniqlangan **elementlar qo‘schnichiligidir**.

“Elementlar qo‘schnichiligi” atamasi ostida bir elementning boshqa elementga nisbatan egallagan pozisiyasi tushuniladi. Bir xil qurshovda to‘rgan segment turli informant tomonidan turlicha talaffuz qilinib, ma’noga ta’sir etmasligi mumkin. Bunday holatda ular bir segmentning turli vakillari sanaladi. Lekin ma’no o‘zgarishiga olib kelsa, bunday segmentlarni bir segmentning turli

vakillari deb bo‘lmaydi. Masalan, *tokning* birlinchi segmenti o‘rniga *n* segmentini qo‘ysak, tamomila yangi ma’noli *nok* kelib chiqadi. Demak, *t* va *n* segmentlari boshqa-boshqa segmentlarning vakillari sanalidi.

Jumlalarni segmentlash natijasida yuzlab ko‘rinishlarda talaffuz qilinuvchi **fonlar** ajratiladi. Bu segmentlarning nisbatan cheklangan miqdordagi sinflarga birlashtirilishi natijasida fonemalar aniqlanadi. Segmentlarni ana shunday guruhlarga - sinflarga birlashtirishda elementlar **distributsiyasi** (joylashish tartibi) xizmat qiladi. Elementlar distrbutsiyasi atamasi ostida shu elementlarning barcha qurshovlari yig‘indisi tushuniladi.

Distributsiya tahlili asosan segmentlarning shakliy qurshoviga, distributsiyaga tayanadi. Shuningdek, distributiv tahlilda tayanch tushuncha bo‘lgan distributsiyaning o‘zi aniq izohini topmaydi.

F.M.Berezinning ko‘rsatishicha, agar distributsiyani shu element uchraydigan barcha qurshovlar yig‘indisi deb tushunadigan bo‘lsak, distributsiya element asosida izohlanadi. Elementning o‘zi esa distributsiya asosida izohlanadi. Natijada “sehrli halqa” hosil bo‘ladi. Shuningdek, elementlar qurshovi tushunchasi ham aniq emas. Agar uni o‘rganilayotgan elementning ma’lum miqdordagi qurshovi deb tushunadigan bo‘lsak, bu tushunchaning unchalik aniq emasligini sezish qiyin emas. Uning fikricha, u yoki bu tilning xususiyatini bitta distributiv tahlil yo‘li bilan o‘rganish mumkin, degan umumiyy qarash ham unchalik to‘g‘ri emas. Lekin shuni tan olish kerakki, distributiv tahlil lingvistik tahlilning ob‘ektivligini aniqlashga sharoit yaratdi.

Diskriptiv lingvistika vakillari jumlanı eng kichik ma’noli qismlarga ajratishda, ya’ni segmentlarga bo‘lishda **bevosita ishtirokchilar** (BI) asosidagi tahlilga ham tayanadilar.

Bu metodga ishora L.Bluemfieldning “Til” asarida uchrasa ham, uning aniq tamoyillari R.Uellz va Yu.Naydalar tomonidan ishlab chiqildi.

BI metodiga muvofiq, tayanch nuqta **konstruksiya** hisoblanadi. Konstruksiya tarkibidan **ishtirokchilar** va **bevosita ishtirokchilar** (BI) ajratiladi.

Konstruksiya atamasi ostida ma’noli qismlarning ketma-ket munosabatidan tashkil topgan butunlik tushuniladi. Ishtirokchilar deb kattaroq konstruksiya tarkibiga kirgan so‘z yoki konstruksiya (yoki morfema)ga aytildi. Muayyan konstruksiyaning bevosita shakllanishida ishtirok etgan bir yoki bir necha ishtirokchilarga bevosita ishtirokchilar deyiladi. Masalan, *Shabboda qurg‘ur ilk sahar olib ketdi gulning totini*, (H.O.) jumlesi konstruksiya hisoblanadi. Uning tarkibida ishtirok etgan barcha ma’noli so‘zlar ishtirokchilar, bevosita aloqaga kirishgan so‘zlar esa bevosita ishtirokchilar (BI) sanaladi. *Shabboda* so‘zi bilan *totini* so‘zi o‘rtasida ma’lum ma’noda bog‘lanish (biri gapning boshlovchisi, ikkinchisi gapning yakunlovchisi) bo‘lsa ham, lekin ular o‘rtasida bevosita aloqa mayjud emas. Aksincha, *gulning* so‘zi *totini* so‘zi bilan *ilk sahar* so‘zi *olib ketdi* so‘zi bilan, *shabboda* *qurg‘ur* so‘zi *olib ketdi* so‘zi bilan o‘zaro zich bog‘langandir.

Bunga muvofiq, nutqning har bir mustaqil parchasi ikki qismdan tashkil topadi. O‘z navbatida, har qaysi qism yana o‘z ichida ana shunday qismlardan iborat bo‘ladi. Ko‘rinadiki, har bir konstruksiya binar tamoyilga ko‘ra qismlarga

bo‘linadi va bu bo‘linish konstruksiya doirasida graduallik (darajalanish) xususiyatiga ega bo‘ladi.

BI tahlilida, avvalo, so‘z birikmali ajratiladi va ular bir gap ichida birlashtiriladi. Shuning uchun BI tahlilini birlashtirish, o‘rash deb ham yuritiladi.

Birlashtirish jarayonida quyidagi qoidalarga amal qilinadi:

1) bir vaqtning o‘zida ikkitadan ortiq bo‘lmagan elementlar birlashtiriladi. Masalan, birdaniga *olib ketdi gulning totini* tarzida birlashtirish mumkin emas. Avval *gulning* so‘zi *toti* so‘zi bilan birlashadi. So‘ngra *gulning totini* so‘zi *olib ketmoq* so‘zi bilan birlashadi;

2) bog‘lanmaydigan elementlarni birlashtirish mumkin emas. Xususan, yuqoridagi gapda *qurg‘ur, ilk* so‘zlarini birlashtirib bo‘lmaydi;

3) BI tahlilini qo‘llash tartibi qat’iy belgilangan bo‘ladi.

Til elementlarining ketma-ketligi va ular o‘rtasidagi munosabatni o‘rganishga qaratilgan BI metodi struktur tilshunoslikning dastlabki davrlarida ancha muvaffaqiyatga erishgan va tilshunoslarning diqqat-e’tiborini o‘ziga jalg etgan bo‘lsa ham, lekin keyinchalik lingvistik tahlilning ob’ektiv va aniq bo‘lmog‘i uchun unda bir qator ojiz tomonlar mavjud ekanligi ma’lum bo‘lib qoldi.

Transformatsiya metodi dastlab deskriptiv lingvistika nazariyotchilaridan biri Z.S.Xerris tomonidan tavsiya qilingan edi. Uning fikriga ko‘ra, transformasiyoning tahlil (TT) BI metodi duch kelgan murakkabliklarning bir qancha qismini bartaraf qilishga yordam beradi. TT ko‘p jihatdan til tuzilish tahlilining algebraik metodini namoyon qiladi.

Z.S.Xerris tomonidan tavsiya etilgan TM uning shogirdi N.Xomskiy tomonidan rivojlantirildi.

L.S.Barxudarov transformasiyoning lingvistika (TL)ni ham o‘z ichiga olgan generativ lingvistikani (GL) struktur lingvistikadan farqlagan holda, uni tilshunoslikning struktur lingvistikadan keyingi bosqich deb hisoblaydi.

U tilshunoslik tarixini olamni bilishning dialektik nazariyasi belgilab bergen uch bosqichning qaysisiga tayanib ish ko‘rish belgisiga ko‘ra uch bosqichga - uch grammatik nazariyaga bo‘ladi: a) an‘anaviy, b) struktur, v) generativ (tug‘diruvchi) lingvistika.

TMga muvofiq, har qanday tilning sintaktik sistemasini *yadro* gaplar nomi bilan yuritiluvchi eng kichik (elementar) gaplar tiplari yig‘indisi sifatida gavdalantirish mumkin. *Yadro* gaplar deb sodda, yig‘iq, darak gap tushuniladi. Fe’l kesimli gap bo‘lsa, kesimi aniq nisbatda turadi. Bu eng kichik gaplar har bir tilning sintaktik sistemasining asosini tashkil etadi.

Yadro gaplardan turli shakliy o‘zgarishlar asosida asosiy ma’noni saqlagan holda ikkilamchi sintaktik qurilmalarning hosil qilinishi **transformatsiya** hisoblanadi. Bu metod gapning shakliy va mazmuniy tuzilishlarining o‘zaro munosabati zaminida vujudga keladi.

TM gapning ichki va tashqi strukturasi va bu struktura birliklarining o‘zaro munosabatiga tayanadi. Deskriptiv lingvistikada qo‘llanuvchi ichki struktura gapdan anglashilgan ma’no tuzilishini, tashqi struktura esa muayyan mazmuniy tuzilishining shakliy, ifoda tomonini bildiradi.

Transformasision tahlil ana shunday zaruriyatni qoplash vazifasini bajaradi. TM uchun **yadro gap**, **transformatsiya qoidasi** va **hosila gap** tushunchalari muhim sanaladi.

Yadro gap, ya’ni transformatsiya uchun asos bo‘lgan gap *operand*, hosila gap *transform* yoki *transformand*, operanddan transformandni hosil qiluvchi vosita *transformatsiya operatori* deb yuritiladi.

Shunday qilib, o‘zaro transformatsiya munosabatida bo‘lgan gaplar bir xil leksik maqomga ega bo‘lib, bir xil elementar ma’nolar kombinatsiyasidan tashkil topgan holda, turli xil grammatik (shakliy) maqomga ega bo‘ladi.

Transformatsiya **maxsus transformatsiya** qoidalari orqali amalgalashiriladi. J.Bo‘ronov ta’kidlaganidek, transformasision qoida asosiy va hosilaviy modellar o‘rtasidagi munosabatlarni topish usuli sanaladi.

Transformasision qoida *BiGa ajratish qoidasini*, *transformasision modellar yaratish qoidasini* va *morfofonemik qoidalarni* o‘z ichiga oladi. Transformasision qoida bitta konstruksiya yoki gapning ma’nosini ochishda bir qancha hosilaviy konstruksiya yoki gaplardan foydalana oladi.

Demak, transformatsiyaga asos bo‘lgan konstruksiya va transformandlar bir umumiy ma’no va barqaror leksik birliklar zanjiri asosida birlashib, bir sintaktik paradigmani hosil qiladi va unda yadro gap paradigmanning bosh a’zosi sanaladi.

Agar distributiv tahlil va BI metodlari jumla qanday mayda qismlardan tashkil topadi, degan savolga javob berishga harakat qilgan bo‘lsa, TM bu jumla qanday gapning transformasision qayta shakllanishidan hosil bo‘lgan, degan savolga javob berishi lozim bo‘ldi.

Muammoning javobi: Til birliklarini tahlil etishda an’anaviy metodlar bilan birga, yangi metodlarning o‘rni katta.

TILShUNOSLIKNING ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI

Tilshunoslik fani falsafa fani bilan chambarchas bog‘lanadi, falsafadagi umumiylilik-xususiylik, sistema-element, invriant-variantlilik dialektikasi tilda izchil amal qiladi.

Har qanday fan amaliy bilish ustiga qo‘yilgan nazariy bilimga asoslanadi. Bilish esa falsafa fanining asosi sanaladi. Nazariy falsafa asoschisi I.Kant uning o‘rganish predmeti narsalar (tabiat va jamiyat) emas, balki insonning bilish faoliyatini ilmiy tekshirishdan, inson aqliy faoliyatini aniqlashdan iborat ekanligini ta’kidlagan edi.

Falsafa insonning o‘z mohiyatini anglashi, borliqning turli sohalariga oid bo‘lgan hodisa va voqealar haqida, ularning tub mohiyatini ifodalaydigan umumiylilik xulosalar chiqarishi demakdir. Falsafiy tafakkur olamidagi narsa va hodisalarini fikrda umumlashtirib, o‘zaro bog‘liqlikda va rivojlanishda o‘rganish, ularning mohiyatini chuqurroq va to‘laroq bilishdir. Falsafa markazida borliq va uni bilish muammosi yotadi.

I.Kantning ta’kidlashicha, bizning ongimizdan tashqrarida, unga bog‘liq bo‘lmasan holda «narsalar olami» mavjud. Bunday narsalarni u «narsa o‘zida» deb nomlaydi. Bilish ana shu «narsa o‘zida»ning sezgi organlarimizga ta’siri natijasida

hosil bo‘ladi. Uning fikricha, sezgi organlarimizga ta’sir qiladigan «narsa o‘zida»ning sir-asrorlarini bilish mumkin emas.

Gegelning fikricha, dastlab olam va tafakkur ayniyati bo‘lgan va bu ayniyat dunyoning substansional (zotiy) asosini tashkil etgan. Tafakkur faqat sub’ektiv inson faoliyatigina emas, balki ob’ektiv mohiyat, barcha mavjudotning birlamchi manbai bo‘lgan. Tafakkur modda, tabiat holida o‘zini «begonalashtiradi». «Absolyut g‘oya»ning oliy taraqqiyot bosqichi «absolyut ruh», ya’ni insoniyat, insoniyat tarixi sanaladi.

Gegel tarixiy jarayonning dialektik xarakterini tadqiq qilar ekan, til taraqqiyotiga alohida ahamiyat beradi. U tilni nazariy aqlning yaratuvchisi hisoblaydi, chunki til uning tashqi ifodasi sanaladi.

Insonning sezgi organlari yordamida hosil bo‘lgan bilimi hissiy yoki amaliy bilish sanaladi. Bulardan tashqari, inson xayol surish, nutq yordamida ham bilimga ega bo‘lishi mumkin. Bilishning bu yo‘li quvvai notiqa va quvvai mutahayyila deyiladi. Notiqa quvvati boshqa barcha quvvatlarning (sezgilarning) yetakchisidir.

Hissiy bilim bilish jarayonining markaziy nuqtasi sanalsa ham, lekin u ko‘pincha aldab qo‘yishi mumkin. Masalan, Quyosh yer atrofida aylanayotganday ko‘rinadi, aslida esa aksincha.

Shuning uchun bizning ajdodlarimiz hissiy bilish bilan idrokiy bilishni ajratganlar. Idrokiy bilish hissiy bilimlarni solishtirish, qiyoslash, umumlashtirish, hissiy bilimlarning hosil bo‘lishiga asos bo‘lgan orazlar (aksidensiyalar) zamirida yashiringan mohiyatni – javharni aniqlash orqali hosil qilinadi. Masalan, tanada isitmaning ko‘tarilishini aniqlash hissiy bilim sanaladi. Lekin har qanday harorat o‘z-o‘zidan ko‘tarilmaydi. Uning ma’lum ichki sabablari bor. Ana shu sababni aniqlash isitmaga o‘xshash, u bilan bog‘liq bo‘lgan bir qancha hissiy bilimlarni solishtirish, qiyoslash, umumlashtirish orqali amalga oshiriladi va isitma nimaning alomati ekanligi aniqlanadi.

Solishtirish, qiyoslash, mantiqiy umumlashtirish orqali hosil qilingan bilim idrokiy, nazariy bilim sanaladi. Bu bilim orqali orazlar zamiridagi javhar belgilanadi. Har qanday fan ana shu belgilarni keltirib chiqaradi.

Bundan ko‘rinadiki, hissiy (faxmiy) bilim tajriba, amaliyot bevosita kuzatish bosqichi sanalib, haqiqiy nazariy (idrokiy) bilim amaliy bilimlarning o‘zaro munosabatini o‘rganish, umumlashtirish orqali hosil qilinadi va bu bilimga ega bo‘lish har qanday fanning bosh maqsadidir. Bilishning bu ikki bosqichi hozirgi davrdan barcha fan vakillari tomonidan e’tirof qilinadi.

Substansiya (lot. Substantia «mohiyat») atamasi falsafada antik davrdan buyon ishlataladi.

Antik davr filosoflari ham, O‘rtal asr sharq filosoflari ham keyingi davrdagi bir qator filosoflar ham substansiya deganda barqaror, o‘zgarmas mohiyat bilan uning moddiy dunyodagi o‘zgaruvchanlik, beqaror, xilma-xil ko‘rinishlari dialektikasini e’tiborga oladilar.

Ana shu dialektik bog‘lanishni ifodalash uchun g‘arbda *substansiya* va *aksidensiya*, sharq falsafasida *javhar* va *oraz* atamalarini qo‘lladilar.

Substansiya, javhar atamalari bevosita kuzatishda berilgan bir qancha moddiy narsalarning zamirida yashiringan va ularning har birida takrorlanadigan

umumiylasos, mohiyatni; *aksidensiya*, *oraz* atamalari esa muayyan asos, mohiyatning bevosita kuzatishda sezgi a'zolarimiz bilan fahm qiladigan bir qancha moddiy ko'rinishlarini ifodalaydi.

Falsafada substansiya va aksidensiya munosabati zot va tazohir (tajalli) atamalari ostida ifodalanadi. Zot goh simurg', goh go'zal podshoh, goh mahbuba; tazohir (tajalli) esa qushlar, go'zal podshohning oynadagi tasviri, oshiq kabi timsollar orqali beriladi.

Olam oyna (mir'ot) sifatida qaraladi va olamdagibizning sezgi a'zolarimizga ta'sir etadigan barcha konkret narsalar zotning, ya'ni Ollohning oynadagi tasviri, turli ko'rinishlarda jilolanishi deb qaraladi.

Tilshunoslik fani badiiy adabiyot bilan uzviy aloqadadir. Chunki til aloqa vositasi sifatida muayyan axborot tashuvchi oddiy belgilar sistemasigina bo'lib qolmay, balki tinglovchiga ta'sir qiluvchi qudratli vosita hamdir. Tilning birinchi funksiyasi an'anaviy va sistem-struktur tilshunoslikning o'rganish ob'ekti bo'lsa, ikkinchi funksiyasi lingvopoetikaning o'rganish ob'ektidir.

Lingvopoetika – lingvistik poetikaning qisqargan shakli bo'lib, badiiy asarlarda qo'llanilgan lingvistik birliklarning (fonetik, morfemik, leksik va boshq.) badiiy-estetik vazifalarini, tilning konnotativ funksiyasini o'rganadi. Boshqacha aytganda, lingvopoetika badiiy nutqni o'rganuvchi tilshunoslikning bo'limidir.

Badiiy nutq badiiy adabiyotning bayon qilish vositasi sanaladi. Filologiya tarixida badiiy asar tili va poetik til atamalari tez-tez uchrab turadi. Bu atamalar ifodalagan tushunchalar bir-biriga juda yaqin tursa ham, lekin o'zaro ma'lum jihatlari bilan farq qiladi. "Obraz", "Uslug", "Ko'chim (trop)", "Badiiy til", "Stilistika", "Poetika" kabi tushunchalar badiiy asar tili va lingvistik poetika uchun daxldor tushunchalardir.

Badiiy nutqni o'rganuvchi lingvistik poetika til sistemasining barcha sath birliklarning badiiy-estetik funksiyasini qamrab oladi. Fonetik-fonologik sathda fonetik birliklar ham badiiy-estetik vazifa bajarishi mumkin. Xususan, bir xil tovushlarning, bir xil bo'g'inalarning takrorlanishi she'riyatda go'zallikni, ta'sirchanlikni ta'minlovchi vosita sanaladi.

Leksik sathda leksemalarning ko'chma ma'nolarda qo'llanilishi ham LPning tekshirish ob'ekti sanaladi.

Shuningdek, gap bo'laklarining o'rinalashishi, gap tarkibida bir xil bo'laklarning takrorlanishi kabi hodisalar ham badiiy nutqni shakllantirishda xizmat qiladi.

Shunday qilib, LP tilning qaysi sath birligining badiiy-estetik funksiyasini o'rganishiga qarab fonetik poetika (FP), leksik poetika (LekP), sintaktik poetika (SP) kabi qismalarga bo'linadi.

LPning har qaysi turini alohida-alohida o'rganish va ularning o'zaro munosabatini ochish hozirgi tilshunoslik oldida to'rgan muhim vazifalardan biridir.

Nutqiy faoliyat, bir tomondan, tilshunoslikning o'rganish ob'ekti bo'lsa, ikkinchi tomondan, psixologiyaning ham tekshirish predmeti sanaladi. Demak, tilshunoslik bilan psixologiyaning ham kesishish nuqtasi mavjuddir. Ikki fan oralig'idagi kesishish nuqtasi psixolingvistikating o'rganish ob'ekti sanaladi.

Psixolingvistika atamasi amerika olimlari tomonidan ilmiy hayotga olib kirildi. Ilk marta bu atama 1946 yilda amerika psixolog N.Pronko tomonidan “Til va psixolingvistika” nomli maqolasida qo‘llanildi. Lekin bu maqolada psixolingvistikaning maqomi keng jamoatchilik e’tirof etadigan darajada belgilanmagan edi.

1953 yilda Indiana shtatining Blumington shahrida mashhur amerika psixologlari Dj.Keroll, folkloristika bo‘yicha shuhrat topgan T.Sibeok, tilshunoslik bo‘yicha ancha mashhur bo‘lib qolgan, induslar tili va madaniyati bo‘yicha taniqli mutaxassis Dj.Djenkins, tillarning geneologik tasnifi va til tarixi bilan shug‘ullanuvchi Dj.Grinberg kabi mashhur olimlar bilan birgalikda, bir qator yosh tadqiqotchilar ham ishtirok etdilar.

Ikki oy davom etgan bu seminarda psixolingvistik tadqiqotlarning nazariy asoslari bo‘yicha bir fikrga kelindi.

Seminarda ishtirok etgan olimlarning psixolingvistika bo‘yicha umumiyl platformasi 1954 yilda “Psixolingvistika” nomi bilan nashr etilgan kollektiv monografiyada o‘z ifodasini topdi.

Bu kitob ilmiy jamoatchilik o‘rtasida katta shuhrat topdi. Natijada psixolingvistika tilshunoslik va psixologiya oralig‘idagi alohida fan yo‘nalishi sifatida e’tirof etila boshlandi. Tez orada dunyoning turli mamlakatlarida, xususan, Angliya, Fransiya, Italiya, Ruminiya, Polsha, Chexoslovakiya, Gollandiya, Rossiya, Norvegiya, Kanada singari qator mamlakatlarda psixolingvistika maktablari dunyoga keldi.

Psixolingvistika garchi o‘tgan asrning 50-yillaridan shakllangan bo‘lsa ham, lekin uning ildizi uzoq davrlarga – tilshunoslikda anchadan buyon davom etib kelayotgan psixologik yo‘nalishga borib taqaladi. Demak, psixolingvistika XIX asr tilshunosligida hukm so‘rgan psixologik yo‘nalishning mantiqiy davomidir. Shuning uchun ham, avvalo, psixolingvistikaning ildizi bo‘lgan tilshunoslik nazariyasidagi psixologik yo‘nalish haqida fikr yuritishga to‘g‘ri keladi.

Tilshunoslikda psixologik yo‘nalish ancha davrlardan buyon hukm surib kelayotgan til mohiyatini mantiqiy asosda yoritishga qarama-qarshi ravishda XIX asrning 50-yillarida qiyosiy-tarixiy tilshunoslik negizida vujudga keldi.

Bu yo‘nalishning paydo bo‘lishida V.fon Gumboldtning til falsafasi katta ta’sir ko‘rsatdi. Tilshunoslikda psixologik yo‘nalishning asoschisi buyuk nemis tilshunosi V.Fon Gumboldtning shogirdi X.Shteyntaldir.

Psixologik yo‘nalish o‘zining dastlabki davrida bir qator dalillar asosida an’anaviy mantiqiy yo‘nalishdan uzilishga harakat qildi. Bu asoslar quyidagicha:

Mantiqiy va grammatik kategoriyalarning o‘zaro muvofiqligi juda kuchsiz darajadadir. Ularning munosabati doira va qizil tushunchalarining munosabatiga o‘xshaydi. Mantiq umuminsoniy mohiyatga ega. Shuning uchun muayyan xalqning tiliga xos xususiyatlarni ochib berolmaydi. Mantiq gipotezalarga tayanuvchi fan bo‘lsa, tilshunoslik genetik xususiyatga ega. Ya’ni tilshunoslik “nutqiy jarayon”ni tadqiq etish bilan shug‘ullansa, bu jarayon mantiqni qiziqtirmaydi.

Psixologik yo‘nalish tarafdarlari tilshunoslikning metodologik asosi sifatida mantiqni emas, balki psixologiyani e’tirof etadilar.

V.fon Gumboldt ta'sirida X.Shteyntal tilda "xalq ruhi"ning, xalq psixologiyasining ifodalanishini ko'rdi. Shuning uchun ham tilning sotsial tabiatiga alohida ahamiyat berildi.

U davrdagi psixologiya individual psixologiya edi. Shuning uchun X.Shteyntal sotsial psixologiyani (etnopsixologiyani) yaratish va uni targ'ib etish uchun M.Lotsarus bilan birgalikda "Etnik psixologiya va tilshunoslik" nomli jurnalni nashr etdilar. XX asr boshlarida V.Vundt ham tilshunoslikning metodologik asosi sifatida xalq psixologiyasi haqidagi fanni yaratishga harakat qildi. Lekin u alohida fan sifatida shakllanmadi. Shunday bo'lishiga qaramay, tilshunoslikda psixologiyaga tayanish harakati bir qator yangi yo'nalihsarning ochilishiga sababchi bo'ldi. Jumladan, tilshunoslikda xalq ruhini ochishga intilish tufayli, folklojni, mifologiyani topishmoq, maqol, matallarga va ularda ifodalangan xalq urf-odatlarini chuqr o'rganishga e'tibor kuchaydi. Ular xalq donoligining ifodalovchilari sifatida qaraldi.

Psixologik yo'nalihs tarafdarlari V.fon Gumboldt g'oyalariga sodiq qolgan holda, tilni doimo rivojlanib boruvchi dinamik, tarixiy hodisa sifatida baholadilar. Bunday yondashuv qiyosiy-tarixiy tilshunoslik g'oyalariga mos keladi.

Shu bilan birgalikda, assotsiativ psixologiya tushunchalari va amalini tilshunoslikka kiritish harakatida psixologik yo'nalihs tarafdarlari jonli nutqqa, bevosita nutqiy jarayonga, tilning ichki tomoniga, so'z va gaplarning ma'no tomoniga asosiy e'tiborni qaratdilar. Ularning ta'kidlashlaricha, tilning mohiyatini va kelib chiqishini yaxshiroq tushunishga qulay imkoniyat beradi.

Psixologik yo'nalihs vakillarining bevosita jonli nutqqa e'tibor qaratishlarida ham V.fon Gumboldtning ta'siri kuzatiladi. V.fon Gumboldt til va nutqni farqlagan holda, jonli nutqni o'rganish jarayonida, garchi ma'lum bir til vakillari bir umumiyl tilda gaplashsalar ham, ular, ayni paytda, o'z tillariga ham egadir, degan xulosaga keladi. Shuning uchun ham jonli nutqni va ayni paytda, individlar nutqini o'rganish lozim degan g'oyani olg'a tashlaydi.

Ma'lumki, V.fon Gumboldt asarlarida "tilning ichki shakli" tushunchasi markaziy o'rinni egallaydi. Bu juda keng tushuncha bo'lib, xalq ruhi, urf-odatlari va hokazolarni o'z ichiga oladi.

Psixologik yo'nalihs tarafdarlari ham bu tushunchaga katta e'tibor berdilar. X.Shteyntal uni til tarixiga nisbatan ham qo'llashga harakat qiladi. Uning fikricha, tarixgacha bo'lgan davrda tillar juda boy ichki shaklga ega bo'lgan, tarix davrida esa ular asta-sekin kamayib borgan. Bu fikrlar mashhur fransuz faylasufi J.Russo qarashlariga ham g'oyat monanddir.

Psixolingvistikaning o'rganish ob'ektiga quyidagilar kiradi:

- A. Nutqning vujudga kelish mexanizmini o'rganish.
- B. Bolalar nutqining shakllanish jarayonini o'rganish.

V. Turli nutqiy vaziyatda nutqni so'zlovchi bilan tinglovchi o'rtasidagi munosabatni hisobga olgan holda o'rganish.

G. Nutqning axborot tashish funksiyasini o'rganish va boshq.

Til bilan shu til egasi bo'lgan xalq uzviy aloqadadir. Xalq tarixidagi har bir voqe, xalqning urf-odatlari, turmush tarzi uning tilida aks etadi. Shuning uchun ham til bilan shu til egasi bo'lgan etnos o'rtasida qanday aloqa mavjud bo'lsa,

ularni o‘rganuvchi tilshunoslik bilan xalq tarixi va etnografiya o‘rtasida ham shunday aloqa mavjuddir.

Xalq elatlarining ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy hayotida ro‘y bergan har qanday o‘zgarish uning tilida ham o‘z ifodasini topadi. Shu sababli xalq tarixi uchun tarixiy hujjatlar, arxeologik yodgorliklar guvohlik bera olmagan taqdirda ham, uning tili qimmatli materiallar berishi mumkin. Ayniqsa, toponim, etnonim, etnotoponimlarni xalq tarixini inobatga olmay turib o‘rganib bo‘lmaydi. Shu bilan birgalikda, tilshunoslik etnografiya bilan ham uzviy aloqadadir.

Tilning shu til egasi bo‘lgan etnos madaniyatiga bo‘lgan munosabatini, tilning funksiyalanish va rivojlanish jarayonida etnomadaniyat, etnopsixologik omillar o‘rtasidagi aloqani o‘rganishga ehtiyoj tufayli etnolingvistika yo‘nalishi vujudga keldi.

Etnolingvistika atamasi grekcha **etnos** – xalq, qabila va **lingvistika** so‘zlaridan olingen bo‘lib, mustaqil lingvistik yo‘nalish sifatida XIX asrning 70-yillarida Shimoliy va keyinroq Markaziy Amerikadagi indus qabilalarining tili, madaniyati va urf-odatlarini o‘rganishning kuchayishi bilan paydo bo‘ldi. Lekin bu yo‘nalishning ilk davrida ko‘proq etnografiya masalalariga diqqat jalg qilindi, faqat o‘tgan asrning 20-yillarida muammoning lingvistik tomoniga ahamiyat kuchaytirildi.

Etnolingvistikaning mustaqil lingvistik yo‘nalish sifatida shakllanishida Amerika tilshunosi, etnografi F.Boas va uning izdoshlarining xizmati katta bo‘ldi. Ular yo‘nalishning muammolar doirasini va tadqiqot metodlarini belgiladilar. Etnolingvistika Amerika olimlari asarlarida ko‘pincha “antropololingvistika”, “etnosemantika” atamalari bilan ham almashtirib qo‘llaniladi.

Hozirgi kunda etnolingvistika dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida tilshunoslikning bir yo‘nalishi sifatida e’tirof etildi va bu yo‘nalish bo‘yicha keng tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Paralingvistikaning o‘rganish ob’ekti masalasida mutaxassislar o‘rtasida turli xil qarashlar mavjuddir. Ularning bir guruhi barcha kommunikatsiyaning noverbal vositalarini paralingvistika doirasiga kiritadilar. G.V.Kolshanskiy fikricha, paralingvistik vositalar sub’ektning verbal (so‘zli) kommunikatsiyasining chala tomonlarini to‘ldiradigan kommunikativ podsistemadir.

Ikkinci guruhdagilar esa faqat nutqni kuzatib boradigan har qanday so‘zsiz kommunikatsiya vositalarini paralingvistika ob’ekti hisoblaydilar. Quyidagi hodisalar nutqni kuzatib boradigan vositalar deb qaraladi: xarakterizatorlar (kulgi, yig‘i, esnashlarning turlariga ko‘ra xalqaro farqlari), kvalifiqatorlar (talaffuz tezligining turlari, asosiy tonning balandligi va boshqalar), ayiruvchilar (hm, uf-uf kabi til hodisasi bo‘lmagan tovushlarning kombinatsiyalari) hamda imo-ishoralar, mimikalar va yozuvdagagi turli yordamchi grafik ishoralar kiritiladi.

Yana bir gruppera tadqiqotchilar informatsiyada qatnashadigan barcha yordamchi vositalarni verbal bo‘lmagan vositalar doirasiga kiritib, ularni uch guruhga ajratadi:

1)tabiiy nutqni kuzatib boruvchi noverbal vositalar; 2)nutq ifodasi o‘rnida qo‘llaniladigan noverbal vositalar; 3)verbal vositalar bilan birga ishlatilib aralash holatni hosil qiladigan noverbal vositalar. Birinchisini paralingvistik holat,

ikkinchisini til belgilari substitutsiyasi, uchinchisini esa til va til bo‘lman vositalar interferensiyasi deb izohlaydi. Ko‘rinib turibdiki, bu guruhdagi olimlar faqat nutqni kuzatib boradigan noverbal vositalarnigina paralingvistika tarkibiga kiritadilar. Ularning fikricha, noverbal vositalar (imo-ishoralar ham) uch xil kommunikativ funksiyani bajaradi. Shulardan faqat birinchisigina paralingvistika doirasiga kiritiladi.

Biz paralingvistika doirasiga kommunikatsiyada ishtirok etadigan barcha supersegment vositalar va imo-ishora hamda mimikalarni kiritish tarafdomiz.

Paralingvistik faktorlar til strukturasiga kirmaydi. Chunki til sistemasi tashqi faktorlarga bog‘liq bo‘lman holda yashaydi. Kommunikatsiyaning yuzaga chiqishi uchun qandaydir yordamchi vositalarga muhtoj bo‘lmaydi. Til sistemasi hamisha har qanday fikr mazmunini, his-hayajonlarni o‘z ichki vositalari bilan ifodalash qudratiga ega. Ammo kommunikatsiyada informatsiyaga zyon yetmaydigan darajada fonasion energiyani tejashga intilish har qanday inson faoliyatiga xos xususiyatdir. Shuning uchun ham inson tilda doimo ortiqcha narsalardan qutulishga, zarur narsalarni esa bo‘rttirib ko‘rsatishga intiladi. Xuddi ana shu talabga ko‘ra, aytishi lozim bo‘lman ortiqcha formal vositalar o‘rnini kompensatsiya qilishda eng sodda va eng tejamli vosita bo‘lgan paralingvistik vosita tarkibiga kiruvchi kinetik vositalar yordamga keladi. Masalan, **Menga stol ustida to‘rgan bo‘yoq qalamni olib ber** frazasiда agar so‘zlovchi shu stolga yaqin bo‘lsa, **stolning ustidagi bo‘yoq qalam** qismi nutq situatsiyasi uchun ortiqcha bo‘lib qoladi. Natijada qo‘l bilan stol ustidagi bo‘yoq qalamni ko‘rsatib, **olib ber** qisminigina talaffuz qilgan holda, frazaning hamma qismidan anglashilishi lozim bo‘lgan fikrni ifodalash mumkin. Demak, qo‘lning ko‘rsatish harakati ellipsisga uchragan gap qismlarining funksiyasini bajaradi, uni kompensatsiya qiladi. Bu bilan ifodada ixchamlik tug‘iladi. Ko‘rinadiki, paralingvistik vositalar, birinchidan, nutqni ixchamlashtiradi, ikkinchidan esa nutqni kompensatsiyalash vazifasini bajaradi. Paralingvistik vositalarning nutq tarkibida ishlatilishi tilda doimo amal qilinadigan ekonomiya prinsipi tendensiyasi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Muammoning javobi: Tilshunoslikda umumiylit-xususiylik dialektikasi amal qiladi, hozirda lingvopoetika, psixolingvistika, etnolingvistika, paralingvistika kabi yangi sohalar maydonga keldi.

Til ijtimoiy hodisa bo‘lganligidan, u jamiyat bilan, jamiyatning hayoti bilan uzviy aloqadadir. Demak, tilning ijtimoiy mohiyati, ijtimoiy vazifikasi, tilga sotsial omillarning ta’siri, til taraqqiyotida til siyosatining roli kabi qator masalalarni o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi tilshunoslik yo‘nalishining shakllanishiga katta ehtiyoj tug‘ildi.

Ilmiy texnik revolyusianing rivojlanishi uning ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy, falsafiy muammolarinigina aktuallashtirmay, balki ijtimoiy-lingvistik muammolarni ham aktuallashtirmoqda, bu esa, o‘z navbatida, dunyo tillarining faoliyatiga, rivojlanishiga, o‘zaro munosabatiga, dunyo lingvistik jarayoniga ulkan ta’sir ko‘rsatadi.

Tillar faoliyati va rivojlanishining ichki qonunlarini sotsiolingvistik va strukturalistik yoritishda sotsiolingvistlar va struktur lingvistika (ayniksa tillarning

shakllanish muammolari bilan) shug'ullanuvchi tilshunoslar o'rtasidagi ayrim bahslar manbasi bo'lib, tillarning faoliyati, rivojlanishi, o'zaro munosabatida jamiyatning tilga ongli hamda stixiyali ta'sirini farqlagan holda sinxron va diaxron aspektida ko'rib chiqishda ijtimoiy faktorlarning roli haqidagi masala xizmat qiladi.

Jamiyat lingvistik hayotiga ilmiy-texnika revolyusiyasi ta'sirining xarakteri, tempi, ko'lami, sohalari va xususiyliklarini aniqlash - sotsiolingvistikaning eng muhim va aktual vazifasidir.

Zamonaviy ijtimoiy rivojlanish xamda ilmiy texnik revolyusiya tilni sotsiolingvistik va struktur o'rghanish muammolarini chuqur tahlil qilishni hayotiy zaruriyat qilib qo'ydi.

Glossematika asoschilaridan biri L.Elmslev konsepsiyasining mohiyati "tilni mutanosibliklar sof strukturasi sifatida qarashdir".

Sotsial lingvistika fonologik sistema birliklaridan tortib butun til strukturasigacha bo'lgan barcha til hodisalarini ijtimoiy shartlashgan hodisalar deb qaraydi.

Dunyo lingvistik jarayonining sotsiolingvistik tadqiqotlar ob'ekti bo'lmish tomonlari ilmiy texnika rivojlanishining eng kuchli ta'siriga uchraydi, ya'ni dunyo tillari ijtimoiy funksiyalarining notekis rivojlanish jarayonlari, terminologik sistemalarning paydo bo'lishi, ularning uzluksiz differensiatsiyasining o'sishi, hududiy dialektlarning "maydalashuvi", tillar(ayniqsa rivojlangan tillar)ning ijtimoiy-kasbiy differensiatsiyasining tezlashuvi, mafkurafiy konsepsiylar ta'sirining kuchayishi (ayniqsa, leksik-semantik va stilistik sistemalarga) va hokazo.

Til va madaniyat, milliy til va milliy madaniyat o'zaro chambarchas bog'langandir.

Madaniyat atamasini biz keng ma'noda qo'llaymiz, ya'ni moddiy va ma'naviy madaniyatni ko'zda tutamiz. Birinchisi, moddiy ishlab chiqarish, iste'mol, xo'jalik sohalari madaniyatini o'z ichiga olsa, ikkinchisi esa fan, maorif, san'at, badiiy adabiyot va boshqa barcha sohalarni qamraydi.

